

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIMI VAZIRLIGI

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

75.81
N 70

Asqar Nig'matov, Nigora Shomurotova

EKOTURIZM ASOSLARI

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

113725

ПРОИЗВЕДЕНА
В БИРНИТЕК
ОПК-3

TOSHKENT
«TURON-IQBOL»
2007

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ilmiy-metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Mas'ul muharrir: B. Alixonov — O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining raisi.

Taqrizchilar: A. Akramxo'jayev — O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi «Bionazorat» bosh mutaxassisi;

I. Hasanov — Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU Geografiya fakulteti, Tabiiy geografiya va geografiya ta'limi metodikasi kafedrasida dotsenti, g.f.n.;

A. Allabergenov — Toshkent Turizm kasb-hunar kolleji direktori o'rinbosari.

A. Nig'matov, N. Shomurotova.

Ekoturizm asoslari. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. — T.: «Turon-Iqbol», 2007. 128 bet.

BBK 33.17ya722
33.18ya722

Ilk bor O'zbekistonda turizm yo'nalishi bo'yicha kasb-hunar kollejlari uchun chop etilayotgan ushbu o'quv qo'llanmada yurtimizning boy va betakror tabiati qo'yniga fuqarolar va chet el turistlarining sayohatlarini uyushtirish, tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda buzilgan tabiat majmualarini qayta tiklashda yuzaga keladigan ekologik munosabatlarni tizimlashtirish, boshqarish va tartibga solishning asosiy jihatlari yoritib berilgan.

Ekoturizm fanining kollejlarda uchun tavsiya etilishidan asosiy maqsad, respublikamizda turizmning barcha sohalarida tez sur'atlarda rivojlanib borayotganligini e'tiborga olgan holda ushbu industriya uchun o'rta bo'g'in mutaxassislarini ta'minlab berish zaruratidir. O'quv qo'llanma ta'lim jarayonining deyarli barcha usullari — nazorat savollari, seminar mashg'ulotlar rejasini, mustaqil ish mavzulari, lug'at, test savollari, tavsiya etiladigan adabiyotlar, ekoturlarga oid jadval va rasmlar bilan boyitilgan.

I $\frac{2705080000 - 6}{M361(04) - 2007}$ - 2007

ISBN 978-9943-14-057-8

© Nig'matov A., Shomurotova N., 2007-y.
© «TURON-IQBOL» nashriyoti, 2007-y.

SO'ZBOSHI

Dunyo xo'jaligi tarkibida eng jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan iqtisodiyot sohaslaridan biri turizmdir. Butunjahon turizm tashkilotining ma'lumotiga ko'ra 2004-yilda turistik oqimning harakati 760 mln kishini tashkil etgan. 2003-yilga nisbatan o'sish sur'ati 10 foizga oshgan. Zamonamizda turizm oqimi, XX asrdan farqli ravishda nafaqat rivojlangan mamlakatlardan rivojlanganlariga, balki rivojlanayotgan mamlakatlarga tomon ham o'zgarmoqda. Bu o'rinda turistik bozorning deyarli yarmini qamrab olgan Osiyo-Tinch okeani mintaqalari, Yaqin va O'rta sharq mamlakatlari yetakchilik qilmoqda. Rivojlanib borayotgan mamlakatlarning turizm industriyasi, asosan, tabiiy yoki ekologik turizm hisobiga amalga oshirilmoqda.

Jahon hamjamiyati tomonidan umume'tirof etilayotgan masalalardan biri mahalliy, milliy, regional (mintaqaviy) va global (jahon) miqyosda barqaror rivojlanishga erishishdir. Barqaror rivojlanish esa ekologik muammolarning ijtimoiy va iqtisodiy muammolar bilan yagona tizimda turishi, ularni kishilik jamiyati faoliyatining barcha jabhalarida yaqin amaliy hamkorlik qilish orqali hal etish mumkin ekanligini ko'rsatadi. «O'zbekistonning dam olish va salomatlikni tiklash imkoniyatlari, — degan edi Prezident Islom Karimov — sayohat marshrutlarining xilma-xil turlarini tashkil etishga va sayohatchilarni butun yil davomida qabul qilishga sharoit yaratadi»¹. 2006-yil 17-aprelda «O'zbekiston Respublikasida 2006—2010-yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Prezident qarori qabul qilindi. 2007-yil 25-aprelda esa, Islom Karimov Singapurda qiladigan davlat tashrifi oldidan «Today» gazetasiga bergan intervyusida «Go'zal geografik va tabiiy sharoitlar respublika hududida ekologik turizmni rivojlantirish uchun g'oyat qulaydir....» deb alohida ta'kidlab o'tdi.

¹ *Islom Karimov. «O'zbekiston buyuk kelajak sari». — T.: «O'zbekiston», 1998. — 99-b.*

Turizm, ayniqsa, *ekologik turizm (ekoturizm)*ning ahamiyati beqiyos ekanligi amalda isbotlangan. Turizm industriyasi o'ziga katta sarmoya va resurslarni mujassamlashtirishi bilan bir qatorda davlat va jamiyat uchun zarur bo'lgan ma'rifiy-ma'naviy funksiyalarni bajaruvchi iqtisodiyot tarmog'idir. Ekoturizm orqali chet ellik mehmonlar O'zbekiston degan yurt hamda uning boy va betakror tabiati haqidagi tasavvurga ega bo'lsalar, fuqarolar esa o'z Vatani bilan yaqindan tanishadilar. Turizm orqali ularda ona yurtiga nisbatan milliy iftixor hamda g'urur tuyg'usini shakllantirish imkoniyati tug'iladi. Ushbu ijobiy funksiyalarni yuzaga keltirish uchun ilmiy asoslangan ekoturistik ta'lim va tarbiyani yo'lga qo'yish asosiy vazifalardan biridir.

Mazkur o'quv qo'llanmada yangi fan sohasi, ta'lim yo'nalishi hamda iqtisodiyot tarmog'i bo'lgan Ekoturizmning nazariy va amaliy asoslariga oid mavzularga alohida to'xtalib o'tildi. Unda ekoturizm obyekti, predmeti, tushunchasi, metodologiyasi, metodik tomonlari, taraqqiyot jabhalari, amaliy ahamiyati, ekoturistik marshrutlar kabi ma'ruza mavzulari, seminar mashg'ulotlar rejasi, amaliy va mustaqil ishlar yagona bir tartibda va uzviy ketma-ketlikda ko'rib chiqilgan.

Dunyo, rivojlanish va atrof-muhit muhofazasi
o'zaro bog'langan va ajralmasdir.

Barqaror rivojlanish qoidasi

I. NAZARIY QISM

1.1. EKOTURIZM — MUSTAQIL FAN SOHASI

Zamonamizda kompyuter, informatika, huquq, qonun, davlat kabi tushunchalar qatorida eng ko'p ishlatiladigan so'zlardan biri ekologiyadir. Ekologiya o'zi nima? An'anaviy izohlarga ko'ra, Ekologiya — o'zaro organizmlar o'rtasida va ularning yashash muhiti orasida voqe bo'ladigan o'zaro munosabatlari haqidagi fandır. Bu ma'no uning grekcha atamasidan kelib chiqqan bo'lib, «*oikos*» — uy, yashash joyi, yashash muhiti, «*logos*» — ta'limot degan tushunchani anglatadi. Ekologiyani birinchi bo'lib nemis tabiatshunos olimi Ernest Gekkel 1866-yilda «Organizmlarning umumiy morfologiyasi» degan kitobi orqali fanga olib kirdi. Uning ta'rifiga ko'ra, «Ekologiya — tabiatni iqtisodiy jihatdan tadqiq qilish orqali hamma tirik organizmlarning organik va noorganik muhit unsurlari bilan birga, uning ta'sir doirasida turgan antagonistik va noantagonistik aloqadorlikda bo'lgan o'simlik va hayvonot dunyosi o'rtasidagi munosabatlarni ochib berish». U ingliz olimi Charlz Darvinning tirik organizmlarning evolyutsion rivojlanishi to'g'risidagi ta'limotini rivojlantirib, har qanday tirik organizm atrof tabiiy muhitga moslashib, o'zining morfologik (ichki) va morfometrik (tashqi) ko'rsatkichlarini o'zgartirib borishini, moslashmagani esa tabiiy tanlash asosida qirilib ketishi nazariyasini o'z ilmiy-amaliy faoliyatida tadqiq etdi.

E. Gekkel dan so'ng ekologiya iborasiga turlicha ta'riflar berildi, lekin uning birlamchi tushunchasi umumiy tarzda saqlanib qoldi. Turli fikrlarni umumlashtirgan holda **ekologiyani noevolyutsion tarzda rivojlanuvchi tabiat tizimidagi tirik organizmlar va ularning atrof-muhit bilan bo'ladigan munosabatlariga doir qonuniyatlarni tadqiq qiluvchi fan tarmog'i, ularga oid bilimlarni beruvchi ta'lim yo'nalishi, ularni optimallashtiruvchi xalq xo'jaligi sohasi**, deyish mumkin¹.


¹ A. Nig'matov. «Ekologiya». — T.: «Cho'lpon», 2006. — 128-b.

Ekologiya XIX asrning ikkinchi yarmida biologiya fanlari tizimiga kirgan edi. Chunki u tirik organizmlar haqidagi fan tariqasida birinchi bo'lib biologlar tomonidan taklif etilgan. Lekin muayyan davr oralig'ida, fanlar va bilimlar rivojlangani sari *ekologiya nafaqat mustaqil fan sohasi*, balki *fanlar tizimiga* aylanib ketdi. Hozirgi kunda, mutaxassislarining hisoblariga ko'ra, 80 dan ziyod ekologik fanlar mavjud bo'lib, ulardan biri ekologik turizmdir (1-rasm).

2002-yilda Yoxannesburg shahrida bo'lib o'tgan Barqaror rivojlanish Butunjahon Sammitida qabul qilingan muhim xalqaro hujjatlardan biri «Barqaror rivojlanish Butunjahon Sammiti (BRBS) qarorlarini bajarish rejasi»ning IV bo'limi 24—26 moddalarida milliy davlat chegarasida va uning tashqarisida atrof-muhitni turizm orqali muhofaza qilish masalasi ko'tarildi. Undan tashqari «Xalqaro ekoturizm yili», «Xalqaro madaniy meros yili»ga bag'ishlangan bir qator uchrashuv va anjumanlarda (2002-yil), Kvebek deklaratsiyasi va Butunjahon turizm tashkilotining «Global turizm etika kodeksi»da turizmning eng ommalashayotgan shakli bo'lgan, ekoturizmni rag'batlantirish zarurligi ta'kidlab o'tildi va tegishli qarorlar qabul qilindi. Ekologik muammolarni hal etib borishning yana bir yangi jihati ekologik turizmni rivojlantirish orqali aholining ekologik ongi va madaniyatini ko'tarish. Go'zal va betakror tabiiy atrof-muhit insonlarning nafaqat tomosha obyekti, balki yashash makoni ekanligini anglagan kishi atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan ehtiyotkorona foydalanish, buzilganlarini qayta tiklash bugungi va kelajak avlodlar uchun qanchalik zarur ekanligini biladi va ongli ravishda unga sarf-xarajatlar qiladi.

Ekologik turizm nima o'zi? U boshqa turdagi turizm va servis (xizmat)dan nimasi bilan farq qiladi? *Turizm* so'zi fransuz tilida *tourisme* — «sayohat qilish, dam olish bo'lib, shu bilan bir qatorda sport va umumtarbiyaviy yoki siyosiy-ma'rifiy vazifalarni bajarish degan ma'noni ham anglatadi (Kratkiy slovar inostrannix slov. — M.: «Izd.inostr.i nas.slovarey», 1958. — S.404).

Shunday qilib, tur ma'noda ekoturizm — *kishilarning tirik organizmlar (jumladan, insonlar) yashaydigan muhitga sayohat qilishlari*. Keng ma'noda esa ekoturizm — *shaxslarning doimiy yashash joylaridan dam olish, sport bilan shug'ullanish, sog'lomlashish, ma'rifiy-ma'naviy (umumtarbiyaviy) ishlarni amalga oshirish yoki boshqa maqsadlarni ko'zlagan holda atrof tabiatga yoki muayyan tabiiy obyektlarga ekologik maqsadlardagi sayohatlari*.



1-rasm. Ekoturizmning ekologik fanlar o'rtasida tutgan o'rni.

Turli adabiyotlarda Ekoturizm turlicha talqin qilinadi. Bizning dunyoqarashimizga yaqin bo'lgan *Avstraliyaning Milliy ekoturizm Strategiyasida* ekoturizm — tabiatga yo'naltirilgan turizm, deb ifodalangan. Ekologik barqarorlik qoidalaridan kelib chiqqan tarzda u o'z ichiga ekologik ta'lim va tarbiyani qamrab oladi.

Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi (TMQXI) ekoturizmni «atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, unga sayr qilganda «ayab» ta'sir ko'rsatish yo'li bilan madaniy va tabiiy merosni o'rganish hamda zavqlanish nisbatan buzilmagan tabiiy hududlarga ekologik mas'uliyatli sayohat», deb tushuntiradi.

TMQXIga yaqin tushuncha *Ekoturizm jamiyati* ta'rifida mavjud. U ekoturizmni «mahalliy aholi va undagi tabiatni muhofaza qilishga ko'maklashuvchi tabiiy hududlarga mas'uliyatli sayohat», deya izohlaydi.

Butunjahon yovvoyi tabiat jamg'armasi ekoturizmni «atrof-muhitni muhofaza qiluvchi tabiiy turizmdir» deydi.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha ekoturizm tushunchalarida, bizning fikrimizcha, quyidagi ekoturistik shartlar ifodalanmay qolgan:

- ekoturizm bilan tabiiy turizm turi aralashirib yuborilgan;
- ekologik inqirozli hududlar ham ekoturistik obyekt bo'lishi mumkinligi aniq ko'rsatilmagan;
- ekosayohatchilarning asosiy maqsadlari doim ham tabiatni muhofaza qilish bo'lmaydi, lekin ularni atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga undash va undan tushgan foydaning asosiy qismini o'sha ekoturistik muhitni muhofaza qilishga yo'naltirish lozim bo'ladi. Aks holda ekoturizmning tabiiy turizmdan farqi qolmaydi;

• buzilgan tabiat unsurlari va ularning komponent (tarkib) larini tiklash masalasi qo'yilmagan yoki bu holat yetarlichi ifodalanmagan.

Ekoturizmning umumiy tushunchasidan kelib chiqqan holda, uning mazmunidagi quyidagi holatlarga e'tiborni qaratish lozim. **Birinchidan, jismoniy va yuridik shaxslar** ekoturizm *subyekt*i yoki uning *qatnashchilari* sifatida ishtirok etishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga binoan *jismoniy shaxslar* toifasiga — muayyan davlat fuqarolari, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar kiradi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 50-moddasida esa barcha fuqarolar, qanday faoliyat bilan shug'ullanmasinlar, tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburlar,

deyilgan. Afsuski, jismoniy shaxslarning turistik sayohatlari stixiyali (tartibsiz), ravishda kechib, muayyan tashkiliy va boshqaruv imkoniyatining kamligi bilan ajralib turadi. Ma'lumotlarga qaraganda¹ ekologik turizm bilan band bo'lgan jismoniy shaxslar yuridik shaxslarga nisbatan tabiiy atrof-muhitga 3—4 barobar ko'proq zarar keltirar ekanlar. Birgina AQSHning Luiziana shtatida «erkin» holdagi turistlar — jismoniy shaxslar bir kunda tabiatga 13—16 mln dollarlik talafot keltirmoqda. Ekologik chora sifatida mahalliy ekologik boshqaruv organlari jismoniy shaxslarni «ekologik sertifikatlash» va «ekologik sug'urtalash» ga majbur etishni yo'lga qo'ymoqdalar.

Yuridik shaxs — o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida ekologik turizm bilan shug'ullanish imkoniyatini beruvchi mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob bera oladigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, zimmasidagi majburiyatlarini bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot, korxonalar, muassasa.

Yuridik shaxslar, jismoniy shaxslardan farqli ravishda yuridik maqomiga ko'ra uyushgan, maxsus ruxsatnomaga ega bo'lgan, balans va smetasida turizmga oid tegishli xarajatlarni ko'zda tutgan, salbiy ekologik oqibatlariga o'zining mol-mulki bilan javob bera oladigan yoki da'vogar bo'la oladigan, ya'ni davlat, nodavlat va o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan boshqarish va tartibga solish imkoniyati yuqoriligi bilan ajralib turadigan ekologik turizm qatnashchilaridir. Shuning uchun ham kelajakda maxsus tayyorgarlikka va javobgarlikka ega bo'lgan ekologik yo'nalishdagi turistik tashkilotlarni rivojlantirish xalqaro hamjamiyat, davlat va jamiyatning asosiy vazifalaridan bo'lib qoladi.

O'zbekistonda xalqaro Ekosan jamg'armasi huzurida «Ekosantur» markazi 2002-yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda. U barcha davlat va nodavlat organlari bilan birgalikda Respublikamizning go'zal tabiat maskanlariga sayohatlarni uyushtirish, fuqarolarimizni o'zga yurt tabiati bilan tanishtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. «Ekosan-tur» xalqaro markazi «Ekoturizm va barqaror rivojlanish» mavzusida davlat idoralari, shaxsiy turistik firmalar va kompaniya-

¹ Отчет Межправительственной комиссии по туризму. — Гаага, 1989. — 123 с.

lar, jamoat tashkilotlari, diplomatik korpus hamda xalqaro tashkilotlar rahbarlari va vakillari ishtirokida 2005-yil mart va 2006-yil iyul oylarida Toshkent shahrida xalqaro konferensiya hamda ommaviy bayramlarni o'tkazdi. Konferensiyada kelajakda O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish uchun tavsiyalar ishlab chiqildi va ular tegishli davlat organlari hamda turistik kompaniyalarga mazkur tadbirlarni amalga oshirish uchun taqdim etildi.

Ikkinchidan, ekoturizm o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra shaxslarning turg'un yashab turgan joylaridan muayyan (ekologik) maqsadlarni ko'zlagan holda o'zga tabiiy obyekt (joy va makonga)ga qilgan sayohatlari. Bu o'rinda ikki masalaga aniqlik kiritib olish maqsadga muvofiq. Bular *sayohatchi*, *sayyohlik* tushunchalari. Kishilarning qanday harakatlari aynan sayyohlikka kiradi? (O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida unga turizm deb ta'rif berilgan¹). *Kishi sayohatchi bo'lishi uchun doimiy yashash joyidan pul to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda 24 soatdan 6 oygacha bo'lgan uzluksiz muddatga vaqtinchalik yashash joyiga (mamlakatga) borib kelishi yoki u yerda kamida bir tunni o'tkazishi zarur*². **Ekologik sayyohlik** — zamonaviy turizmning yangi yo'nalishlaridan biri bo'lib, oxirgi o'n yillikda butun dunyoda keng miqyosda rivojlanmoqda. Ma'lumotlarga qaraganda³ u sayyohlik bozorining 10—20% ini qamrab olgan, o'sish sur'ati esa umumiy turizm industriyasining o'sish sur'atidan 2—3 marotaba yuqori. Shuningdek, ekoturizm atrof-muhit muhofazasining samarali vositasi va barqaror rivojlanishning mustahkam «kaliti»dir. Ekoturizm birinchi navbatda tabiat bilan bevosita muloqotda bo'lishga, uning go'zalligini va salbiy hodisalarini his etishga, tabiat qo'ynida faol dam olish va ekotizimlarni tiklash inson uchun qanchalik katta ahamiyat kasb etishini anglashga qaratilgandir.

Shunday qilib, ekoturizm ekologik fanlar tizimida turuvchi mustaqil fan sohasi, o'quv kursi va iqtisodiyot tarmog'i sifatida rivojlanib va shakllanib bormoqda, lekin uning nazariy asoslari to'lig'icha ishlab chiqilmagan.

¹ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. — T.: «O'zME davlat ilmiy nashr.», 2004, 7-son. 428-b.

² Yuridik ensiklopediya. — T.: «Sharq», 2001. 457-b.

³ *Ердаалетов С.Р.* География туризма: история, теория, методы, практика. — Алматы: «Изд КазНУ», 2000. — 336 с.

Nazorat savollari



1. Nima uchun tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilish darkor?
2. Ekologiya nima?
3. Prezident Islom Karimov asarlarida ekologiya va turizm haqida nimalar deyilgan?
3. Ekologik turizmga izoh bering.
4. Ekoturizmning tabiatni asrashdagi roli nimada?
5. Ekologik sayohatchilar kimlar?
6. Qaysi toifa ekoturistlarni tartibga solish oson — jismoniy shaxslarnimi yoki yuridik shaxslarnimi?

1.2. EKOTURIZMNING MAQSADI, VAZIFALARI, OBYEKTI VA PREDMETI

Umume'tirof etilishicha ekologiyaning maqsadi — organizmlar yashaydigan muhitni ularning bexatar yashashi va evolutsion tarzda rivojlanishini saqlab qolish, ya'ni ekologik xavfsizlikni ta'minlash. Ushbu maqsad ekologiyaning barcha tarmoqlari orqali turli vositalar, usullar va yo'llar yordamida ta'minlanadi. Shuning uchun ko'pgina xalqaro, regional, milliy va mahalliy miqyosda o'tkaziladigan anjuman, tadbir, reja va dasturlarda ekoturizmni rivojlantirish ekologik vazifalardan biri sifatida kun tartibiga qo'yiladi.

Ekoturizmning maqsadi — hozirgi va kelajak avlodlarning ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun turistik yo'nalishlarda tabiatdan oqilona foydalanish, uni qayta tiklash va muhofaza qilish.

«Bugun, — degan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov, — XXI asr bo'sag'asida ekologik xavfsizlik, inson bilan tabiat munosabatlarini to'g'ri yo'lga solish muammolari har qachongidan ham dolzarb masala bo'lib turibdi. Zero, bu muammoning yechilishi barcha xalqlarning manfaatlariga daxldordir, jahon sivilizatsiyasining buguni va kelajagi ko'p jihatdan shunga bog'liqdir»¹.

Ekoturizmning maqsadini amalga oshirish uchun ekologik jihatdan rivojlangan davlatlar, xalqaro tashkilotlar va milliy qonunchilik manbalari quyidagi *vazifalarni bajarishni* talab etadi:

¹ I.A. Karimovning. YUNESKO Ijroiya Kengashi 155-sessiyasining yakunlovchi majlisida 1998-yil 6-noyabrda so'zlagan nutqidan // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. — T.: «O'zbekiston», 1999. 193—206-b.

- ✓ *ekoturistik fan, ta'lim va amaliyotning nazariy asoslarini ishlab chiqish;*
- ✓ *aholining ekologik ongi va madaniyatini ekoturizm orqali o'stirish;*
- ✓ *ekoturizm yo'nalishidagi ta'lim va tarbiyani yo'lga qo'yish;*
- ✓ *ekoturizm bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash;*
- ✓ *ekoturizm industriyasini shakllantirish uchun maxsus qonunlarni ishlab chiqish va ularning huquqiy mexanizmini yaratish;*
- ✓ *ekoturizm obyektlarining kadastrini o'tkazish va ularni har tomonlama baholash;*
- ✓ *ekoturizm monitoringini yuritish va istiqbolini belgilashni yo'lga qo'yish;*
- ✓ *milliy davlat hududini ekoturizm bo'yicha rayonlashtirib chiqish;*
- ✓ *ekoturizm bilan shug'ullanuvchi, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan maxsus turdagi subyektlar faoliyatini yo'lga qo'yish va ularni huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini belgilash;*
- ✓ *davlatlarning va xalqaro hamjamiyatning ekoturizmga oid taktik reja va strategik dasturlarini ishlab chiqish va ularga yuridik maqom berish;*
- ✓ *ekoturizmga oid ijobiy harakatlarni rag'batlantiruvchi omillarni yaratish;*
- ✓ *huquqbuzarlarga nisbatan iqtisodiy javobgarlik sanksiyalarini kuchaytirish va h.k.*

Yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarish insonlarning ekologik huquqlarini ta'minlab berishning eng maqbul yo'llaridan biri hisoblanadi. Afsuski, hozirda O'zbekistonda suv va yerning taqchilligi, ularni asrab avaylash haqidagi matbuotda, ilmiy-amaliy tadbirlarda, sohaga doir adabiyotlarda aytilayotgan fikrlar va televideniye orqali namoyish etilayotgan ko'rsatuvlar har doim ham kutilgan natijalarga olib kelmayapti. «Yuz eshitgandan ko'ra bir bora ko'rgan afzal», degan naql bejiz emas. Ekoturizm orqali insonlar o'zi va o'zgalar yashab kelayotgan atrof tabiatni ko'rib solishtiradi, xulosalaydi va tegishli mustaqil qarorlar qabul qiladilar. Ularni atrofdegilar bilan muhokama qiladilar, lo'nda qilib aytganda «birini ko'rib shukur qiladilar, birini ko'rib fikr qiladilar». Ekologik turizm ham aynan fikrlaydigan va shukronalar bildiradigan ekologik ongli

va madaniyatli kishilarni tarbiyalashga, turizmdan kelgan foydani esa, buzilayotgan yoki buzilgan tabiiy obyektlarni qayta tiklash uchun sarflashga yo'naltiruvchi juda ulkan imkoniyatlarga ega. Faqatgina ushbu harakatlar ilmiy asoslangan va amalda tekshirib ko'rilgan tavsiyalarga tayangan holda amalga oshirilishi, ya'ni yangi fan sohasi sifatida aks ettirilishi maqsadga muvofiqdir.

Ekoturizm yangi fan sohasi bo'lgani uchun hozircha uning obyektiga nisbatan aniq bir nazariy asos yaratilmagan. Nazariya esa, avvalo obyektни aniqlashtirib olishdan boshlanadi. Ekoturizm ham bundan mustasno emas.

Fanda obyekt bu (lotincha *object* — narsa) — subyekt (tadqiqotchi, izlanuvchi, o'rganuvchi)ning bilish va amaliy faoliyatiga qarama-qarshi turadigan obyektiv reallik — narsa¹, ya'ni bizning ongimizga bog'liq bo'lmagan holda namoyon bo'luvchi tashqi dunyo, moddiy borliq, demakdir². Ekoturizm obyektiga nisbatan turlicha dunyoqarashlar mavjud va uni biz o'z tadqiqotlarimizda tahlil va sintez qilib boramiz.

M. I. Yegorenkovning (2003) fikricha landshaft mintaqasi ekotizimlari — sovuq arktik sahrolar va tundra, mo'tadil iqlim mintaqalari, dasht va preriyalar, cho'l va sahrolar, savanna va siyrak o'rmonlar, nam tropik o'rmonlar, okean va dengizlar hamda alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ekoturizm obyektiga bo'la oladi. Ekoturizm obyektiga nisbatan bildirilgan ushbu ta'rif juda umumlashtirilgan. Chunki, birinchidan, tabiiy geografik mintaqalar ekotizimlar emas, balki tabiiy geografik tasniflanishdagi taksonomik birliklar yo geomajmualar yoki geotizimlardir. Ikkinchidan, ekotizim ekologiyaning, geomajmua yoki geotizim esa, geoekologiyaning obyektiga bo'lib hisoblanadi. Uchinchidan, mintaqadan pastki taksonomik birliklar ham ekoturistik obyekt bo'la oladi (A. Nig'matov, N. Shomurotova, 2005, 2006).

Butunjahon turistik tashkiloti ekoturizm obyektiga muayyan davlatlarda insonlarni turizm nuqtayi nazaridan qiziqitira oladigan tabiat sifatida izohlaydi. Lekin, unda insonlarni jalb etuvchi aniq bir bilish yoki amaliy faoliyatda qo'llash mumkin bo'lgan obyektiv reallik — narsaning o'zi aniq ko'rsatilmagan.

¹ Falsafa. Qomusiy lug'at — T.: «Sharq», 2004. — 309-b.

² O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 6-jild. — T.: «O'zME Davlat ilmiy nashriyoti», 2003. — 441-b.

Turli turistik tashkilotlarning turizm bo'yicha saytlarida (Rambler, Yahoo, Mail... provayderlarida berilgan) ekoturizmining obyektii sifatida ekzotik o'simlik dunyosi majmualari, yoki biosenozlar (tropik o'rmonlar, gullagan yozgi tundra, bahorgi cho'l), noyob landshaftlar, yovvoyi muqim yoki ko'chib yuradigan qushlar olingan. Ularda ekoturistik obyektga nisbatan aniq bir tushuncha yoki tasnifiy belgi ko'rsatilmagan. Antropogen o'zgargan yoki inqirozli holatdagi hududlar (Orol va Orolbo'yi kabi joylar) ekoturizm obyektiga kirmay qolgan. Xuddi shunday yondashuv Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi va Butunjahon yovvoyi tabiat jamg'armasi (WWF) tomonidan ham bildirilgan. Ular nisbatan antropogen ta'sir doirasida turmagan tabiatni ekoturistik obyekt deb hisoblashadi.

S. R. Yerdavletov (2000) «Turizm geografiyasi»ning obyektii — turizm ekanligini e'tirof etadi. Turizm bu obyektiv borliq yoki narsa emas, balki inson faoliyati, ya'ni ijtimoiy munosabatning bir turidir.

V. V. Xrabovchenko (2003) va Yu. A. Shtyurmer (1974) ekoturizm obyektiga nisbatan ikki xil yondashishgan, birinchisi, inson faoliyatidan saqlangan deb, ikkinchisi, u tomonidan madaniylashtirilgan yoki madaniylashtirilmagan atrof-muhit, deb tavsiflagan. Madaniy atrof-muhit insonlarning xo'jalik faoliyati uchun tabiatan noqulay hududlarning (tabiat obyektlarining) ular tomonidan yaxshilanishi va o'ziga moslashtirilishi. Bunga Chotqol tog'-o'rmon meliorativ tajriba stansiyasi (Toshkent viloyati), Omonqo'ton tog'-o'rmon buyurtma qo'riqxonasi (Samarqand viloyati), o'zlashtirilgan Sherobod, Mirzacho'l yoki Qarshi cho'llari misol bo'la oladi.

Xalqaro ekoturizm tashkiloti (TIES) ekoturistik obyektga atrof-muhitni saqlovchi tabiat zonalari va oblastlarini kiritadi. Kanadaning Atrof-muhit bo'yicha maslahat kengashi esa ekoturistik obyekt — mahalliy atrof tabiat, deya e'tirof qilishadi. Italiyada ekoturizm obyektiga agroturizmning bir bo'lagi sifatida qaraladi va shuning uchun ham agroturizm ekoturizm bilan birgalikda olib boriladi (V. V. Xrabovchenko).

Ekosan xalqaro tashkilotining «EKOSAN-TUR» bo'linmasining 2004—2006-yillarda chop etgan barcha bukletlarida tabiiy turizm, tarixiy turizm, diniy turizm bilan ekoturizm obyektlari aralashtirib yuborilgan.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, ekoturizm obyektiga nisbatan qabul qilingan aniq bir fikr yo'q. Bu tabiiy hol, chunki

ekoturizm tez sur'atlarda rivojlanib kelayotgan, lekin ham to'liq shakllanmagan turizm turidir.

Falsafada fan obyektiga nisbatan berilgan ta'rifdan hamda turizmga qo'yiladigan talablardan ekoturizm obyektini aniqlashtirishda foydalangan holda ushbu qo'llanmada quyidagi xulosalarga kelindi.

Ekoturizm obyekti sifatida sayyohlarning o'zlari yashamaydigan, turizm uyushtirilishi mumkin bo'lgan va ularning ongiga bog'liq bo'lmagan obyektiv borliq:

- ✓ *tabiat komponent (unsur)lari;*
- ✓ *tabiiy tizim (sistema)lar;*
- ✓ *tabiat majmua (kompleks)larini olish mumkin.*

Ushbu tabiat obyektlari ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi:

1. Kishilar faoliyati tomonidan nisbatan tegilmagan yoki antropogen o'zgarmagan, ya'ni tabiiy xossa va xususiyatlarini yo'qotmagan:

✓ *tabiat komponentlari* — tabiat yodgorliklari (sharsharalar, g'orlar, noyob daraxtlar va ularning kompozitsiyalari, noyob turdagi o'simlik va hayvonot dunyosi, yer osti boyliklari va uning topilmalari, o'ziga xos shakldagi toshlar...);

✓ *tabiat majmualari* — tabiat rezervatlari, biosfera qo'riqxonalari, qo'riqxonalar, buyurtma qo'riqxonalar, milliy tabiiy bog'lar kabi davlatning alohida e'tibori bilan «mutlaq» ravishda qo'riqlanadigan yer yuzasi hududlari va suv akvatoriyalari...);

✓ *tabiiy tizimlar* — o'rmonlar, tog' cho'qqilari, turli landshaftlar yoki gidrografik obyektlar.

2. Kishilar faoliyati (antropogen) yoki tabiiy jarayon va hodisalar (ofatlar) natijasida o'zgargan yoki yaratilgan:

✓ *tabiat komponentlari* — sun'iy yaratilgan sharsharalar, g'orlar, qo'lga o'rgatilgan yovvoyi hayvonlar, iqlimlashtirilgan yovvoyi turdagi o'simlik dunyosi kabilar;

✓ *tabiat majmualari* — dendrologik bog'lar, hayvonot bog'lari, botanika bog'lari, akvariumlar va boshqalar;

✓ *tabiat tizimlari* — sun'iy suv inshootlari va akvatoriyalari, madaniylashgan landshaftlar kabilar (2-rasm).

O'zbekistonda bularga uch yuzdan ziyod gidrografik obyektlar, karyerlar, texnogen buzilgan yerlar, kesilgan va yondirilgan o'rmonlar, jarliklar, ko'chkilar, surilmalar, o'pqonlarni misol qilib olish mumkin. Bu o'rinda eng yirik milliy antropogen o'zgargan ekoturizm

obyekti sifatida Orol dengizi va uning atrofidagi buzilgan hududlarni yana bir bor eslab o'tish lozim.

Umuman olganda, ekoturizmning obyekti bo'lishi uchun har bir sayyohlik obyekti quyidagi talablarga javob berishi lozim:

✓ organizmlar muayyan yashash makoni yoki joyiga ega bo'lishi, ya'ni biosfera doirasidan chiqib ketmasligi;

✓ tabiiy kelib chiqishi bo'yicha antropogen o'zgargan yoki o'zgar-maganligi;

✓ tabiat qo'ynida sayyohlarning 24 soatdan ortiq bo'lish yoki tu-nab qolish imkoniyatining mavjudligi;

✓ ekotizimlardagi modda va energiya almashuvida qatnashayotgan bo'lishi.

Shunday qilib, **ekoturizm obyekti** — ekologik maqsadda sayyoh-lik uyushtirilishi imkoniyatiga ega bo'lgan tabiat komponent (unsur)lari, tabiiy tizim (sistema)lar, tabiat majmua (kompleks)lari. U inson ongiga bog'liq bo'lmagan tarzda kelib chiqqan, u rivojlanadi va shakllanadi. Lekin tabiat fan-texnika yutuqlari bilan qurollangan inson tomonidan o'zgartirilishi, ya'ni madaniylashishi yoki yomonlashuvi mumkin. Afsuski, keyingi ikki asr davomida ko'pincha ekoturizm obyekti salbiy tomonga qarab yuz tutmoqda (Ming yillik ma'ruza, Toshkent, 2002).

Fanda tadqiqot predmeti inson faoliyati va bilishi jarayonida obyektlar dunyosidan ajratib qaralgan ma'lum yaxlitlikni ifodalov-chi tushuncha. Predmet eng muhim belgi va xususiyatlarni ifodalaydi (Falsafa. Qomusiy lug'at, 335-b.). Fan borliqni ilmiy bilish faoliyati (N. Shermuhamedova), tadqiqot predmeti obyektini ilmiy bilishga qaratilgan faoliyat yo'nalishidir.

Bizningcha **ekoturizm predmeti** — ekoturistik obyektning turis-tik imkoniyatlarini ekologik jihatdan tadqiq qilish, ya'ni ekologik xususiyatdagi sayyohlik. Bu turizm subyektlarini tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilish va asrash, buzilgan tabiat tizimlari va komp-lekslarini qayta tiklash, tabiat unsurlaridan oqilona va samarali foydalanishga yo'naltirishni o'rganish va tegishli xulosalar chiqarish demakdir.

XX asrning 80-yillarida «Sputnik» Xalqaro yoshlar turizm byurosi ekoturizm predmeti — atrof-muhitga minimal darajada ta'sir etish va sayyohning ekologik madaniyatini shakllantirish, deb hisoblagan. Bunday amaliy faoliyatga, tadqiqot emas predmet si-fatida qaralgan.

EKOTURIZM OBYEKTI



ANTROPOGEN O'ZGARMAGAN

ANTROPOGEN O'ZGARGAN

- Tabiat yodgorliklari**
- sharsharalar
 - g'orlar
 - noyob turdagi o'simlik dunyosi
 - noyob turdagi hayvonot dunyosi
 - o'ziga xos shakldagi toshlar...

- Shaklan o'zgartirilgan tabiat yodgorliklari**
- sun'iy yaratilgan sharsharalar
 - qo'lga o'rgatilgan yovvoyi hayvonlar...

- Tabiat majmualari**
- biosfera qo'riqxonalari
 - qo'riqxonalar
 - buyurtma qo'riqxonalar
 - milliy tabiiy bog'lar
 - suv akvatoriyalari...

- Tashkillashtirilgan tabiat majmualari**
- dendrologik bog'lar
 - hayvonot bog'lari
 - botanika bog'lari
 - akvariumlar...

- Tabiiy tizimlar**
- o'rmonlar
 - baland, o'rta, past tog'lar
 - turli landshaftlar
 - dengizlar, ko'llar...

- Tizimlashtirilgan tabiat**
- o'zgartirilgan suv inshootlari va akvatoriyalari
 - madaniylashtirilgan landshaftlar...

2-rasm. Ekoturistik savvohlik manzileohlari.

113725

UPOK...
E...

G.S. Gujin, M.Yu. Belikov, E.V. Klimenko (1997) ekoturizmning tadqiqot predmeti — atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ilmiy bilish jarayoni deb bilganlar.

Xalqaro ekoturizm tashkiloti (TIES) Atrof-muhitni muhofaza qilish va mahalliy aholining farovonligini saqlash ekoturizm predmeti bo'la olishini ta'kidlaydi. Kanada atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha Maslahat kengashi ta'rifiga ko'ra ekoturizmning predmeti — tabiatni o'rganish va mahalliy aholining xohish-irodasini inobatga oluvchi ekoturizmni saqlashga qaratilgan tadqiqot deydi. Ushbu fikrni V.V. Xrabavchenko (2003) ham ma'qullaydi. M.I. Yegorenko (2003) ekoturizm predmetiga ekoturistik obyektlarga ekologik ta'lim, targ'ibot, tarbiya masalasiga qaratilgan amaliy va ilmiy faoliyat deb qaraydi. U ekoturizmni ko'proq o'quv predmeti sifatida tadqiq qilgan.

S. R. Yerdavletov (2000) turizm geograf tomonidan tadqiq qilinadigan bo'lsa, ularning bilish predmeti ko'proq makonda yuz berayotgan turistik hodisa, voqea va jarayonlarga qaratilgan bo'lishi lozim, deya ta'kidlaydi. Turizm predmeti qanday turlarga ajratilmasin, sayyohlikning ijtimoiy, iqtisodiy, tabiiy, texnik tomonlarini ko'proq tadqiq qilish kerak deydi. Turizm geografiyasi real tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy holatni inobatga olgan tarzda sayyohlik harakatini boshqarishning nazariy asoslarini ishlab chiqishi lozim degan dunyoqarashga geografiya fani nuqtayi nazaridan qo'shilish qiyin, chunki geografiya tadqiqot obyektiga nisbatan nafaqat makon, balki davriy va majmualiy yondashuvlarni ham tadqiqot predmeti qilib oladi (A. Nig'matov, 2006). Ulardan tashqari turizm geografiyasi predmeti faqatgina ilmiy asosni emas, balki amaliy jihatlarni ham o'rganishi lozim. U nafaqat boshqaruv, balki baholash, monitoring olib borish, tartibga solish, bashoratlash kabi boshqaruvga yordam beruvchi bilish jarayonini ham qamrab olsa foydadan holi bo'lmaydi. Chunki ekologiya, geografiya singari davriylik xususiyatlarini o'z tadqiqot predmetiga kiritadi, deydi professor D. L. Armand (1973).

Ekoturizm ekologik ijtimoiy munosabatlardan biri ekan, ekoturizm predmeti turistlarning uch faoliyat turini tadqiq qilishi va ularga amaliy ko'rsatmalar berishi lozim:

- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;
- buzilgan tabiat majmualari va tizimlarini qayta tiklash.

Bu uch tadqiqot predmeti bir maqsadni, ya'ni global, regional, milliy va mahalliy miqyosda ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashga e'tibor qaratishni talab etadi. Ushbu aksioma ekologiyaning barcha sohalariga xos bo'lgan tadqiqot predmetidir. Aks holda ushbu inson faoliyati ekologik xarakterga ega bo'lmaydi.

Nazorat savollari



1. Ekoturizmning maqsadi nimadan iborat?
2. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun qanday vazifalarni bajarish lozim bo'ladi?
3. Ekoturizmning obykti qanday talablarga javob berishi lozim?
4. Ekoturizm obyektiga izoh bering.
5. Ekoturizm predmeti nima?
6. Qanday ijtimoiy munosabatlar ekoturizm predmeti bo'la oladi?

1.3. EKOTURLARNING TASNIFLANISHI (KLASSIFIKATSIYASI)

Fan o'zi klassifikatsiyadan (lotincha «*classis*» — daraja, tasnif), ya'ni darajalanish, to'g'rirog'i tasniflanishdan iboratdir, — degan edi buyuk rus kimyogari D.I. Mendeleev. U bir turkum ichidagi narsa(obyekt) larning bir-biriga o'xshashligiga va boshqa turkumdagi narsalardan farq qilishiga qarab, ularni turkumlarga ajratgan. Mendeleev o'z «Elementlarning davriy tizimi»da ularning atom og'irligi, kimyoviy sifatlari kabi ko'rsatkichlariga qarab joylashtirib chiqqan.

Turizm obykti, ulardan foydalanish usullari, sayyohlarning yoshi, kasbi, qiziqishi, salomatligi, marshrutlarining uzoq yoki yaqinligi, og'irligi va moddiy qiymatiga qarab mutaxassislar turlicha tasniflash ishlarini olib borganlar. Zamonaviy turizmni tasniflashda, — deb ta'kidlaydi qozog'istonlik olim S.R. Yerdavletov (2000), quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim:

- bo'sh vaqtning borligi va davomiyligi;
- sayohatchilarning yoshi, jinsi, salomatligi, ma'naviy-madaniy rivojlanganligi, shaxsiy xohish va moddiy tanlanganligi;
- tabiiy sharoitning xilma-xilligi va mavsumiyligi;
- harakat qilish vositasining borligi va h.k.

Turizmning maqsadi, sharoiti, yo'nalishi va ko'lamiga qarab ular shakl, sinf (klass), tur va ko'rinishlarga ajratiladi. Jamiyatdagi funksiyasi va texnologiyasiga qarab turizm sog'lomlashtirish, dam

olish, tabiiy, diniy, sport, davolash, bilish, o'rganish kabi insonlarning jismoniy va ma'naviy tiklanish hamda rivojlanish maqsadlari uchun xizmat qiladi. Bu davlatning ijtimoiy sohadagi dolzarb masalalaridan biri va muhim ichki siyosatidir.

A.S. Soliyev va M.R. Usmonov (2005) Samarqand viloyati misolida turizmni ikki — ichki (mahalliy) va tashqi (xalqaro) turga ajratadilar. Turlarni esa kasbiy, sport, sog'lomlashtirish, sog'liqni tiklash, diniy, tanishuv, sayohat ko'rinishlarini ajratadilar. Ammo ular tabiiy yoki ekoturizmni mustaqil turizm sifatida ajratmaydilar. Lekin turizmning geografik va ekologik jihatlariga alohida urg'u berganlar.

Turizm, xususan ekoturistik tasniflashdagi dunyo tajribasi ham o'ziga xos tasniflash tizimini taklif qilishimizga asos bo'ldi. S. P. Yerdavletov (2000) aytishicha, tasniflashni yagona iyerarxik bog'liqlikda, real ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, tabiiy, ekologik sharoitlarni e'tiborga olgan tarzda amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Har bir fanni yoki amaliy yo'nalishni tasniflash o'ta muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Chunki, aynan tasniflash orqali har qanday inson faoliyati biror mazmun va mohiyat kasb etadi. Ekoturizm ham bundan mustasno emas. Odatda, ekoturizmni uning turli ko'rsatkichlariga qarab tasniflash amalga oshiriladi. Masalan, ekoturizm ekoturlarda qatnashuvchi sayyohlarning ijtimoiy holati yoki yoshi, ekologik sayyohlikning davomiyligi yoki mavsumiyligi, sayohatchilarning qayerdan kelganligi, maqsadi yoki ekologik ongi va madaniyati kabi o'nlab ko'rsatkichlar asosida tasniflanishi mumkin. Ekoturistik tasniflashda qaysi omil yoki ko'rsatkichning olinishi tasniflovchining maqsadi va vazifasi, kasbiy mahorati, bilim darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatidan kelib chiqqan tarzda amalga oshiriladi.

Qo'riqlanadigan yovvoyi tabiat chegarasidagi ekoturlar davlatning alohida e'tibori bilan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni o'z ichiga oladi. Yangi tahrirdagi, 2004-yilda qabul qilingan «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ularga — milliy bog'lar, qo'riqxonalar, buyurtma qo'riqxonalar, rezervatlar, ekologik markazlar, suvlarni muhofaza etish zonalari, alohida o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lgan tabiat yodgorliklari (antiqa shakldagi, noyob nodir toshlar, sharsharalar, ulkan daraxtlar va h.k.), noyob endemik tarzdagi landshaftlar kabi tabiiy hudud hamda tabiiy obyektlar kiritilgan. Hududlarni ikkiga bo'lib sinflarga ajratishning sababi — muayyan turdagi

hayvonot dunyosi yashaydigan va oziqlanadigan yoki o'simlik dunyosi tarqalgan arealni saqlab qolish maqsadida bufer tegralari, ya'ni qo'riqlanadigan hududlarning atrofidagi tabiiy zonalar belgilanadi.

Mazkur hududlarni ifodalashda «yovvoyi» so'zini ishlatish bizningcha o'rinli emas. Chunki, birinchidan, yovvoyi tabiat bo'lmaydi yoki uni shunday atash fanda qabul qilinmagan. Tabiiy holda saqlanib qolgan atrof-muhit, hududlar yoki mintaqalar deb atagan ma'qul. Ikkinchidan, sof holda yovvoyi tabiat Arktikaning o'ta sovuq hududlarida ham, Amazonkaning qalin chakalakzorli o'rmonlarida ham deyarli saqlanib qolmagan. Ular ozmi ko'pmi antropogen ta'sirga uchragan.

1—2-sinfga taalluqli ekoturizmga quruqlikdagi hududlar bilan bir qatorda qo'riqlanadigan yoki qo'riqlanmaydigan suv akvatoriyalari ham kiradi. Umuman olganda, ekoturistik sinflarni «Avstraliyacha» yoki «Shimoliy amerikacha»... modellarga ajratish odat tusiga kirib qolgan. Chunki, ekoturistik sinflarning chegarasini belgilab chiqish yoki ularda olib boriladigan ekoturlarning mazmun-mohiyati bevosita mintaqaviy va mahalliy sharoitlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Madaniy landshaftlardagi ekoturlar saqlanib qolgan tabiatdagi-sidan keskin farq qiladi. Ushbu sinfdagi sayyohlik ko'pgina hollarda boshqa turdagi turizm bilan birgalikda qo'shib olib boriladi. Qadimiy shaharlar va ularning atrofida u tarixiy turizm bilan, qishloq xo'jaligi keng tarqalgan va rivojlangan hududlarda agroturizm bilan birgalikda olib boriladi (buni keyingi mavzularda yoritilgan Italiyadagi «Agroekoturizm» misolida ko'rib chiqish mumkin). Bu sinfga turizmning ekologiyaga yo'naltirilgan juda ko'p tarmoqlarini kiritish mumkin. Masalan, «Italiyacha agroekoturizm», «Nemischa samolyotdagi ekoturizm» kabi modellar.

Madaniy landshaftlarni ko'pgina hollarda madaniylashtirilgan landshaftlar deb ham ataydilar. Turizm sohasidagi ta'limda uni oddiy va sodda qilib madaniy landshaftlar yoki hududlar deb atagan ma'qul. Chunki, hududlar yoki landshaftlar yo madaniylashgan yoki madaniylashmagan bo'ladi. Albatta, ularni madaniylashish darajasiga qarab yana sinflarga yoki guruhlarga ajratish mumkin. Lekin bunday tasniflash sinfga nisbatan quyiroq taksonomik (tasniflash) darajada amalga oshiriladi.

Ekoturizmni ko'rinishlari bo'yicha sinflarga ajratishda ularning maqsadi va sayohat olib boriladigan obyektiga qarab tasniflanadi.

Ekoturlar maqsadiga ko'ra:

- «Yovvoyi» yoki «madaniy» tabiatni kuzatish va o'rganish (ekologik ta'lim va tarbiya elementlari bilan birga);
- atrof tabiiy muhitda emotsional va estetik dam olish;
- tabiiy omillar bilan davolanish;
- sport bilan shug'ullanish va sarguzasht kabi turlarga ajratiladi.

Ekoturlar obyektiga ko'ra:

- botanik, zoologik, geologik, geografik va shu kabilar;
- ekologik-etnografik, arxeologik, ekologik-madaniy;
- agroekotur yoki agrotur;
- speologik, suv, tog' va shu kabilarga ajratiladi.

Vaholanki, yuqorida maqsad va obyektiga ko'ra ajratilgan sinflar o'zaro uzviy bog'langan, biri ikkinchisidan kelib chiqadi. Lekin, amalda ekoturlarni tashkil etuvchi shaxslar ularning eng asosiy turlarini tanlab olib, tashkiliy — boshqaruv masalalarini muayyan turga qaratishi lozim. Masalan, AQSH ekoturizm agentligi tomonidan 1998-yil uchun keltirilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra 48% amerikalik turistlar o'zlarining ta'tillarini tabiatga yo'naltirilgan turizm orqali o'tkazishni ma'qul deb biladilar. Milliy ekoturlarning aksariyat qismi milliy bog'lar va shu kabi alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga tashrif orqali rejalashtirilgan.

Ekoturizmning shakllariga ko'ra mutaxassislar ekotur qatnashchilarining yoshi va salomatligiga asosiy ko'rsatkich sifatida qaramoqdalar. Chunki tabiat injiqliklari va noqulay turistik sharoitlar sayyohlarning ularga chidamlilik qobiliyatiga qarab tasniflashga majbur etadi. Hech qachon maktab yoshidagi bolalarni ekstremal ekoturlarga, salomatligi yomon bo'lgan keksalarni baland tog' ekoturlariga qo'yib bo'lmaydi, qo'riqxonalarda esa katta-katta guruhlarga bo'linmaydi. Shuning uchun ham turizm, ayniqsa, ekoturizm ekologik xavfsizlik degan tushuncha mavjud va u ekotur o'tkazishning asosiy talablaridan hisoblanadi.

V. V. Xrabovchenko (2003) ekoturizm va ekoturlarni tasniflashda oddiygina qilib tortta ko'rinishini ajratgan — ilmiy, tabiiy-tarixiy, sarguzasht, tabiiy rezervatlarga qilinadigan sayohat. Afsuski u ekoturistik tasniflashga bir tomonlama yondashgan, ya'ni iyerarxik supasimon va o'zaro tizimlashgan ko'rinishda ifodalagan.

Ekoturistik tasniflash — ekoturlarning muayyan bir ko'rsatkichlarga ko'ra ularni tizimli darajalash yoki turkumlash.

Ekoturistik tasniflashda, dunyo tajribasidan kelib chiqqan holda, ularni ekoturlar bo'yicha amalga oshirib, quyidagicha iyerarxik qismlarga ajratish mumkin: shakl → sinf → tur → ko'rinish → guruh → daraja (3-rasm).

Iyerarxik pog'onalalar	Shakl	Sinf	Tur	Ko'rinish	Guruh	Daraja
I	Ekoturizm predmetiga ko'ra					
II		Ekoturizm obyektiga ko'ra				
III			Ekoturizm turiga ko'ra			
IV				Ekoturizm vositasiga ko'ra		
V					Sayohatchilarga ko'ra	
VI						Sayohatchilarning iqtisodiy imkoniyatlariga ko'ra

3-rasm. Ekoturizmning iyerarxik (pog'onali) tasniflanishi.

Ekoturlarning eng yuqori taksonomik birligi shaklida milliy va xalqaro turizmni ajratish shart emas degan fikrlar ham mavjud. Chunki ular umumiy turizmning bir shakli bo'lib hisoblanadi. Ekoturizmning predmetidan kelib chiqib, ekoturlar shaklan uchga ajratiladi (1-jadval):

I-jadval. Tasnifiy qatordagi ekoturlar

Iyerarxik bosqich	Tasnifiy qatorlar	Ekoturlar
<i>I</i>	<i>Shakl</i>	1. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ekoturlar. 2. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan ekoturlar. 3. Buzilgan tabiat yodgorliklari, majmualari va tizimlarini qayta tiklashga qaratilgan ekoturlar.
<i>II</i>	<i>Sinf</i>	1. Tabiat komponentlarini muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish va buzilganlarini qayta tiklashga qaratilgan ekoturlar. 2. Tabiiy tizimlarni muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish va buzilganlarini qayta tiklashga qaratilgan ekoturlar. 3. Tabiat majmua (kompleks)larini muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish va buzilganlarini qayta tiklashga qaratilgan ekoturlar.
<i>III</i>	<i>Tur</i>	1. Ekstremal ekoturlar. 2. Ilmiy ekoturlar. 3. Rekreatsion ekoturlar. 4. Davolanish ekoturlari. 5. Ma'rifiy-ma'naviy ekoturlar. 6. Sport ekoturlar va h.k..
<i>IV</i>	<i>Ko'ri-nish</i>	1. Rafting ekoturlar. 2. Velosipedda ekoturlar. 3. Otlarda ekoturlar. 4. Piyoda (yayov) ekoturlar. 5. Samolyot va vertolyotda ekoturlar. 6. Sharlarda ekoturlar. 7. Bug'i yoki itlar qo'shilgan aravada ekoturlar. 8. Chang'ida ekoturlar. 9. O'rgatilgan yovvoyi hayvonlarda ekoturlar. 10. Kemada ekoturlar. 11. Uy hayvonlarida ekoturlar. 12. Kanoë yoki qayiqda ekoturlar. 13. Suv osti moslamalari orqali amalga oshiriladigan ekoturlar. 14. Mahalliy aholining muayyan tabiiy sharoitga moslangan usullarini qo'llagan ekoturlar va h.k.

davomi

<i>V</i>	<i>Guruh</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Maktab yoshidagi bolalar uchun mo'ljallangan ekoturlar. 2. Talabalar uchun mo'ljallangan ekoturlar. 3. Ilmiy tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan ekoturlar. 4. Tadbirkorlar uchun mo'ljallangan ekoturlar. 5. Nogironlar uchun mo'ljallangan ekoturlar. 6. Keksalar uchun mo'ljallangan ekoturlar. 7. Oilalar uchun mo'ljallangan ekoturlar. 8. Rahbar xodimlar uchun mo'ljallangan ekoturlar. 9. Ayollar uchun mo'ljallangan ekoturlar va h.k.
<i>VI</i>	<i>Daraja</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj aholining ekoturlari. 2. O'rtacha ta'minlangan aholi uchun ekoturlar. 3. Yuqori darajada ta'minlangan aholi uchun ekoturlar. 4. Kam ta'minlangan aholi uchun ekoturlar va h.k.

1. Tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ekoturlar. Kishilar faoliyati tomonidan nisbatan tegilmagan yoki antropogen o'zgarman, davlat va xalqaro hamjamiyatning alohida e'tibori bilan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va obyektlarga qilinadigan sayohat. Masalan, O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 3-dekabrda qabul qilingan «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi Qonunida aks ettirilgan obyektlar — qo'riqxonalar, rezervatlar, buyurtma qo'riqxonalar, tabiat yodgorliklari.

2. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan ekoturlar. Xo'jalik faoliyati yuritilayotgan ekoturistik obyektlar bo'yicha o'tkaziladigan ekoturlar. Ular ko'pincha boshqa turdagi (agro, diniy, tarixiy) turizm bilan birgalikda olib boriladi.

3. Buzilgan tabiat majmualari va tizimlarini qayta tiklashga qaratilgan ekoturlar. Antropogen yoki tabiiy jarayon va hodisalar natijasida o'zgargan ekoturizm obyektlariga uyushtiriladigan ekoturlar. Jigariston surilmasi, Bo'zsuv jarlari, AQSHning Katrin dovuli vayron etgan janubiy shtatlari, Orol va Orolbo'yi, Chad ko'li, Chernobil AES zonasi, Semipalatinsk poligoni, Tursunzoda aluminiy zavodi ta'sir etuvchi mintaqalar kabilarga qilinadigan ekoturlar.

Ekotur shakllari o'z navbatida sinflarga ajratiladi. Sinflar uch ekoturistik ijtimoiy munosabat predmeti qaysi bir ekoturistik obyektga qaratilganiga qarab farqlanadi.

Ekoturning funksional tasniflanishidagi 3-bosqich (qator) bevosita uning aniq bir turizm turiga borib taqaladi.

Ekoturistik sayyohlikni qaysi vositalar orqali amalga oshirilishiga, ya'ni aniq bir ko'rinishiga qarab quyidagicha tasniflash mumkin.

Ekoturlar yuqorida sanab o'tilgan taksonomik birliklarining mazmun va mohiyatiga ko'ra sayyohlarning yoshi, ijtimoiy holati, salomatligi, qiziqishlari, iqtisodiy ahvoli kabi guruhlarga ajratiladi.

Ekoturizm sayyohlarning iqtisodiy imkoniyatlariga ko'ra darajalanishi ham mumkin.

Shunday qilib, ekoturistik tasniflash ekoturlarning maqsadi va vazifalariga qarab turli tasnifiy belgilarga ega bo'lishi mumkin. Uni taksonomik birliklarga ajratishda biror qat'iy mezon ishlab chiqilmagan. Ushbu keltirilgan tasniflar ilk bor nazariy tarzda amalga oshirilgan, lekin yakuniy bo'lmagan tajribadir. Ekoturistik tasniflash real imkoniyat, sharoit, holatdan kelib chiqqan holda turlicha ko'rinish va shakllarda bo'lishi mumkin. Unga global regional milliy va mahalliy miqyosda qayta ko'rib chiqish hamda tegishli o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi tabiiy holdir.

Ekoturistik tasniflash ilmiy tadqiqotlarni maqsadli yo'naltirish, ekoturlarni rejalashtirish va olib borish, milliy va xalqaro miqyosda loyiha, dastur, reja va hattoki, tegishli qonuniy me'yorlarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

Nazorat savollari



1. Tasniflash (klassifikatsiya) nima ?
2. Ekoturlar nima uchun tasniflanadi?
3. Ekoturistik tasniflashda nimalarga yoki sayyohlikning qanday belgilariga e'tibor qaratiladi?
4. Ekoturlarni shakl va sinflar bo'yicha tasniflab bering.
5. Ekoturlarni tur va ko'rinishlari bo'yicha qanday tasniflash mumkin?
6. Ekoturlar qanday guruh va darajalarga ajratiladi?

1.4. EKOTURIZMNING RIVOJLANISH TARIXI

Garchand, ekologiya va unga tegishli fan tarmoqlari falsafa, matematika, geografiya, huquq kabi eng qadimiy fanlar bo'lib hisoblanmasa-da, ular keyingi 30—40 yil ichida jadal sur'atlarda rivojlanib va shakllanib bormoqda. Shuning uchun ham uning rivojlanish davrlari uncha katta bo'lmagan bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi. Ekoturizm ekologiyaning mustaqil tarmog'i sifatida undan ham

qisqa muddatlarda rivojlanmoqda. Ekoturizm nuqtayi nazaridan, u yangi fan sohasi bo'lgani uchun ham, davriy bosqichlarga ajratish tajribasi hozircha ishlab chiqilmagan.

Ekoturistik davriylash — *ekoturizmning tarixiy rivojlanish bosqichlarini uning muayyan ko'rsatkichlariga ko'ra ajratish.*

Ilmda va amaliyotda, odatda, muayyan bir fan yoki fanlar tizimi hamda amaliyot sohasining rivojlanish yoki shakllanish bosqichlarini ajratayotganda quyidagi ko'rsatkichlarga e'tibor beriladi:

✓ *ilm tarmog'ining mustaqil fan yoki amaliyot tarmog'i sifatida e'tirof qilinganlik vaqti va uni jamoatchilik hamda ko'pchilik olimlar tomonidan qabul qilinish davri;*

✓ *fanning yangi bosqichga ko'tarilish davri;*

✓ *fanning fanlar tizimiga aylanish davri;*

✓ *fan yoki fanlar tizimning metodologik asoslarini qaytadan ko'rib chiqish davri;*

✓ *tegishli fan yo'nalishida sodir etilgan ilmiy-texnologik o'zgarishlar davri;*

✓ *fundagi konseptual dunyoqarashlar o'zgartirgan davr va h.k..*


Turizm sohasidagi adabiyotlarning tahlili va yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatkichlarni inobatga olib, ***ekoturizmning*** ilk bor quyida keltirilgan ***bosqichlarini*** ajratish tavsiya etiladi:

I. XX asrning 90-yillarigacha bo'lgan davr — ekoturizmning mahalliy va milliy mustaqil turizm sohasi sifatida yuzaga kelish davri.

II. 1990—2000-yillar — turizmning mintaqaviy miqyosda, ekoturizmning turizm industriyasi sifatida rivojlangan davri.

III. 2000-yildan keyingi bosqich, global miqyosda ekoturizmning rivojlanish davri (4-rasm).

I. Ekoturizmning mustaqil turizm sohasi sifatida yuzaga kelish davri. XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida Yevropaning yaxlit qit'asiga ingliz turistlari mahalliy aholining madaniyati, tarixini o'rganish bilan bir qatorda ajoyib tabiatini ko'rib ketish uchun sayohat qilganlar. Chunki Alp tog'lari landshaftlari yoki Karpatning tog'li o'rmonlari Angliyada uchramaganligi uchun ham ular turizmning asosiy obyekti sifatida qaralgan. Lekin ushbu turizm kompleks turistik marshrutlar bilan qo'shib olib borilgan. Inglizlarning tabiat qo'yniga qilinadigan sayyohlikka qiziqishini inobatga olib Shveysariyalik ishbilarmonlar «Grand-tur» tarkibida tabiiy turizm xizmatini tashkil etganlar va u tashkilotchilarga



4-rasm. Ekoturizmning rivojlanish bosqichlari.

juda katta miqdorda moliyaviy foyda keltirgan. Ko'p o'tmay grand-turlar tabiat qo'yniga qilinadigan sayyohlik bilan bir qatorda mahalliy xalqlarning folklorlari bilan tanishish sayyohligini qo'shib oldi. Chunki qadimdan shakllanib kelgan mahalliy xalq folklori ko'pincha joy tabiatining in'ikosi ekanligi ma'lum.

Aynan Shveysariyada birinchi bo'lib 1913-yilda mintaqaviy miqyosdagi atrof-muhitni muhofaza qilishga oid konferensiya chaqirildi va tegishli hujjatlar qabul qilindi. Shu davrda Shveysariyada

davlatning alohida e'tibori bilan qo'riqlanadigan tabiiy hududlar ajratildi. Qo'riqxonalariga qilinadigan sayohat garchand ekoturizm deb nomlanmasa-da, ular «tabiatga yo'naltirilgan turizm» sifatida yuzaga kela boshladi. Tabiat turizmiga misollar qatorida ko'pgina mamlakatlarda amalga kiritilgan turistik marshrutlarni kiritib bo'lmaydi. Masalan, 1872-yilda AQSHdagi Yellouston milliy bog'ini tashkil etishdan maqsad tabiat turizmini emas, balki fuqarolarning dam olishi va ijodiy faoliyatlarini tiklashni uyushtirish edi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, turizm atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va buzilgan tabiiy komplekslarini qayta tiklashga yo'naltirilgan taqdiridagina ekoturizm bo'la oladi. Bunda dam olish, hordiq chiqarish yoki insonlarning biror ruhiy yoki jismoniy imkoniyatlarini tiklash ikkinchi darajali bo'lib hisoblanadi. Mazkur g'oya kishilik jamiyati uchun yaqinda paydo bo'lgan emas. Bundan 2500 yil avval Markaziy Osiyoda hukm surgan zardushtiylikning «Avesto» kitobida tabiatga bo'lgan munosabatning, kishilarning qanday xo'jalik faoliyat yuritishlaridan qati nazar, yozma ravishda cheklanganligi fikrimizning yaqqol dalili sifatida xizmat qilishi mumkin. Unga zarar yetkazish Mitra «xudo» siga shak keltirish bilan tenglashtirilgan. Afsuski, qoidabuzarlarga nisbatan jazo tariqasida ekotizimdagi zaharli yoki vahshiy hayvonlarni o'ldirish hukmi qo'llangan¹.

Aldo Lepoldning mashhur «Yer etikasi»da: «Bir butunlikka, barqarorlikka va go'zallikka intilayotgan har bir jamoa hayoti — to'g'ri va aks harakatlar esa — noto'g'ri»deb bitilgan. Kishilik jamiyatidagi bir butunlik, barqarorlik; go'zallik tabiat bilan bevosita bog'langan va shuning uchun ham falsafiy jihatdan ekoturizmni oddiy shaklda namoyon etgan.

Turizmning ekologik yo'nalishi aslida XX asrning 70-yillaridan boshlangan. 1972-yilda Skandinaviya mamlakatlari fuqarolari uchun kitlarni tomosha qilish va ularni o'rganish maqsadida turistik marshrutlar uyushtirilgan. Ushbu turizmdan tushgan mablag' kitlarni muhofaza qilish uchun ishlatilgani ham ekoturistik marshrut sifatida e'tirof etilgan. Keyinchalik bunday turistik marshrutlar Yevropaning boshqa mamlakatlari, Uzoq Sharq, Shimoliy Amerika davlatlarida ham uyushtirila boshlandi.

¹ *Avesto*. Tarixiy-adabiy yodgorlik // Asqar Mahkam tarjimai. — T.: «Sharq», 2001. — 384-b.

80-yillar o'rtalarida Rossiyada «Sputnik» Xalqaro yoshlar turizm byurosi Irkutsk oblasti ma'muriyati bilan birgalikda «Baykal atrofi temir yo'li bo'yicha ekotur», «Goloust daryo vodiysi bo'yicha ekotur» va shu kabi yo'nalishlarni ishlab chiqdi. O'sha davrdagi ekoturistik marshrutlar tabiatga kam ta'sir etgan holda dam olish bilan bir qatorda Baykal ko'li muammosini hal qilishga qaratilgan ta'lim va tarbiya bilan shug'ullanishni maqsad qilib oldi. Bir paytning o'zida ekoturizm Irkutsk qishloq xo'jalik instituti ovchilik fakultetida ekologik harakatlar bilan birga olib borildi.

Sobiq ittifoq davrida Baykal ko'li atrofidagi ekologik turizm tajribasi Kavkaz, Pomir va Boltiqbo'yi hududlariga ham tarqaldi. Lekin bu hududlarda ekoturlardan kelgan foydalar atrof-muhit muhofazasiga yo'naltirilmay, balki boshqa maqsadlarga mablag' yig'ish va ayrim shaxslarning boyish manbayiga aylandi.

1977-yilda sobiq Ittifoqda 9058 ta turistik marshrutlar mavjud bo'lib, ular mamlakatning ko'pgina sayyohlik rayonlarini qamrab olgan edi. 996 maxsus turistik mehmonxonalar, baza va kempinglar har yili 26 mln turistni qabul qilib, 140 mln ekskursantlarga xizmat ko'rsatar edi. Zamonaviy turizmning ekologik yo'nalishi XX asrning 80-yillari oxirida rivojlana boshladi. Lekin kitlar bilan bog'liq bo'lgan birinchi ekoturistik aksiya bundan 10 yil avval tashkil etilgan va hayvonlar muhofazasiga qaratilgan edi.

II. Ekoturizmning regional miqyosda turizm industriyasi sifatida rivojlangan davri 1990—2000-yillarni o'z ichiga oladi. 90-yillarning boshlarida «Ekologik turizm» xalqaro, mintaqaviy va milliy miqyosda rasmiy maqomga ega bo'ldi. Aynan shu yillarda Yevropada Xalqaro ekologik turizm ittifoqi ish boshladi.

Oxirgi vaqtda barqaror rivojlanish xalqaro konsepsiyasining keng miqyosda amalga tatbiq etilishi bilan ekologik barqaror turizmning roli yanada ortib bormoqda. Atrof-muhit muhofazasi sohasida eng muhim voqea 1992-yil 3—14-iyun kunlari Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining «Atrof-muhit va rivojlanish»ga doir konferensiyasida qabul qilingan «XXI asr kun tartibi»da ekoturizm ham barqaror rivojlanishning asosiy omillaridan biri ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Mazkur hujjat undan keyingi davrlardagi xalqaro hayotda ekoturizm nuqtayi nazardan ekologik — ijtimoiy-iqtisodiy masalalar doirasida bir qator xalqaro normativ hujjatlar qabul qilinishiga sabab bo'ldi:

- 1995-yildagi Atrof-muhit bo'yicha YUNEP dasturi;

- 1995-yilda Lansarotda qabul qilingan «YUNESKOning barqaror turizm xartiyasi»;
- 1997-yilda Osiyo-Tinch okean mintaqasi turizm va tabiat muhofazasi vazirliklarining «Turizmning barqaror rivojlanish deklaratsiyasi»;
- 1997-yilda «Biologik xilma-xillik va barqaror turizmga bag'ishlangan Berlin deklaratsiyasi»;
- 2000-yil YUNEP ekologik barqaror turizm prinsiplari va boshqa hujjatlar qabul qilindi.

XX asrning 90-yillariga kelib Yevropaning bir qator mamlakatlarida, jumladan sobiq Ittifoqda ham «Ekoturizm» atamasi tez-tez ishlatiladigan bo'lib qoldi. I.V. Zorin va V.A. Kvartalnovlarning ekoturizm atamasining talqini birmuncha ommalashdi. Bu Rossiyada 1996-yilda Butunjahon yovvoyi tabiat fondi (WWF) Uzoq Sharqda tarkib topishi bilan bevosita bog'liqdir. WWF dasturining bir qismi alohida muhofaza etiladigan hududlarni ta'minlash bilan bog'landi.

Bizning mamlakatimizda 1996-yildan boshlab Jozif Mak-Nalti rahbarligida xalqaro ekspertlar guruhi «O'zbekiston Respublikasida turizmning barqaror rivojlanishi dasturi» bo'yicha tadqiqotlar olib bordi.

III. XXI asr — global miqyosda ekoturizmning rivojlanish davri. 2001-yilda Rossiyada ekologik turizm assosiyatsiyasi tashkil etildi. 2002-yil BMTning atrof-muhit dasturi (YUNEP) va Butunjahon turistik tashkilotining (BTT) tashabbusi bilan «Xalqaro ekoturizm yili» deb e'lon qilindi. Ana shu tashkilotlar tashabbusi bilan ekoturizm yilida Kanada turistik komissiyasi hamda Kvebek shahrining turistik boshqarmasi homiyligida Butunjahon ekoturistik Sammiti 2002-yil 19—22-may kunlari bo'lib o'tdi. Unda 132 mamlakatdan davlat, nodavlat va xususiy sektordan mingdan oshiq vakillar ishtirok etdilar. Ushbu Sammit tegishli sohada bir necha yildan buyon olib borilgan mashaqqatli tayyorgarlik bosqichlarining yakuni bo'ldi. Kvebek Sammiti ekoturizmni global miqyosda aks ettiruvchi hamda yangi turistik yo'nalishni tubdan yangi yo'sinda boshlash nuqtasi bo'ladi. U 2002-yil avgust-sentabr oylarida Yoxannesburgda o'tkazilgan Butunjahon barqaror rivojlanish Sammitidagi tegishli turistik yo'nalishdagi asosiy taktik va strategik vazifalarni yaqin o'n yillikkacha aniqlab berdi. Sammitda qabul qilingan Deklaratsiya BMTga jo'natildi va uning mazmuni quyidagidan iborat edi:

➤ *E'tirof etiladiki*, ekoturizm nafaqat iqtisodiy ayirboshlash, balki mahalliy xalqlarning huquqlarini kafolatlashga hamda ekotizimlarning

nazoratini yo'lga qo'yishi bilan boshqa turistik tizimlaridan ajralib turadi. Shu bilan birga, ekoturizm, rivojlangan mamlakatlarni uchun rivojlanayotgan mamlakatlardagi qadriyatlarni tushunish, ekotizimlar muhofazasini amalga oshirish va barqarorlik prinsiplariga amal qilishga chaqiradi.

➤ *E'tirof etiladiki*, ekologik turizm ishtirokchilariga tegishli ekologik ma'lumotlarni yetkazish turistik markazlar, tur operatorlar, jurnalistlar va ushbu jarayonda ishtirok etayotgan shaxslarga bog'liqdir.

➤ *Tan olinadiki*, ekoturistik jarayonda qatnashayotgan iste'molchilar ham, uning ta'minotchilari ham irqiy, jinsiy yoki boshqa turdagi kamsitishlarga yo'l qo'ymasliklari zarur.

➤ *E'tirof etiladiki*, ekoturizmning shakli yoki o'tkazish modeli hamda faoliyat turini tanlash orqali ular tashrif etayotgan tur markazlari hamda atrof-muhitning barqarorligini ta'minlashda mas'uldirlar.

Mazkur Kvebek Deklaratsiyasi asosida hukumatlar, nodavlat tashkilotlari, xususiy sektor, jamoat birlashmalari, o'quv yurtlari, tadqiqot markazlari, rivojlanishga yordam beruvchi agentliklar, mahalliy va tub jamoalar uchun quyidagi mazmundagi tavsiyanomalar tayinlandi:

Milliy, mintaqaviy va mahalliy boshqaruv hokimiyatiga:

1. Milliy va mahalliy ekoturistik siyosat hamda rivojlanish strategiyasini barqaror rivojlanishning umumiy vazifalaridan kelib chiqqan holda, ekoturistik jarayonlar qatnashishlari bilan bevosita va bilvosita keng miqyosda maslahatlar asosida *ishlab chiqish*.

2. Mahalliy jamoatchilik, xususiy sektor, nodavlat tashkilotlari va boshqa ekoturistik jarayon qatnashchilari bilan hamkorlikda tabiatni muhofaza qilish, mahalliy madaniyat, ayniqsa, urf-odatlar, genetik resurslar, yerga va suvga bo'lgan huquqlari hamda mulkchilikni *kafolatlash*.

3. Ekoturizm sohasida qarorlarni qabul qilishda va ekoturistik jarayonlarni olib borishda milliy, mintaqaviy, mahalliy boshqaruv organlarini jalb qilish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish (zarur holatda idoralararo ishchi guruhlarini tashkil etish), turistik jarayonlarni tashkil etishdagi boshqa qatnashchilarning ishtirokini ta'minlash. Mazkur maqsad va vazifalarni amalga tatbiq qilish uchun adekvat (alternativ) tarzda budjetni tashkil qilish va tegishli qonunchilik tizimini yaratish... .

4. Yuqorida qayd etilgan tuzilmaga mahalliy, mintaqaviy va milliy miqyosda ekoturizmni tartibga solib turuvchi va uning monitoringini olib boruvchi mexanizmni tatbiq qilish... .

5. Xalqaro darajada turistik mahsulotlar bilan bog'liq bo'lgan (xalqaro transport infrastrukturasini bilan birga) ekologik sarf-xarajatlarni xalqaro miqyosda taqsimlash mexanizmini ishlab chiqish... .

6. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda, bufer zonalarini (muhofaza tegrallarida)da hamda ekoturizm rivojlanayotgan hududlarda mahalliy va munitsipal miqyosda boshqaruv vositalarini ishlatish uchun zonallashtirish va yerdan foydalanish rejalarini faollashtirish... .

7. Barqaror ekoturizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan, xalqaro miqyosda aniqlashtirilgan va tasdiqlangan sertifikatсион sxemalar, eko-yorliqlar, ixtiyoriy tashabbuslardan foydalanish... .

8. Ekoturizmning asosi bo'lgan mikro, kichik va o'rta turistik korxonalarini texnik va moliyaviy qo'llab-quvvatlash, barqaror rivojlanish maqsadida inson resurslarini rivojlantirishga yordam berishni ta'minlash.

9. Alohida muhofaza etiladigan hududlarga tashrif buyurayotganlar sonining muntazam o'sishi, nozik ekotizimlardan foydalanishni barqarorlashtirish maqsadida tegishli siyosat yo'nalishini, me-nejment rejalarini va tashrif dasturlarini ishlab chiqish.

10. Xalqaro miqyosda hamda ichki bozorda milliy turistik tarmoqni boshqaruv organlari ma'muriyati tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlarga kichik va o'rta ekoturistik kompaniyalar hamda turistik operatorlarni kiritish va hokazo.

Milliy, mintaqaviy va mahalliy organlarga Kvebek Deklaratsiyasi orqali tavsiya etilayotgan ko'rsatmalar 19 ta bo'lib, ular deyarli ekoturizmning barcha jabhalarini o'z ichiga qamrab oladi.

Deklaratsiyada **Xususiy sektor namoyondalariga** 14 ta banddan iborat bo'lgan tavsiyanomalar taqdim etiladi. Ularning aksariyati xususiy kompaniyalar, turoperatorlar yoki tashkilotlarga ekoturizmni tashkil etish, uni boshqarish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun yo'l-yo'riq ko'rsatib o'tadi.

Kvebek Deklaratsiyasida alohida ko'rsatmalar **nodavlat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, o'quv yurtlari va ilmiy markazlarga** ham berilgan. Ushbu ko'rsatmalar 4 ta banddan iborat bo'lib, ular ekoturizmning ilmiy va texnik asosini yaratishga oid tadqiqotlarni

olib borish, o'zaro va davlatlararo hamkorlik shartnomalarini tuzish, ilmiy-texnik yutuqlarni ekoturizmning rivojiga yo'naltiruvchi ko'rsatmalardir.

Hukumatlararo tashkilotlar, xalqaro moliyaviy muassasalar va rivojlanishga ko'maklashuvchi agentliklar uchun tavsiyanomalar Deklaratsiyaning 37—44, moddalarini o'z ichiga oladi. Mazkur tavsiyanomalarda ekoturizmning boshqa turistik turlaridan farqli xususiyatlarini inobatga olgan holda xalqaro hamkorlik mexanizmini ishlab chiqish, ijobiy, milliy va mintaqaviy ekoturistik harakatlarni qo'llab-quvvatlash, mintaqalarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib xalqaro standartlarni belgilash, ekoturistik jamg'armalarni tuzish va ularni taqsimlash mexanizmini yaratish kabi tavsiyalar berilgan.

Mahalliy va tub xalqlar jamoatchiligiga Deklaratsiyada keltirilgan 44 ta moddada aks ettirilgan va ularga tegishli bo'lmagan tavsiyanomalardan tashqari mahalliy aholi imkoniyatlari, an'analari, tabiiy va ijtimoiy resurslarini inobatga olgan holda strategiyalarini ishlab chiqish va ularni amalga tatbiq qilish prinsiplari ko'rsatib o'tilgan.

Kvebek Deklaratsiyasining oxirgi 47—48-bandlari bevosita Yoxannesburg **Butunjahon barqaror rivojlanish Sammitiga yo'naltirilgan** bo'lib, unda quyidagi tavsiyalar aks ettiriladi:

- Barqaror rivojlanish prinsiplarini turizmga ham tatbiq etish.
- Barqaror rivojlanish prinsiplarida iqtosodiy, ijtimoiy va ekologik afzalliklarga erishishda ekoturizmning rolini ko'rsatib o'tish.
- Barqaror rivojlanish Butunjahon Sammitining birinchi va ikkinchi tur natijalariga turizm, jumladan, ekoturizmning ahamiyatini kiritish.

Sammitda ekoturizmning rivojlanish prinsiplari — Kvebek deklaratsiyasi qabul qilindi. Xuddi shu yili, ya'ni 26-avgust — 4-sentabr kunlari Janubiy Afrika Respublikasining Yoxannesburg shahrida BMTning «Barqaror rivojlanish» rukni ostida Butunjahon Sammiti bo'lib o'tdi. Ushbu Sammitda 2002-yilning «Xalqaro ekoturizm yili», «BMTning madaniy merosi yili» natijalari umumlashtirilgan tarzda ekoturizmning barqaror rivojlanishdagi ahamiyati ko'rsatib o'tildi.

Xalqaro miqyosda rivojlanib borayotgan ekoturizm O'zbekistonga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. 2001-yilda O'zbekiston, Qozog'iziston va Qirg'iziston respublikalari bilan birgalikda TESIS dasturi asosida «G'arbiy Tyan-Shanda biologik xilma-xillikni saqlash» loyihasi ishlab

chiqildi. Yagona ekologik davlatlararo tizimdagi noyob tog' tabiatining xilma-xil va betakror landshaftlarini saqlab qolish maqsadida yagona xalqaro ekologik rezervat tashkil etishga qaror qilindi. Unda bir qator alohida muhofaza etiladigan tabiiy hudud va obyektlar bilan birga ekologik sayyohlik marshrutlarini ishlab chiqish uchun moddiy va moliyaviy resurslar ajratildi. Hozirgi kunda yuzlab ekoturistik marshrutlar ushbu hududda ishlamoqda. 2004-yil 3-martda Toshkent shahrida «Ekoturizm va barqaror rivojlanish» xalqaro konferensiyasi bo'lib o'tdi. Konferensiyani xalqaro Ekosan jamg'armasi va uning qoshidagi ekologik turizm markazi «Ekosan-Tur» tashkil etdi. Unda Markaziy Osiyoda mahalliy, milliy va regional miqyosda barqaror rivojlanish uchun ekoturizmni yuritish muammolari ko'rib chiqildi. 2005—2006-yillarda O'zbekistonda ekoturizmga bag'ishlangan o'nlab uchrashuvlar, davra suhbatlari, bayram kechalari, anjumanlar bo'lib o'tdi, ularda ekoturizmning ma'naviy, ma'rifiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati ochib berildi.

Nazorat savollari



1. Ekoturizmning rivojlanish tarixini bosqichlarga ajratishda qanday ko'rsatkichlar inobatga olinadi?
2. Ekologik sayyohlik qachon va qayerda paydo bo'lgan?
3. XX asrning 90-yillarigacha bo'lgan ekoturistik davr qanday nomlanadi?
4. Regional miqyosdagi ekoturizm nima?
5. 2000-yildan keyingi bosqichda qanday ekologik sayyohlik rivoj topdi?
6. Ekoturizm yili kim tomondan taklif etilgan va qachon nishonlangan?
7. Biologik xilma-xillik va barqaror turizmga bag'ishlangan Berlin deklaratsiyasi qachon qabul qilingan?
8. Kvebek Butunjahon Sammiti qachon bo'lib o'tgan va unda qanday hujjatlar qabul qilingan?

1.5. EKOTURISTIK DUNYOQARASHLAR TIZIMI (KONSEPSIYALAR)

Ekoturizmning rivojlanish bosqichlari. Dunyo miqyosida bir qadar umumiylikka ega. Lekin ekoturistik danyoqarashlar hamma joyda ham bir emas. Chunki insonlarning tabiatga nisbatan, xususan ekoturistik sayyohlikka bo'lgan danyoqarashlari, ayniqsa uning tizimi, ularning

xarakterlari kabi turlicha bo'lishi tabiiy hol. «Insonlarning dunyoqarashlari, — degan edi Abu Nasr Forobiy, — ularning tashqi ko'rinishiga o'xshab turlicha bo'ladi, fazilat ularning ilmiga, hayot tarziga, yashash muhitiga to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir». Ekolog olim, professor Nikolay Feodorovich Reymers: «Ekologiya keng ma'noda insonlarning yashab ketishi haqidagi ta'limot», deb aytgan edi. Chunki insoniyatning Yer kurrasida yashash muddati ekologik dunyoqarashlarini amalga tatbiq qila olish imkoniyati bilan belgilanadi.

Ekoturistik konsepsiya — tabiat va turizmning o'zaro munosabati to'g'risidagi qarashlar, ya'ni bu moddiy dunyoda sayyohlikning o'rni, ahamiyati, mazmuni va mohiyatini aks ettiruvchi dunyoqarashlar tizimi.

Jamiyat qonunlari — kishilarning xatti-harakatlarini yoki biron-bir obyektga nisbatan (shu jumladan tabiatga nisbatan) munosabatini belgilaydigan ijtimoiy me'yorlar yig'indisi. Tabiat qonunlari — kishilarni o'rab turuvchi tabiiy muhitda kechayotgan hodisa va jayrayonlarning jamiyat qonunlariga bo'ysunmaydigan va kishilar faoliyatisiz ham namoyon bo'la oladigan holati. Tabiat qonunlariga: tabiiy omillarning birgalikda harakat qilishi, tabiiy modda (suv, energiya, kislorod, uglerod...)larning katta va kichik aylanishi, modda va energiya tezlanishi, tirik organizmlarning evolyutsion rivojlanishi va shu kabilar kiradi.

Hozirgi ilmiy adabiyotlarda ekoturistik dunyoqarashlar mazmuni va mohiyati bo'yicha guruhlashtirilmagan (klassifikatsiyalanmagan). Shuning uchun ham hozirda shartli ravishda quyidagi **ekoturistik konsepsiyalarni** ajratish mumkin:

- barqaror rivojlanish uchun ekoturizm;
- naturalistik;
- iste'molchilik;
- alarmizm;
- harakatlar yoki harakatsizliklar strategiyasi;
- ekoturistik rivojlanish chegarasi konsepsiyasi;
- muhofaza qilish va rivojlanish konsepsiyasi;
- ekoturistik inqiloblar konsepsiyasi.

Barqaror rivojlanish uchun ekoturizm konsepsiyasiga ko'ra tabiat qo'yniga qilinadigan sayyohlikni jamiyatning ekologik-ijtimoiy-iqtisodiy muammolarining yechimini topish orqali kompleks ravishda mahalliy, milliy, regional va global miqyosda o'zaro uyushgan tarzda hal qilish mumkin. Ushbu dunyoqarash konsepsiyasi

Ekologik konsepsiyalar

*Barqaror rivojlanish
uchun ekoturizm*

Naturalistik

Iste'molchilik

Alarmizm

Harakatlar

Tabiat



Turistlar



5-rasm. Ekoturistik dunvoaarashlar tizimi.

siyasini amalga oshirish masalalari 2002-yilda Yoxannesburg shahrida bo'lib o'tgan «Barqaror rivojlanish» xalqaro Sammitda ko'rib chiqilgan va u bo'yicha tegishli xalqaro deklaratsiya va shartnomalar qabul qilingan.

Naturalistik konsepsiya — jamiyatdan ustun turuvchi tabiatni ilohiy kuch, dono yaratuvchi, ideal borliq deb qaraydigan falsafiy oqimlar va maktablar. Naturalistik konsepsiyaga qarama-qarshi bo'lgan dunyoqarash **iste'molchilik konsepsiyasi** — turizmni yoki kishilarning sayyohlik faoliyatini tabiatdan ustun qo'yish va insonlarning hukmronlik g'oyasini ilgari surish.

Ular bozor munosabatlarini shakllantirgan va kapitalizmning boshlang'ich davrida turgan «yangi biznes» sohiblaridir. «Iste'molchilar» amerikalik yozuvchi Jek Londonning asarlarida aks ettirilgan va oltin orqasidan quvib butun borliq tabiatni faqatgina ularning sayyohlik ila boylikka erishish talablarini qondirish manbayi, deb qaraganlar. Hozirgi kunda ayrim «yangi boylar» ham bularga yaqqol misol bo'la oladilar. Ular uchun dam olish birlamchi, tabiat va insonlar hayoti ikkilamchidir.

Alarmizmchilar («alarm» — ingliz tilida talafot, ogohlantirish, vahima, bong degan ma'nolarni anglatadi) muayyan bir partiyaga birlashmaganlar va aniq bir dasturga ham ega emaslar, lekin ular stixiyali turizm ekologik inqirozga olib kelishi mumkin, deya bong urayotgan ziyolilar, ishchilar, maishiy xizmat va sport sohasida ishlaydigan turli kasb sohiblaridir. «Grinpis», «Yashillar partiyasi», «Kedr»kabi oqimlar shular jumlasidan bo'lib, ular yuzlab uyushmalar saflariga 30 mln dan ortiq kishilarni birlashtirganlar.

Turizmning texnik imkoniyatlari va unga jalb qilinayotgan aholining tez o'sishi natijasidagi salbiy oqibatlaridan chiqib ketishni tavsiya etayotgan g'arb sosiologlarining **harakatlar yoki harakatsizliklar strategiyasi** namoyondalari uch yo'lni ma'qul ko'radilar: 1) ekoturizm paytida tabiatda kechayotgan hodisa va jarayonlarga aralashmaslik; 2) muammosi bor tabiat qonunlariga ekoturizm orqali aralashish; 3) tabiiy atrof-muhit sharoitiga ekoturizmni moslashtirish.

1. Ekoturizm paytida tabiatda kechayotgan hodisa va jarayonlarga aralashmaslik konsepsiyasi namoyondalarini «harakatsizlar»-strategiyasi deyish mumkin. Chunki ular ekologik tizimlarning ayrim hudud va mintaqalarda buzilganligiga befarq bo'lishni va Yer kurrasida yashayotgan 6 mlrddan ortiq aholining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirmaslikni tavsiya etadilar. Ushbu prinsipni alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar — biosfera qo'riqxonalari va qo'riqxonalarda amalga oshirsa bo'ladi, lekin ommaviy tarzda, ya'ni tabiatdan ajralgan ekoturizmni aslo tasavvur qilib bo'lmaydi.

2. Muammosi bor tabiat qonunlariga ekoturizm orqali aralashishni yoqlab chiquvchilar fikri aralashmaslik konsepsiyasidagi fikrlarga qarama-qarshi bo'lib, ular tabiat qonunlarini, ilmiy-texnik yutuqlardan foydalangan tarzda, ekoturizm uchun xizmat qiladigan darajada o'zgartirishni taklif qilmoqdalar. Afsuski, bu oqim namoyandalari tabiat qonunlarining turizm qonunlaridan avval shakllanganligi, tirik organizmlar esa ana shunday tabiat jarayonlari orqali paydo bo'lganliklari va rivojlanganliklarini inkor etishlari hozirgi ko'rinishdagi tirik mavjudotlarni genetik o'zgartirib yuboradi. Bunday holat kino ko'rsatuvlarda keng namoyish qilinayotgan «duragay (mutant)» odamlarni va hayvonlarni yuzaga keltiradi va tabiiy tizimlarni ishdan chiqaradi.

3. Tabiiy atrof-muhit sharoitiga ekoturizmni moslashtirish orqali ekologik inqirozdan chiqib ketishni tavsiya etayotganlar, bir tomondan, ekologik tizimlarning tashqi kuchlarga nisbatan qarshi turish (buferlik) va o'z-o'zini tiklash qonuniyatlariga ishongan holda insonlarning harakatlarini moslashtirishni tavsiya etsalar, ikkinchi tomondan, kishilarning evolutsiyon jarayonlarni jadallashtirishlarini yoqlab chiqadilar. Bunday konsepsiya namoyandalari, tabiat qonunlarini ko'chirishga urinayotganlar, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ekoturistik rivojlanish chegarasi konsepsiyasi namoyandalari Yer tabiati imkoniyatlariga monand ravishda ekoturizm chegarasini belgilash yoki bunday ilmiy asoslangan o'sishni chegaralashni muayyan mintaqa, hudud yoki ma'muriy chegarada amalga oshirishni tavsiya etadilar. Afsuski ekoturizmni rivojlantirmasdan turib tez sur'atlarda o'sib borayotgan aholining sayyohlik ehtiyojlarini qondirib bo'lmaydi. Turizmni «konservatsiya» qilish va ekoturizmni «nol» variantga tushirish mumkin emas.

Global ekoturistik boshqaruv konsepsiyasi — tabiat va turizm ajralmasdir, degan g'oyani olg'a suruvchilardir. Uning tarafdorlari uchun ham turizm orqali tabiiy atrof-muhitni saqlab qolish muayyan hudud yoki mamlakat doirasida emas, balki xalqaro miqyosda — butun dunyo hamjamiyatining birgalikdagi tadbiri orqali amalga oshirishni yoqlab chiqqanlar. Ular tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish uchun davlatlar ustidan turuvchi yagona bir ekoturistik tashkilot tuzishni va u ham boshqaruv, ham nazorat vakolatiga ega bo'lishini yoqlab chiqdilar. Globalchilar BMTning Butunjahon turistik tashkiloti hozirgi kunda faqatgina davlatlarning ekoturizm borasidagi faoliyatini kuzatadilar va faktlarni keltiradilar, deydilar. Bunday oqim namoyandalari Yer kurrasidagi hamma davlatlarning tabiatdan o'z milliy qonunlariga binoan foydalanish suveren huquq imkoniyatlarini osonlikcha berib qo'ymasliklarini inobatga olishmayapti. Lekin, global ekoturistik boshqaruv tizimiga insoniyat qachondir albatta yetib borishi shart. Chunki ma'lum bir joydagi ekologik muammolar na tabiiy va na ma'muriy chegaraga bo'ysunadi, ya'ni ular global miqyosdagi ta'sir kuchiga ega bo'lgan inqiroz ekanligi hammaga ayondir.

Muhofaza qilish va rivojlanish konsepsiyasi namoyandalari jamiyatning ekoturistik talablarini jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish talablariga moslashtirishni taklif qiladilar. Bunday dunyoqarashlar rivojlangan «katta sakkizlik» davlatlarida keng targ'ib qilinyapti.

Haqiqatan ham, ekologik, jumladan ekoturistik tadbirlar iqtisodiyotlashgandir. Misol tariqasida Orol dengizi muammosiga to'xtalamiz. Paxta yakkahokimligidan O'zbekistonda olingan daromad (1960—1987-y.y.) Orol dengizi va uning atrofidagi ekologik inqirozni tugatishga ketadigan sarf-xarajatlardan ko'ra 7—10 barobar kamdir. «Ekologik inqirozning oldini olish, — deydi nemis ekolog olimi B. Grjimek, — unga qarshi kurashdan ko'ra doimo bir necha chandon arzonroqdir».

Ekoturistik revolutsiyalar konsepsiyasi — siyosiy tuzum va kishilarning ekoturistik dunyoqarashlarini keskin ravishda inqilobiy yo'l bilan iste'molchilik psixologiyasidan ekologik talablarni doirasiga o'tkazish. Ammo bu taklif qanchalik yaxshi bo'lmasin, bir qoidani esdan chiqarmaslikka undaydi — kishilik jamiyatida (tabiatdagidek) inqilobiy yo'l bilan biron-bir tadbirni amalga oshirish ularda keskin ravishda salbiy oqibatlarining yuzaga kelishiga olib keladi. Lekin hozirgi ekologik inqiroz holati ekoturistik ong, madaniyat, o'quv va tarbiyani keng miqyosda va jadal sur'atlarda zamon talabiga moslashtirishni taqozo qiladi. Chunki ekologik tizimlarning evolyutsion rivojlanish qonuniyatini orqaga qaytarib bo'lmaydi, ulardagi salbiy kechayotgan jarayonlarni to'xtatish yoki avvalgi ijobiy jarayonlarni tiklash imkoniyati doim ham yuzaga kelavermaydi.

Yuqorida sanab o'tilgan ekoturistik konsepsiyalardan tashqari dunyoning turli joylarida turlicha dunyoqarashga ega bo'lgan partiyalar, oqimlar, harakatlar, kengashlar, jamg'armalar mavjud. Lekin, **ekoturistik konsepsiya tabiat bilan turizm qonunlari va qonuniyatlarining o'zaro uyg'unlashgan va ilmiy asoslangan holda rivojlantirishini yoqlab chiqadigan qarashlar tizimidir**. Bizningcha, unga zid bo'lgan dunyoqarashlar noekoturistik konsepsiyalar tizimiga kiradi.

Nazorat savollari



1. Ekoturistik dunyoqarash nima ?
2. Ekoturistik dunyoqarash bilan ekoturistik konsepsiya orasida qanday farq bor?
3. Ekologik konsepsiyalarni sanab o'ting.
4. «Barqaror rivojlanish uchun ekoturizm» konsepsiyasiga izoh bering.
5. Naturalistik konsepsiya bilan iste'molchilik konsepsiyasi o'rtasida farq bormi?
6. Ekoturistik alarmizm qanday ma'no anglatadi?
7. Harakatlar strategiyasi bilan harakatsizliklar o'rtasidagi tafovutni aytib bering.
8. Nima uchun «ekoturistik inqiloblar konsepsiyasi» deb ataladi?

1.6. EKOTURIZMNING YO‘NALTIRUVCHI QOIDALARI (PRINSIPLARI)

Ekoturistik konsepsiyalardan kelib chiqqan holda ekologik sayyohlikning maqsadi va mohiyatini belgilab beruvchi yana bir qadam — ijtimoiy ekoturistik munosabatlarda amal qilinishi kerak bo‘lgan asosiy prinsiplar. «Prinsip» so‘zi lotin tilida «pricipium» — asos, boshlash qoidasi degan ma‘noni anglatadi. Ular tamoyil emas balki yo‘naltiruvchi qoidalar bo‘lib, ekoturizmni tashkil etish, uni o‘tkazish, yakunlash kabi jarayonlarni yuritishda qanday qoidalarga amal qilish lozimligini ko‘rsatadi.

Ekoturistik prinsip — ekologik munosabatlarni turizm orqali tartibga solishga yo‘naltirilgan qoidalar. Ushbu prinsiplarni yaratishda umumiy turizm prinsiplarini umumiy ekologik prinsiplar bilan uyg‘unlashtirilgan hamda ularning aksariyati milliy va xalqaro huquq normalarida o‘z aksini topgan. Ularning ayrimlari:

- ekoturizmدا tabiatni muhofaza qilish masalasining ustuvorligi;
- ekoturizmdan tushgan foydaning ekologik maqsadlarga yo‘naltirilganligi;
- ekoturizmning tarixiy, madaniy, diniy turizm kabi boshqa turizm turlari bilan uzviy bog‘langanligi;
- turizmning barcha yo‘nalishlarida ekoturistik ta‘limning majburiyligi;
- noekologik harakatlarning qat‘iyan cheklanganligi;
- mahalliy, milliy, mintaqaviy va global ekoturistik harakatlarning yagona tizimdaligi;
- qadamjolarining barqaror rivojlanishida ekoturizmning ulkan ahamiyat kasb etishi;
- mahalliy aholining ekologik ongi va madaniyatini ko‘tarishda ekoturizmni jalb qilish;
- tabiatdan oqilona foydalanish va tabiatni muhofaza qilishning mazmunini ekoturistik marshrutlarda aks ettirish;
- buzilgan tabiat komplekslari ham ekoturistik obyekt;
- davlat, jamiyat, mahalliy boshqaruv organlarining ekologik turizmdan manfaatdorligi.

Ekoturizmدا tabiatni muhofaza qilish masalasining ustuvorligi. Har qanday ekoturistik sayyohlikdan maqsad — ekoturizm orqali mahalliy, milliy, mintaqaviy va global miqyosda tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilishni tartibga solish yoki yo‘lga qo‘yish. Buning uchun

ekoturistik obyektlarning ekologik xavfsizligini inobatga olgan holda ekoturistik tadbirlarni o'tkazish qoidasiga rioya etish kerak. Ekoturizm tashkillashtirilayotgan joyda kechayotgan barcha hodisa va jarayonlar inson hayoti bilan uzviy bog'langan. Shuning uchun ham tabiatni muhofaza qilish kishilarning ekologik jihatdan xavfsiz hayot kechirishlari manbayi hisoblanadi.

Ekoturizmdan tushgan foydaning ekologik maqsadlarga yo'naltirilganligi. Mazkur ekoturistik prinsipga ko'ra ekoturizmdan kelayotgan daromadning bir qismi ekologik maqsadlarga, ya'ni hozirgi va kelajak avlodlarning ekologik xavfsiz muhitini ta'minlashga qaratilishi lozim. Ekologik xavfsiz muhit organizmlarning normal sharoitda ko'payishi, o'sishi va rivojlanishi uchun toza, sog'lom va qulay tabiiy muhit holati demakdir.

Ekoturizmning tarixiy, madaniy, diniy turizm kabi boshqa turizm turlari bilan uzviy bog'langanligi. O'zbekiston Respublikasining Xiva, Buxoro, Samarqand, Shaxrisabz, Toshkent, Qo'qon kabi shahar-qishloqlarida 4000 dan ziyod tarixiy, madaniy va diniy yodgorliklar va ziyoratgohlar mavjud bo'lib, ular millionlab fuqarolar va chet ellik turistlarni o'ziga jalb qiladi. Birgina Samarqandning Ulug'bek madrasasiga har yili 100 minglab turistlar keladi. Shuning uchun ham tarixiy, madaniy, diniy, sport kabi turizm turlari bilan ekoturizmni birga olib borish ekoturlarga turistlarni ko'proq jalb qilishga, turistlarda O'zbekiston haqida atroflicha tasavvurlar hosil bo'lishiga, kam xarajat orqali ko'proq foyda olishga olib keladi. «Rabat Malik» sayohatchilar Assotsiatsiyasi o'z ekoturlarining aksariyat qismini tarixiy, madaniy, sport, folklor turizmi bilan qo'shib olib boradi. Undan tushgan foydaning 30 foizigacha bo'lgan mablag'lar ekologik tadbirlar uchun sarf qilinadi.

Turizmning barcha yo'nalishlarida ekoturistik ta'limning majburiyligi. Turizm va servis (xizmat ko'rsatish)ga oid barcha o'qitish muassasalarida o'quvchilarning yoshi, ixtisosligi, mutaxassisligidan qat'i nazar, ekologik ta'lim bilan bir qatorda ekoturistik ta'lim berilishi shart. Aks holda insonlar yashab turgan hayotiy zarur tabiiy muhitni saqlab qolish qiyin. Shu bois ham 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan va amaldagi O'zbekiston Respublikasi «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasida ekologik o'quvning majburiylik prinsipi kiritilgan. Turizm ta'limiga oid barcha me'yoriy hujjatlarga ekoturistik ta'limning majburiylik prinsipini kiritish maqsadga muvofiq.

Noekologik harakatlarning qat'iy cheklanganlik prinsipga ko'ra ekoturlarning barchasida, albatta, tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, buzilgan tabiat komplekslarini qayta tiklash vazifalari turishi lozim. Chunki, ushbu vazifalarni inobatga olmaslik ekoturizmning tabiiy turizm yoki sport turizmiga aylanib ketishiga olib keladi. Turizmning ekologik talablarga mos kelmagan harakatlari noekologikdir.

Mahalliy, milliy, regional va global ekoturistik harakatlarning yagona tizimdaligi. Ushbu prinsipga ko'ra umumiy ekologik prinsipdan kelib chiqqan holda, tabiatda kechayotgan barcha jaryonlar va hodisalar hech qanday ma'muriy va hattoki tabiiy chegaralarga bo'ysunmaydi. Har qanday mahalliy miqyosdagi salbiy ekologik harakatlar qo'shib va kengayib milliy, mintaqaviy va global miqyosdagi ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Ular zanjir kabi biri ikkinchisi bilan ulangan va yagona tizimda turadi.

Qadamjolarining barqaror rivojlanishida ekoturizmning ulkan ahamiyati. Har qanday holatdagi ekoturistik obyektida to'g'ri tashkil etilgan ekologik sayyohlik, albatta, o'sha joyda yashovchi aholining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va ma'rifiy rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Ma'lumotlarga ko'ra G'arbiy Tyan-Shan rezervatiga uyushtirilgan sayohatlar tufayli Toshkent viloyatining tog'li hududlarida keyingi 10 yil ichida iqtisodiy yuksalish 2—2,5 barobarga oshgan. Aholining ish bilan ta'minlanganlik darajasi ham deyarli shu darajaga ko'paygan.

Mahalliy aholining ekologik ongi va madaniyatini ko'tarishda ekoturizmning xizmati. Ekoturizm tashkil etilgan har qanday hududda aholining ekologik ongi va madaniyati o'z-o'zidan ortadi. Chunki ekoturistlar, agar ular chindan ham shu turdagi turizmga taalluqli bo'lsalar, albatta mahalliy aholi ongiga ekologik madaniyatning kirib kelishiga sabab bo'ladilar. Bunda har qanday muomala layoqatiga ega bo'lgan inson o'zi yashab turgan ona yurti tabiatiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish uning o'zi uchun, oilasi, qarindosh-urug'lari, qishloqdoshlari, yurtdoshlari, xalqning kelajak avlodlari uchun foydadan holi emasligini anglaydi va boshqalarni ham shunga munosib tegishli xatti-harakatlarni qilishga undaydi.

Tabiatdan oqilona foydalanishni ekoturistik marshrutlarda aks ettirish. Tabiatdan oqilona foydalanish — tabiiy kelib chiqqan moddiy dunyo unsurlarining foydali xususiyatlarini insonlarning kundalik

hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun ilmiy asoslangan tarzda ishlatish¹. Kishilik jamiyatining har qanday faoliyati tabiiy atrof-muhitga ta'sir etadi. Lekin ushbu ta'sir me'yorida yoki me'yoridan ortiq bo'lishi, ya'ni ekotizimlarda moddiy va energiyaning tabiiy aylanish jarayoniga keskin yoki «ayab» ta'sir etishi mumkin. Keskin ta'sir tabiat unsurlarining qayta tiklashlanish imkoniyatini bermaydigan inson faoliyati holati va aksincha. Ekoturizm ham bundan mustasno emas. Chunki unda ham sayyohlar ekoturlar orqali tabiiy muhitga ta'sir etadilar. Lekin bu ta'sir davlat tomonidan o'rnatilgan me'yorlardan (REM) oshmasligini ta'minlash har bir ekoturistik marshrut tashkilotchisining majburiyatiga kiradi². Masalan, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining normativlariga binoan shahardagi korxonalar, tashkilot va muassasalar, fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning atrof-muhitga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan eng yuqori darajasi yoki ruxsat etilgan me'yor (PDK, PDV, PDS, PDXV...) aniqlanadi. Bunday chegaralanishlar shaharlarda PDK (zaharli moddalar to'planishining eng yuqori ko'rsatkichi) atmosfera havosi va suv uchun olinadi. Moddalarning atmosfera havosi yoki suvda inson organizmida hech qanday patologik o'zgarishlarga olib kelmaydigan darajasi SN 245—71 raqamli yo'riqnomasida PDK sanitar normalarining 160 xil modda va 35 turdagi kombinatsiyalarda atmosfera havosi ifloslanish darajasining ruxsat etilgan me'yor bo'yicha belgilangan edi. Hozirgi kunda ushbu me'yorlar xili va turi bo'yicha deyarli ikki baravarga ko'paygan. Masalan, uglerod oksidi bo'yicha ifloslantirish me'yorlari sutkasiga 1,0 mg/m³, harakatda bo'lmagan obyektlar uchun — 20 mg/m³ ga teng.

PDV (moddalarning ruxsat etilgan me'yorlari) — shaharlarda muayyan korxonalar yoki tashlash manbailari bo'lgan subyektlar tomonidan zararli moddalarni chiqarish miqdori. Agar muayyan obyektida 2 va undan oshiq tashlagich manbailari (ventilyasiya va energetik qurilma) bo'lsa, bu korxonalar uchun PDVning umumiy ko'rsatkichlari belgilanadi. Har bir PDV bo'yicha tashlash inventarizatsiyasi (paspor-

¹ A. Nig'matov. Ekologiya nima? — «Turon-Iqbol», 2005. — 128-b.

² Masalan: Oqava suvlarni, taxnik ko'rsatkichlarni inobatga olgan tarzda, joy relyefi va suv obyektlariga ifloslantiruvchi moddalarni tashlash me'yorlariga oid Yo'riqnoma. — Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining Rahbariy hujjati. Tabiatni muhofaza qilish. O'Z RH 84.3.6: 2004. — 1, 2004.

ti) tuziladi. Unda tashlandiqlarning son va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar, chiqitlarni tozalash usullari va ekologik texnologiyalarni takomillashtirishning yo'llari berilgan bo'ladi. Bu pasportlar har 5 yilda alohida qabul qilingan shakllarni to'ldirish asosida qayta ko'rib chiqiladi. Xuddi shunday jarayonlar Davlat standartlashtirish va metrologiya boshqarmasi tomonidan PDS (oqavalarining eng yuqori ko'rsatkichi), PDXV (kimyoviy moddalarni ishlatishning eng yuqori miqdori) va boshqa me'yoriy ko'rsatkichlar bo'yicha ishlab chiqiladi va shahar sanitariya-epidemiologiya xizmati tomonidan tasdiqlanadi.

Buzilgan tabiat komplekslari ham ekoturizm obyektii. Aytib o'tilganidek, nafaqat go'zal tabiat qadamjolari, balki tabiiy jarayon va hodisalar (ekologiyada bu biotik va abiotik omillar deb yuritiladi) yoki insonlarning xo'jalik faoliyati (antropogen omil) ta'sirida buzilgan tabiat komplekslari (landshaftlar yoki joyning tabiiy ko'rinishi va holati) ham ekoturizm obyektii bo'la oladi. Zero ekoturizmning asosiy vazifalaridan biri aynan buzilgan tabiat komplekslarini qayta tiklashdir. Orol va Orolbo'yi kabi inqirozli ekologik hududlarga qiziquvchi sayyohlarning soni kundan kunga ortib bormoqdalar. Ammo uni ekologik nuqtayi nazardan to'g'ri uyushtirish lozim. Bu masala zamonamizning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Davlat, jamiyat, mahalliy boshqaruv organlarining ekologik turizmdan manfaatdorligi prinsipi. Ekoturizm turizm industriyasida eng daromadli (kam sarf-xarajat qilib, ko'p foyda oladigan) soha bo'lganligi sababli, undan kelib tushadigan foyda mahalliy, davlat va nodavlat organlari hamda xalqaro tashkilotlarning sarmoyalarini ko'paytirish manbai bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, ekoturizm prinsiplari juda xilma-xil va keng qamrovli bo'lgani uchun ham biz ularning ayrimlarini sharhsiz, o'quvchilarning mustaqil fikrlashlari maqsadida sanab o'tamiz:

– *ekoturizm*da ekologik-ijtimoiy-iqtisodiy manfaatdorlikning yagonaligi;

– *ekoturizm*da milliy g'urur va iftixorni shakllantirishning zarurligi;

– *ekoturizm*ning mintaqaviy xususiyat kasb etishi va hokazo.

Muayyan ekologik me'yordagi ekoturizm prinsiplari ekologik xavfsizlikni saqlab turuvchi zaruriy hodisa va jarayonlar turkumiga kiradi. Bundan bir vaqtning o'zida ham sayyohlik, ham tabiatni muhofaza qilish qoidalari kelib chiqadi. Shunday qilib, ekoturistik

yoʻnaltirilgan harakatlar ekologik prinsiplarga yondashgan va chuqur ilmiy asoslangan boʻlishni talab etadi. Chunki inson tabiatning bir boʻlagi, lekin uning aksi emas.

Nazorat savollari



1. Ekologik prinsip nima?
2. Nima uchun ekoturlarda tabiatni muhofaza qilish qoidasi bir-lamchi hisoblanadi?
3. Ekoturizmda foyda taqsimlash qoidasi qanday?
4. Turli shakldagi turistik sayyohliklarni birga olib borishdan maq-sad nima?
5. Ekoturistik ta'limning majburiyligi nimada?
6. Ekologik qoida bilan ekoturistik qoidaning farqi bormi?
7. Nima uchun mahalliy aholini ekoturizmni tashkillashtirishga ko'proq jalb etish lozim?
8. Ekologik boshqaruv turlarining yagonaligi nimada?
9. Milliy g'urur va ekoturizm o'rtasidagi bog'liqlik nimada namo-
yon bo'ladi?
10. Buzilgan tabiat komplekslariga nimalar kiradi va ular ekoturizm
obyekti bo'la oladimi?

1.7. EKOTURISTIK XAVFSIZLIK

Turizm kishilarning oʻzga joy, yurt, mintaqa va qitʼalarga bori-shi bilan bogʻliq boʻlgani uchun sayohatchilar uchun muayyan darajada noqulayliklarni olib keladi. Ular soat poyasining (vaqt min-taqasi) oʻzgarishi bilan bogʻliq boʻlgan bioritmik noqulayliklardan to turli transport hodisalari orqali sodir etiladigan falokatlargacha misol qilib keltirish mumkin.

Xavfsizlik, jumladan, ekoturistik xavfsizlik nima va uni qanday qilib taʼminlamoq kerak? Rossiyalik olim L.Yu. Xotunsevning fikricha xavfsizlik — alohida shaxs, jamiyat va tabiat obyektlarining kuchli darajadagi xavf-xatardan himoyalanganlik darajasi boʻlib, uning asosiy mezoni kelajakda yoki hozirda sodir boʻluvchi tabiiy yoki ijtimoiy xatardan kelib chiquvchi qoʻrquv hissidir.

Bu tushunchaga gruziyalik mutaxassis T. Aroshidze xavfsizlik — keng maʼnoda hayot, salomatlik, insoniyatning asosiy huquqlari, hayotiy manfaatlarini taʼminlovchi manbalar, ijtimoiy tartibdagi resurslar bilan bogʻliq xavflarga chidamlilik darajasi, deb taʼrif beradi. V. N. Burkov, A. V. Shepkinlarning fikricha xavfsizlik nazariyasi zamo-

naviy, o'zaro tartibli fan yo'nalishi bo'lib, insoniyat, jamiyat, davlatning hayotiy zarur manfaatlarining texnogen va tabiiy favqulodda holatlardan himoyalanganlik darajasi.

Xavfsizlik keng ma'noli tushuncha bo'lib, **birinchidan**, *u nafaqat inson (shaxs emas, chunki u aniq bir individga tegishli), jamiyat yoki davlat, balki tabiat va uning elementlari nuqtayi nazaridan ham qaralishi mumkin.* Chunki ekologiya nafaqat insonlar, balki barcha tirik organizmlar (o'simlik va hayvonot dunyosi, mikroorganizmlar), ya'ni tabiat unsurlari o'rtasidagi va ularning tabiiy atrof-muhit bilan bo'ladigan munosabatlarini o'rganadi. Xavfsizlik tushunchasi «bexatar yashash darajasi»ni ifoda etar ekan, u ma'lum ma'noda har qanday tabiat unsurlarining ham bexatar yashashi nuqtayi nazaridan qaralishi lozim. Chunki, hozirgi kunga kelib muayyan tabiat unsurlarining bexatar yashashi, ularning mavjudligi bevosita tarzda insoniyatga bog'liq bo'lib qoldi. Tabiat unsurlarining o'zaro aloqasi natijasida yuzaga keluvchi har qanday jarayon yoki hodisa tabiiy jarayon hisoblanib, tabiatdagi muayyan tabiiy tanlanish bosqichida turadi. Ammo, tabiatdagi ayrim jarayonlar, masalan, chigirtkalarining son jihatidan ko'payib ketishi va ularning o'simlik dunyosi bilan bo'ladigan munosabatlari, albatta, inson xavfsizligiga ta'sir etadi. Bu, ilgari (insoniyatning tabiatga ta'siri kam yoki deyarli bo'lmagan vaqtlarda) ham uchrab turgan tabiiy jarayon hisoblanib, organizmlar ozuqa maydonining insoniyat tomonidan qisqarishi evaziga tezlashdi. Tabiatning esa insondan xavfliroq unsuri yo'q. Umumiy ekologiya nuqtayi nazardan qaraganda barcha tirik organizmlarning turli xavf-xatardan saqlanganlik darajasi ekoturizmning maqsadiga mosdir.

Ikkinchidan, *xavfsizlik nafaqat texnogen yoki tabiiy favqulodda holatlar va jarayonlardan organizmlarning saqlanganlik darajasi, balki u ko'zga ko'rinmas hamda bilvosita ta'sir etuvchi hodisa va jarayonlar orqali yuzaga kelishi ham mumkin.* Masalan, issiqxona samarasi (bug'xonaviy ta'sir) tufayli iqlimning sekin-astalik bilan isib borishi va uning natijasida cho'llanish jarayonining yuzaga kelishi. Oqibatda cho'llangan yerlarda o'simlik va hayvonot dunyosining tur va xil jihatidan kamayishi, ya'ni biologik xilma-xillikning inqirozi hamda insonlar uchun noqulay ekologik sharoitlarning yuzaga kelishi. Albatta, bunday xavfsizlik ekologik xarakterdagi (xususiyatli) xavfsizlikka kiradi. Lekin u ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy-

ma'rifiy va shu kabi xususiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin. Bizningcha «xavfsizlik» tushunchasini alohida ibora sifatida muayyan fanda ishlatish o'rinli emas. Xavfsizlik o'z xarakteriga ko'ra uning qo'shimcha, to'ldiruvchi va aniqlovchi so'z yoki so'z birikmalari bilan ishlatilishi maqsadga muvofiq.

Turistik marshrutlar kishilarning o'zga joylardagi xatti-harakatlari bilan bevosita bog'liq bo'lgani uchun ham ko'zda tutilmagan voqea va hodisalarni keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu turistik xavfsizlik uning turlariga qarab turlicha ko'rinishda, shaklda va darajada namoyon bo'ladi. Masalan, shaharlarda tarixiy-madaniy obidalarga sayohat qilishda yo'l-transport halokatlari, jamoatchilik tartibining buzilishi, oziq-ovqat mahsulotlari sifati yoki ovqatlanishga oid turistik xavflilik ko'rinishlari namoyon bo'lsa, ekologik turizm — sel kelishi, qor ko'chishi, tosh qulashi, suv toshishi, o'rmonlarga o't ketishi, okeanlardagi sunami, yirtqich hayvonlarning tishlashi yoki zaharli ilonlarning yo hasharotlarning chaqishi kabi tabiiy, tabiiy-antropogen hodisa va jarayonlar xavf-xatar tug'dirishi mumkin. Shuning uchun ham turistik xavfsizlik har bir turizm turi-ga qarab alohida ilmiy va amaliy faoliyat mavzusi hisoblanadi.

Ekologik xavfsizlik tushunchasi turli olimlar tomonidan turlicha izohlanadi. Ularning ayrimlarida tushuncha mohiyati nisbatan to'liq ochib berilsa, ayrimlarida munozaralarga sabab bo'luvchi fikrlar ham uchraydi. Masalan, buyuk rus ekologi N. F. Reymers (1990) ekologik xavfsizlikka ikki xil yondashgan:

1) tabiat obyektlari, alohida inson va insoniyatning bevosita yoki bilvosita hayotiy muhim elementlarining zararlanishlariga (yoki bu zararlanishdan keladigan xavflarga) olib kelmaydigan faoliyat, vaziyat va jarayonlar uyg'unligi;

2) Yer kurrasi va uning turli mintaqalarida insoniyatning tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy, texnogen va siyosiy tayyorgarligi (jiddiy bo'lmagan talafotlarga moslashishi) darajasida ekologik muvozanatni ta'minlovchi vaziyat, jarayon va faoliyatlar majmuasi. T. Tillayeva esa, ekologik xavfsizlik — shaxs, aholi, sanoat va tabiat obyektlarining tashqi ta'sirdan himoyalanganlik darajasidir, deb izohlaydi.

Bizning fikrimizcha, **ekologik xavfsizlik** — *organizmlar va ularning yashash muhitining tabiiy va antropogen omillar ta'siri tufayli turli miqyosda va tezlikda yuzaga keluvchi salbiy holatlardan saqlanganlik darajasi. Mazkur tushunchada ham ekologiyaga (organizmlar*

va ularning yashash muhiti), ham xavfsizlikka (salbiy holatlardan saqlanganlik darajasi) tegishli bo'lgan iboralar ifodalangan.

Ekologik xavfsizlikdan kelib chiqqan holda, ekoturistik xavfsizlik tushunchasiga izoh berishga harakat qilamiz. Agarda *ekologik xavfsizlik tushunchasiga ekoturizm nuqtayi nazardan yondashilsa*, unda bevosita ekoturizmning tadqiqot obyekti va predmetiga oid jihatlarini ajratib olish kerak bo'ladi. Ma'lumki, ekoturizmning predmeti va obyekti — sayohat uyushtirish mumkin bo'lgan atrof tabiiy muhit elementlari yoki ularning komplekslari (ekotizimlar).

Bu o'rinda xavfsizlik tushunchasini tabiatga va unga sayohat qilayotgan insonlarga nisbatan ham ishlatish mumkin. Bu yerda ikki so'z — «ekologiya» va «turizm» so'zlarining «birlashuvidan» hosil bo'layotgan so'zlar birikmasi orqali xavfsizlikka izoh berib o'tish lozim bo'ladi. Agarda xavfsizlikka ekologik nuqtayi nazardan yondashilsa, u holda faqatgina tabiiy atrof-muhit unsurlarining xavfsizligi to'g'risida so'z boradi va natijada fikrimiz ekologik xavfsizlikning takrori bo'lib qoladi. Agar faqat sayohatchining xavfsizligi nuqtayi nazardan ushbu masalaga yondashadigan bo'lsak, unda faqatgina turistik xavfsizlikka duch kelib qolamiz. Shuning uchun ham bu yerda «mo'tadil» holatni yuzaga keltirish darkor. Ekoturistik xavfsizlikda sayohatchilar ham, tabiiy atrof-muhit elementlari ham zarar ko'rmasliklari kerak. Real holatda buning to'liq iloji yo'q. Chunki, har qanday inson harakatining ozmi-ko'pmi tabiatga zarari tegadi, va aksincha, insonlarning tabiat qo'yniga sayohatlari mobaynida muayyan darajada ular uchun noqulay va xavfli sharoitlarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham ekoturizmni rejalashtirish, uyushtirish, olib borish va xulosalash davomida tabiat va insonlarning bexatarligi, ya'ni xavfsizligi inobatga olinadi.

Shunday qilib ***ekoturistik xavfsizlik*** — *ekoturistik sayohatni rejalashtirish, boshqarish va yakunlash davomida ko'zda tutiladigan hamda amalda realizatsiya qilinadigan atrof tabiiy muhit va sayohatchilarning tabiiy hamda antropogen omillar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatlardan saqlanganlik darajasi.*

Ekologik xavfli vaziyatlar ekoturizmnda, u antropogen, tabiiy, texnogen yoki boshqa omillar natijasida yuzaga kelishidan qat'i nazar, sodir etilishi va rivojlanishi uchun Yerning geografik qobig'i makon vazifasini o'taydi. Bundan tashqari ekoturlarni tanlashda landshaftlarning inson ta'siriga barqarorligini aniqlash va tadqiq qilish ham

muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki turli landshaftlar ekoturizmga sodir etiladigan antropogen ta'sirni turlicha qabul qilishi isbot talab etmaydigan aksiomadir. Bir xil sayyohlik jarayoni, tundra va chala-cho'llarda tabiiy atrof-muhitni turlicha ifloslaydi.

Endilikda ekoturizmning «ochilgan va baholangan» tabiiy obyektlarni saqlab qolish, ya'ni muhofazalash va undan oqilona foydalanishni maqbullashtirish masalalarini tabiat qonunlari bilan uyg'unlashgan holda olib borish lozimligini yana bir bor ta'kidlamochimiz (Nig'matov, 2004). Bu o'rinda ekologik tadqiqotlarning ahamiyati kattaligini e'tirof qilar ekanmiz, barcha tabiiy va ijtimoiy yoki aralash turdagi hodisa va jarayonlarni aynan tabiiy geografik majmualar doirasida yoki uning taksonomik birliklarida o'rganish talab etiladi. Zero antropogen ta'sir natijasida kuchayayotgan cho'llashish, sho'rlanish, radioaktiv ifloslanish, ozon qatlamining yemirilishi, okeanlarda planktonlarning yo'qolib borishi hech qanday ma'muriy chegarada emas, balki tabiiy geografik chegaralar miqyosida kechayotgan salbiy ekologik jarayon va hodisalardir.

Ekoturistik xavfsizlikni tabiiy geografik komplekslar (cho'l, chala cho'l, dasht, past tog', o'rtacha balandlikdagi tog', baland tog' kabi hududlar) doirasida o'rganish, xulosalash, baholash, bashoratlash, boshqarish va turli xarakterdagi ijtimoiy mexanizmlarni yaratishda quyidagilarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq:

✓ *birinchidan* — ekoturizm natijasida tabiatda sodir bo'luvchi favqulodda va evolyutsion tarzda rivojlanuvchi, sayyohlar xavfsizligi va tabiiy muvozanatga salbiy ta'sir etuvchi vaziyatlar (bo'ron, zilzila, surilma va h.k.);

✓ *ikkinchidan* — ekoturistik omillarning tabiiy geografik jarayonlar natijasida ekologik xavfli vaziyat darajasiga yetishi va favqulodda tus olishi (zaharli gazlarning shamollar natijasida olib ketilishi, gidrografik obyektlar orqali oqizilishi...);

✓ *uchinchidan* — bunday vaziyatlarning sodir bo'lish qonuniyatlari va ularni ekoturistik bashoratlagan holda tabiatdan optimal (maqbul) foydalanish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, ekologik xavfsizlik jihatidan ekoturistik hududlarni rayonlashtirish;

✓ *to'rtinchidan* — tabiat obyektlarini ekologik buzilishdan holi qilish va h.k.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki ekoturistik xavfsizlikni ta'minlashning asosiy mezonlaridan biri hisoblangan ekologik

xavfsizlik eng avvalo mahalliy va mintaqaviy doirada tabiiy geografik jihatdan qarab chiqilishi maqsadga muvofiq. Albatta, faqat tabiiy geografik jihatdan ekologik xavfsizlikni global doirada ta'minlash imkoniyati bo'lmashligi mumkin, ammo masalaning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, huquqiy va boshqa jihatlarini atroflicha tahlil qilish uchun tabiat qonuniyatlari, geotizimlar va ularning zamon hamda makondagi o'zgaruvchanligini inobatga olmaslikning iloji yo'q.

Nazorat savollari



1. Xavfsizlikni Siz qanday tushunasiz?
2. Ekologik xavfsizlik nima?
3. Ekologik xavfsizlikning turistik xavfsizlikdan farqi bormi?
4. Ekoturistik xavfsizlikda nimalar inobatga olinadi?
5. Ekoturistik xavfsizlikni ta'minlash muammolarini sanab o'ting.

1.8. TURIZMDA EKOTURIZMNING TUTGAN O'RNI

Hozirda turizm jadal ommalashib nafaqat miqdor, balki sifat jihatidan ham o'zgarib bormoqda. XX asrning o'rtalariga kelib tabiiy turizm va uning turli ko'rinishlari rivojlangan bo'lsa, 70-yillarning boshlarida undan ekoturizm ajralib chiqa boshladi. Ekoturizm o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra insonlarning nafaqat ona tabiat qo'ynida dam olish, hordiq chiqarish yoki muayyan sog'lomlashtirish bilan shug'ullanishi, shu bilan birga atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ishlarni bajarishga undaydi. Ma'lumotlarga ko'ra umumiy turizm ichida ekoturizm 7% dan 60% gacha bo'lgan turistlarni qamrab oladi. Bunday ko'rsatkichlarga sabab, bir tomondan mualliflarning yetarli ma'lumotga ega bo'lmashligi yoki ekoturizm bilan boshqa turizmni aralashtirib yuborishlari bo'lsa, ikkinchi tomondan har bir davlatning ekoturistik imkoniyatlari turlicha ekanligidan kelib chiqadi. Hozirda turistik industriya ichida ekoturizmning mavqeyi oshib bormoqda. Masalan, dunyo bo'yicha XX asrning 90-yillari oxirida ekoturistlar soni 10% dan 30% gacha ko'tarilgan. Germaniyada ekoturlarga oid sotilgan turistik paketlar soni 1% gacha, AQSHda 3% gacha, Finlyandiya va Shvetsiyada 2% atrofida, Fransiyada 4% dan ko'p bo'lgan. Agar ekoturizmning boshqa turistik turlar bilan qo'shib olib borilayotganini inobatga olsak, unda sotilgan paketlar soni 15—20% gacha ko'tariladi.

Butunjahon turizm tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, ko'pgina Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlarida ekoturizmga alohida bir turizm turi sifatida qaralmaydi. Bularda ekoturistik marketing va menejment ishlari hanuzgacha amalga oshirilmagan.

Ekoturizm eng rivojlangan mamlakatlarda, AQSH va Kanadada keng miqyosda amalga oshiriladi.

O'zbekistonning boy tabiatini, insonlarning o'z yashab turgan joylariga bo'lgan hurmat-ehtiromini hamda tabiat milliy qadriyatlarining bir bo'lagi sifatida e'tirof etilishini hisobga olgan holda 1995-yilda Prezidentning «Respublikamizda Buyuk ipak yo'lini qayta tiklash va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi ishtirokini jonlantirish to'g'risida»gi farmoyishi qabul qilindi. 1999-yilda esa, turizmni rivojlantirishning 2005-yilgacha bo'lgan Dasturi tasdiqlandi, 2001-yilda Vazirlar Mahkamasining «Chimyon-Chorvoq kurort zonasida tabiiy boyliklarni saqlash, sog'lomlashtirish va dam olish tizimini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi maxsus qarori ekoturizmni rivojlantirishga asos soldi.

O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri uning ekzotik tabiatidir. Respublikada o'ta quruq landshaftlardan tortib doimiy qorliklar va muzliklar bilan band bo'lgan Tyan-Shan, Pomir-Oloy tog' tizmalari, ekologik inqirozga misol bo'la oladigan Orol dengizi va uning atrofi, uzoq o'tmish, tabiiy tarixga ega bo'lgan Janadaryo quruq vohasi, biologik xilma-xillikka ega bo'lgan Hisor, Ugom, Chotqol tog' tizmalari mavjud.

YUNESKOning Butunjahon meroslar ro'yxatiga 754 ta obyekt kiritilgan bo'lib, ularning 4 tasi O'zbekistonda joylashgan. (Ichanqal'a-Xiva, Buxoroning tarixiy markazi, Shaxrisabzning tarixiy markazi, Samarqand-Madaniyatlar chorrahasi). Ushbu noyob tarixiy turistik obyektlarda ekoturistik marshrutlarni birga qo'shib olib borish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Xuddi shunday ekoturistik imkoniyatlar nafaqat tarixiy, balki folklor, madaniy va diniy markazlar orqali ham rivojlanishi mumkin. Bu o'rinda Boysun tog'li hududi, Termiz atrofidagi buddizm va zardushtiylik diniy markazlari orqali ekoturizmni rivojlantirish mumkin.

Ekologik turizm adabiyotlarda «yashil», «xlorofill», «landshaft», «tabiiy turizm» iboralari ostida ham tilga olinadi. Ekologik turizm bu — shaxslarning doimiy yashash joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy yoki boshqa maqsadlarda «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi va boshqa ekologik qonunchilik hujjatlari bilan qo'riqlanadigan

obyektlarga haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga sayohat qilishdir. Ekologik turizm tabiiy atrof-muhit bilan tanishish va hordiq chiqarishning eng qulay shakllaridan biri sifatida tan olingan munosabatlar majmuyi hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda ekotizimlarga va tabiiy atrof-muhitga ta'sir ko'rsatmaydi. Bir vaqtning o'zida mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda, xalqimiz farovonligini oshirishda sezilarli hissa qo'sha oladigan soha hamdir.

Ekoturizm nisbatan yaqin davrda «yashillar»harakati to'liqida vujudga keldi va mamlakatning barqaror rivojlanish konsepsiyasi asosida g'arbda keng avj oldi. Ekoturizm tabiatda qisqa muddatli dam olish(uik-end)dan, to tabiiy mavzularda ilmiy tadqiqot o'tkazish maqsadidagi turistlar oqimigacha qamrab oladi. Keyingi yillarda ekoturistlar ko'plab yuqori malaka talab etilmaydigan dala ishlariga jalb etilmoqdalar. Ular mehnat ta'tillarini ekzotik mashg'ulotlar; qushlar, tuyoqoyoqlilar va boshqa hayvonlarni, sayyoramizning uzoq burchaklaridagi kamayib borayotgan o'simliklar sonini hisobga olish yoki Lotin Amerikasi mamlakatlaridagi yo'qolib borayotgan toshbaqalar tuxumini yig'ish, yo Sharqiy Afrika va Osiyo kengliklaridagi yirik yirtqich va tuyoqli hayvonlarni kuzatishlarni olib boradilar. Ekoturistlarning bir qismini esa noyob o'simliklar dunyosi va biosenozi, masalan, tropik ekvatorial o'rmonlar, yozda gullagan tundra yoki cho'ldagi bahor, jonsiz tabiat obyektlari (g'orlar, daralar, tog' qoldiqlari v.b.), shuningdek antropogen landshaftlar qiziqtiradi.

Ekoturizm aholining ekologik bilimi, ongi, madaniyatini oshirish orqali atrof-muhit holatini optimal holatda saqlab turishga (tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiiy boyliklarni muhofaza qilish, buzilgan tabiiy komplekslarni qayta tiklash) yo'naltirilgan turizm shaklidir.

Ekologik turizmni rivojlantirish uchun Butunjahon yovvoyi tabiat Fondi, Tabiiy resurslar va tabiat muhofazasi Xalqaro ittifoqi kabi xalqaro tashkilotlar faoliyati jalb etilmoqda. Bundan tashqari xalqaro va mintaqaviy darajada kongresslar, simpoziumlar va seminarlar o'tkazilmoqda, ekoturistik firmalar soni oshib bormoqda, turizmning boshqa turlari qatorida ekologik turizmga ham alohida ahamiyat berilmoqda.

Ekoturizm boshqa turizm turlaridan:

— tabiiy holatda saqlanib qolgan hududlarga sayohat qilish (qo'riqxonalar, milliy bog'lar, buyurtma qo'riqxonalar va boshqa muhofaza ostiga olingan obyektlar kiradi);

- tabiatdan foydalanuvchi soha;
- ekologik targ'ibotning bir ko'rinishi ekanligi bilan farq qiladi.

Kelajakda davlatlar va hamjamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda ekologik turizm asosiy omillaridan biri bo'lib qolishi lozim. Chunki, insoniyatning tabiiy atrof-muhitga bo'lgan munosabati kishilarning erkin fikrlash, samarali ishlash va ijod qilish qobiliyatini belgilash, mehnat qobiliyatini tiklash imkoniyatini beradi.

Amaliy jihatdan har bir mamlakat «yashil»sayohatlar uyushtirish imkoniyatiga ega. Bugungi kunda asosiy ekoturistik oqim AQSH, Kanada, Avstraliya, Nepal, Ekvador, Braziliya, Filippin, Keniya, Janubiy Afrika Respublikasiga qaratilgan. Chunki ularning iqtisodiy imkoniyati va tabiiy muhiti shunga loyiqdir.

Nazorat savollari



1. Turizm bilan ekoturizmning nisbatini baholang.
2. Nima uchun ekoturizm jadal sur'atlarda rivojlanmoqda?
3. Ekoturizmning boshqa turizm turlaridan asosiy farqlari nimalardan iborat?
4. Qayerlarda ekoturizm boshqa turizmga nisbatan yaxshi yo'lga qo'yilgan va nima uchun?
5. Ekoturistik sayyohlik rivojlangan davlatlarni sanab o'ting?

1.9. O'ZBEKISTONNING EKOTURISTIK IMKONIYATLARI

O'zbekiston o'zining turistik resurslar salohiyati bo'yicha Markaziy Osiyoda oldingi o'rinlardan birini, dunyo bo'yicha esa yuqori o'rinlarni egallaydigan 10—15 mamlakatlar ichidan o'rin olgan. Respublika hududida turli davrlarda vujudga kelgan to'rt mingdan ortiq arxitektura, tarixiy va tabiiy yodgorliklar mavjud.

Turistik mintaqaning jozibadorligini ko'rsatuvchi asosiy omillar bu O'zbekistonning ekzotik tabiati, boy landshafti, hayvonot va o'simlik dunyosining rang-barangligidir. Bugungi kunda muhofaza ostiga olingan tabiiy hududlar ekologik turizmning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra¹ 9 ta davlat qo'riqxonalari mavjud bo'lib, ular 209,6 ming ga yerni

¹O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan foydalanishning holati to'g'risida Milliy ma'ruza. — T.: Chinar ENK, 2006.

qamrab olgan qo'riqxonalaridan biri (Chotqol tog'-o'rmon) biosfera davlat maqomini olgan. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tasarrufida — Chotqol tog'-o'rmon biosfera qo'riqxonasi (Toshkent viloyatida), Hisor tog'-archa qo'riqxonasi (Qashqadaryo viloyatida), Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi tasarrufida Zomin tog'-archa (Jizzax viloyatida), Badayto'qay tekislik-to'qay (Qoraqalpog'iston Respublikasida), Qizilqum qumli-to'qay (Buxoro va Xorazm viloyatlarida), Zarafshon tekislik-to'qay (Samarqand viloyatida), Nurota tog'-yong'oq (Jizzax viloyatida), Surxon tog'-o'rmon (Surxondaryo viloyatida) qo'riqxonalari hamda Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi tasarrufida — Kitob geologik qo'riqxonasi faoliyat yuritmoqda.

O'simlik dunyosi, tirik organizmlar qatoridan joy olgan tarzda, ekologik tizimlarda o'z o'rniga va ahamiyatiga ega. Ma'lumotlarga ko'ra keyingi 200 yil mobaynida o'simlik dunyosi roppa-rosa ikki barobarga qisqargan. Yer kurrasida uchraydigan 600 ming turdan ortiq yovvoyi o'simlik turlaridan O'zbekistonda bor-yo'g'i 4 ming turi uchraydi, xolos. «O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobi»dan olingan ma'lumotlarga ko'ra keyingi 14-yil ichida 138 tur yovvoyi o'simliklar noyob va yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlar qatoridan joy oldi. 1984-yilda ularning soni 163 ta bo'lsa, 1998-yilga kelib 301 tagacha ko'paydi.

Hayvonot dunyosi o'simlik dunyosidan farqli ravishda ekologik tizimlarda aynan ularning turi va sonining ko'pligi, ya'ni biologik xilmaxilligi bilan ajralib turadi. O'zbekiston faunasining turlari ko'p bo'lib, sutemizuvchilarning 97 turi, sudralib yuruvchilarning 57 turi, qushlarning 410 turi mavjud. 2006-yilda chop etilgan O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga sut emizuvchilarning 23 turi, qushlarning 48 turi (kenja turlar bilan 51 ta), sudralib yuruvchilarning 16 turi, baliqlarning 17 turi, halqasimon chuvalchaglarning 3 turi, molluskalarning 14 turi, bo'g'imoyoqlilarning 61 turi (kenja turlar bilan 62 ta) kiritildi¹.

O'zbekistonning iqlim sharoiti dam olish va ekoturizmni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Mamlakatimizning Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax, Farg'ona va Toshkent viloyatlari tabiat yodgorliklariga boy bo'lgan hududlar bo'lib, ommaviy ekoturizm markazlari bo'la oladi. Bu viloyatlarda ajoyib g'orlar, karstlar, sharshara va shovvalar, buloq, jilg'a va soylar, daralar, qoyali

¹ O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. II jild — T.: Chinar ENK, 2006.

relyef shakllari, ochilib qolgan yotqiziqlar va boshqa ko'plab ajoyib tabiat yodgorliklari uchraydi.

Hozirgi kunda faqatgina Samarqand viloyatidagi Zarafshon qo'riqxonasi va Buxoro viloyatidagi «Jayron» ekomarkazi doimiy ravishda sayyohlarni qabul qilmoqda. Boy imkoniyatlarga ega bo'lgan Chotqol, Zomin, Nurota, Hisor qo'riqxonalari, Amudaryo qayirlaridagi to'qaylar amaliy jihatdan foydalanilmayapti. Shuningdek ajoyib tog' va cho'l landshaftlari, botanik, geologik va gidrogeologik obyektlar sayyohlarni o'ziga jalb etib, ekoturizmning rekreatsion elementini tashkil etib, sport turizmi, alpinizm, tog' chang'isi, ot sporti va boshqa faol dam olish turlarini qamrab oladi.

Lekin, O'zbekistonda tabiatga qilingan hamma sayohatlarni ham ekoturizm deb atay olmaymiz. Chunki shaharliklarning toqqa chiqib dam olishlari, agarda u ekologik maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lmasa, ekoturizm emas, balki tabiiy turizmdir. Masalan, toshkentliklarning 90 foizi 100—130 km radiusda tabiat qo'yniga bir kunlik tashrif qiladilar. Mazkur turizm stixiyali ravishda tashkil etilib, ekologik va sanitar talablarga rioya qilinmaydi. Natijada tabiiy muhit keskin ravishda ifloslanadi. Ularning aksariyati «yovvoyi turlar» dan iborat bo'lgani uchun ham, sayohatchilarning tabiatga yetgazgan zarari hamda uni qoplash haqida o'ylab ham ko'rilmaydi. Bunday sayyohlarni jonkuyar ekolog, ekoturistlarning Respublika assotsiatsiyasi boshlig'i V. Soy «qozon-turizm», ya'ni yaxshi ovqatlanib, dam olishni xush ko'radigan xudbin turistlar, deb atashi bejiz emas.

Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra ularning umumiy sonidan oilali turistlar — 60%, korxonalar jamoasi 30%, tasodifiy kompaniyalar 7%, boshqalari esa 3% ni tashkil etadi. Har bir ekoturist uchun sutkalik sarf-xarajatlar 10 ming dan to 30 ming so'mgacha boradi. Kundalik sarf-xarajatlarning umumiy ko'rsatkichi ovqatlanish, transport, joylashish, xizmat ko'rsatish turi va sifatiga bog'liq ravishda oshib boradi. Shaharliklarning «ekoturistik sayohati» ko'pi bilan 5—7 kunga cho'ziladi. Aksariyat hollarda uning davomiyligi bir kundan oshmaydi va yakshanba yoki bayram kunlariga to'g'ri keladi. Bu «qozon-turist» larning tabiiy muhitga bo'lgan bosimi yil davomida notekis taqsimlanishiga olib kelmoqda.

2001—2005-yillarda O'zbekistonda ekstremistik va terroristik oqimlarning tog'li hududlarda faoliyat yuritishga urinishlari keskin ravishda ekoturizmning kamayib ketishiga olib keldi. Shuning uchun

ham el-yurt tinchligi va osoyishtaligi eng muhim barqaror turistik rivojlanish omillaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Ma'lumotlarga ko'ra O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatiga olingan turistik korxonalarining atigi 5 foizi ekoturizmga yo'naltirilgan. Ularga tor doirada faoliyat olib boruvchi — ovchilik, baliqchilik, safari kabi ekoturistik, to'g'rirog'i tabiiy turistik firmalar kiradi. Katta-katta turistik firmalar aksariyat hollarda aralash turdagi sayyohlikni taklif qiladilar. Hattoki «Ekosan-tur» kompaniyasi ham bundan mustasno emas. Buning o'ziga yarasha sabablari bor, albatta. Sof ekologik turizmga haligacha Respublikamizda turizmning mustaqil sohasi sifatida qaralmagan va shuning uchun uning o'zi mustaqil holatda yetarli darajada daromad olib kelishga qodir emas. Milliy g'urur, milliy mafkura, ma'naviyat hamda ma'rifat nuqtayi nazaridan ham ushbu qo'shma ekoturlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Respublikaning zamonaviy xo'jalik yuritish infrastrukturasida ixtiyoriy ko'rinishdagi mahalliy aholiga yoki chet el turistlariga xizmat ko'rsatish talab darajasida emas (2-jadval). Bu esa, tashqi turistik bozorda o'zbek ekoturizm mahsulotlariga bo'lgan talabning past darajada bo'lishiga asosiy sababdir.

2-jadval. O'zbekistonda 2004-yilda turistik resurslarga va foydalanish potensialiga bo'lgan talab (T. Abdullayeva)

Turistik resurslar	Mahalliy turistlariga talab	Chet el turistlariga talab	Imkoniyat
<i>Tegilmagan tabiat</i>	Past	Yuqori	Yuqori
<i>Mahalliy madaniyat ko'rinishlari</i>	O'rtacha	Yuqori	Yuqori
<i>Mahalliy aholi bilan muloqot</i>	Past	O'rtacha	Yuqori
<i>Taklif qilinayotgan tadbirlar (sayr, folk-shou, marosimlar)</i>	O'rtacha	Yuqori	Yuqori
<i>Ekzotik muhit va sarguzasht malakasi</i>	O'rtacha	O'rtacha	O'rtacha
<i>Xizmat ko'rsatish sifati</i>	Past	O'rtacha	Past

Chet elliklarning mahalliy aholiga qaraganda bizning milliy an'analarimiz, tarixiy obidalarimizga qiziqishlari bir qadar yuqori. Lekin O'zbekistonning ekoturistik salohiyatini past deb bo'lmaydi. Faqatgina uning ochilmagan imkoniyatlarini rivojlantirish talab etiladi. Bunda demokratik prinsiplar va bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan erkin raqobat muhitini yaratish, ekologik-huquqiy mexanizmni ishlab chiqish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy aholining o'z yurti tabiatiga bo'lgan ishtiyoqining pastligi Respublikamizda «O'lkashunoslik», «Geografiya», «Ekologiya» kabi fanlarning o'qitilishiga bolalarni yoshligidan qiziqtirishga yetarli darajada e'tibor berilmayotganligidadir. Shu bois mahalliy ekoturistlarning yangi o'zlashtirilmagan ekoturlarga qiziqishi kam va ular o'zi bilgan tabiiy muhitidan chetga chiqmaslikka harakat qiladilar. Ekoturistlarning ko'p qismini tashkil qiluvchi ekoturistlar — shaharliklar kam hollarda mahalliy aholi bilan bog'lanishadi yoki ularning ekoturistik xizmatlaridan foydalanishadi. Chet ellik mehmonlar esa qishloq aholisi, ularning yashash tarzi, an'analari, madaniyatiga qiziqishadi.

Hozirgi kunda Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va uning tegishli bo'linmalari ekologik turizmni rivojlantirish maqsadida ushbu «Jayron ekomarkazi»ga (6-rasm) qo'shni bo'lgan 27300 ga maydonda Markaziy Osiyoda kam uchraydigan noyob 6 juft tuyoqli



6-rasm. «Jayron ekomarkazi»-un savohut.

hayvonlarni (jayron, buxoro qo‘yi, buxoro bug‘usi, yovvoyi echki, burama shoxli echki — marhur, yovvoyi cho‘chqa (to‘ng‘iz) kabilarni) saqlash, ko‘paytirish va himoya qilish maqsadida milliy bog‘ tashkil etish borasida ilmiy-iqtisodiy asoslangan loyiha tuzish ishlarini boshlab yubordi. Toshkent shahridan 100 km janubi-sharqda joylashgan «Sayhun» xo‘jaligida (367 gektar) Qo‘mita Markaziy Osiyoda yo‘q bo‘lib ketish arafasida turgan juft tuyoqli hayvonlarni saqlash, ko‘paytirish va ularni tabiatga qaytarish maqsadida parvarishxona qurib bitkazdi. Ushbu maskan mahalliy va chet ellik ekoturistlarning turizmning tabiatga sayohat va ekosafari turlarini o‘tkazish uchun juda qulay joydir. Chunki bu yerda nafaqat yuqorida nomlari tilga olingan hayvonlar, balki Markaziy Osiyoda qirilib ketish arafasida turgan noyob Buxoro bug‘usi, Buxoro qo‘yi, Seversov qo‘yi, Buxoro jayronlari, Burama shohli marhur echkisi kabi boshqa turlardagi kamyob juft tuyoqli hayvonlarni saqlash va ko‘paytirish uchun yetarli ozuqaviy resurslar va himoya vositalari mavjuddir.

— Surxondaryo viloyati noyob hayvonot va o‘simlik dunyosini tiklash hamda ko‘paytirish, chet el ekosayohatchilarni yovvoyi tabiat bilan tanishtirish, dam olish, ov va baliq ovlash maskani yaratish maqsadida 2006-yil 9-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Davlat bionazorati nozirliги qoshida Surxondaryo viloyati Jarqo‘rg‘on tumani, Termiz shaxridan 30 km shimoli-sharqda, jami 1034 gektar maydonni tashkil etgan Oqtepa suv omborining atrofida joylashgan «Oqtepa» tabiat bog‘ini tashkil etdi. Mazkur maydon shimol, sharq va janub tomonidan 140 gektarni tashkil etgan ko‘l bilan tabiiy chegaraga ega. Ushbu hududda hayvonlardan — to‘ng‘iz, yovvoyi cho‘chqa, chiyabo‘ri, qushlardan — qirg‘ovul, yovvoyi o‘rdak hamda suvda suzuvchi yovvoyi qushlar, baliqlar mavjud. Hozirgi kunda unda yovvoyi o‘rdak va g‘ozlar ko‘paytirilmoqda, ekoturistlar uchun dunyo talablariga javob bera oladigan mehmonxona qurilmoqda, hayvonlar muhofazasi uchun tegishli sun‘iy to‘siqlar o‘rnatilmoqda.

2006-yilda Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan Jizzax viloyati markazidan 65 km shimoli-g‘arbda joylashgan, baliqlarga boy Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida ekoturizmning baliq ovlash bilan bog‘liq turiga mo‘ljallab, dunyo talablariga javob bera oladigan mehmonxona qurildi. Bundan tashqari, Davlat bionazorati Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida tezkor-reyd tekshirish ishlarining sifatini kuchaytirish hamda ekoturistlarni ko‘l va uning atrof tabiati, landshaftlari, hayvonot va o‘simlik dunyosi bilan yaqinroq tanishtirish



7-rasm. Avdar-Arnasov ko'llar tizimida ekoturistlar uchun yaratilgan sharoitlar.

maqsadida «T-65» markali, uzunligi 17 metr, quvvati 225 ot kuchiga teng bo'lgan kema sotib oldi (7-rasm).

Xulosa qilib shuni aytish joizki, to'g'ri va yaxshi yo'lga qo'yilgan turizm tarmog'i atrof-muhit muhofazasi va biologik xilma-xillikni saqlash hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishda ijobiy natijalarni berishi mumkin.

Nazorat savollari



1. Dunyo turizmida O'zbekistonning o'rnini aniqlang.
2. Yurtimizdagi ekoturlarni yuritish obyektlarini sanab o'ting.
3. Respublikamizda qancha va qayerda qo'riqxonalar mavjud?
4. Qo'riqxonalarda qanday sa'yohlikka ruxsat etiladi?
5. «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonun qachon qabul qilindi?
6. Qizil kitob nima va unda nimalar aks ettirilgan?
7. Qizil kitobga kiritilgan o'simlik va hayvonot dunyosini qanday qilib tomosha qilish mumkin?
8. «Qozon-turizm» da qanday V. Soy nima nazarda tutadi?
9. «Ekosan-tur» qanday kompaniya?
10. Shahar aholisidan kimlar ko'proq ekoturistik sa'yohat qilishadi?
11. Respublikamizning ekoturistik imkoniyatlari qanday baholanadi?
12. Tabiat qo'ynida sa'yohatni kimlar ko'proq qo'llaydilar?


1.10. EKOTURIZM BO'YICHA DUNYO TAJRIBASI

Tabiat qanchalik turli-tuman bo'lsa, ekoturizm ham shunchalik turlichadir. Ularning farqi nafaqat iqtisodiy yoki tabiiy ko'rsatkichlarga, balki mahalliy urf-odatlar va an'analar, ijtimoiy va siyosiy vaziyatga ham bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ekoturizmni tasniflashda ijtimoiy munosabat ko'rsatkichlari muhim ahamiyat kasb


etadi. Mazkur bo‘limda ekoturizmning regional, ya’ni mintaqaviy xususiyatlari ayrim mamlakatlar misolida ko‘rib chiqiladi. Zero, tabiatning xilma-xilligi aynan mintaqaviy darajada ko‘proq farq qiladi va u fanda ekoturizmning geografik jihatlari, deb ataladi.

Mutaxassislarning tahliliga ko‘ra ekoturizmning mintaqaviy farqlari ularning iqtisodiy-ijtimoiy ko‘rsatkichlarini ham belgilab beradi. Masalan, eng rivojlangan mamlakatlar (katta sakkizlik davlatlari misolida) Shimoliy yarim sharda joylashgan. Hisob-kitoblar ko‘rsatishicha umumiy sayyohlarning kelib-ketishi rivojlangan davlatlarda 57 foizni, rivojlanayotgan davlatlarda — 30 foizni va o‘tish davridagi davlatlarda — 1,3 foizni tashkil etadi (8-rasm).

Lekin, ekoturizm geografiyasi umumiy turizmnikidan o‘zgachadir. An’anaviy sayyohlarning asosiy oqimi rivojlangan davlatlardan rivojlanganlariga yo‘nalgan, unda Fransiya, AQSH, Ispaniya, Italiya davlatlari yetakchilik qilsa, ekoturistlar esa ko‘p hollarda rivojlangan davlatlardan rivojlanayotganlariga borishmoqda (9-rasm). Ko‘p turistlarni o‘ziga tortuvchi, ekzotik tabiatli Nepalning osmono‘par tog‘lari, Amazonkaning kishi yurib bo‘lmas tropik o‘rmonlari,



8-rasm. Dunyo bo‘vicha sayyohlarning ko‘navishi.



9-rasm. Dunvo bo'vicha an'anaviy va ekoturistik oqim.

Afrikaning hayvonot dunyosiga boy savannalari bu sohada yetakchilik qilmoqda. Statistika bo'yicha rivojlanayotgan davlatlar orasida Keniya, Tanzaniya, Ekvador, Kosta-Rika, Nepal, tez sur'atlarda yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlarga ega bo'lib borayotgan Avstraliya, Yangi Zelandiya va Janubiy Afrika Respublikasi (JAR) ham yetakchilar qatoridan o'rin olmoqda. Ayrim davlatlardagi ekoturistik holat:

Yevropa mamlakatlari. Ular mo'tadil yoki dengiz ta'siridagi yumshoq iqlim mintaqasida joylashgan. Yevropa jahonning asosiy turistik rayoni hisoblanadi. Turizmning rivoji nafaqat chiroyli tabiati va qulay iqlim sharoiti, balki turistlar uchun yaxshi tashkil etilgan servis bilan ham ajralib turadi. Ekoturistik nuqtayi nazardan Yevropaning aksariyat qismi mo'tadil mintaqada joylashgan bo'lib, faqatgina shimoliy qismi subarktik va arktik mintaqaga, janubiy qismi subtropik mintaqaga kiradi. O'rta yer dengizi atrofi dam olish uchun qulay iqlimga ega uchta yarim orollardan iborat (Pireney, Apennin, Bolqon).

Yevropaning rivojlangan davlatlari va Shimoliy Amerika mamlakatlarining ekoturistlari ko'pincha o'z mamlakatlarida ekoturistik sayohat uyushtirishadi. Bu bilan ular o'z yurti va tabiatiga bo'lgan mehr-muhabbatini kuchaytiradilar. AQSHning milliy bog'lari ekoturistlarning gavjumligi tufayli ularga borish uchun bir yil avval buyurtma berish lozim. Afsuski turistlarning «Ona tabiat» qo'yniga qilinayotgan bosimi doim ham o'zini oqlayotgani yo'q. Chunki tabiatning «dosh berish» mezonini bor. Bu esa yangi rekreatsion hududlarni yaratish ehtiyojini tug'dirmoqda va rivojlangan mamlakatlardagi ekoturistlarni rivojlanayotgan mamlakatlarga «haydamoqda». Ekoturistlar inson «yetib bormagan» tabiatga oshiqadilar. Lekin bugungi kunda bunday hududlarning o'zi yo'q. Nisbatan sivilizatsiyadan uzoqroqda saqlanib qolgan tabiat burchaklari kundan kunga kamayib bormoqda va ular alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga aylantirilmoqda.

Shri-Lanka, Ekoturizmining o'ziga xosligi uning mavsumiyligidadir. Fevral, mart, avgust oylari G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan ekoturistlarning ekvatorga yaqin turuvchi orollarga oqimi ko'payadi. Milliy turistik bozorda sotuvlar oktabrdan boshlanib, maksimal hajmi yangi yil bayramlariga to'g'ri keladi va may oylariga borib pasayib ketadi. Dekabrning oxiri, yanvar oyining birinchi yarmida Shimoliy Yevropadan ekoturistlar soni 30% gacha ortadi. Unda Hind okeani qirg'oqlaridagi go'zal tabiat va kuchli to'liqlardan yuzaga keladigan ekstremal holat ham turistlarni o'ziga jalb qiladi (10-rasm). Rossiyaning «Konmaysans



10-rasm. Shri-Lankaning Hind okeani sohilidagi ekstremal ekotruzimni ialb
ailuvchi to'lainlar.

Trevel» turistik kompaniyasi direktori Irina Ozerova ta'kidlashicha, ekoturistlar tabiat qo'yniga qilingan sayohat bilan cheklanib qolmasdan, orolning markaziy qismida joylashgan Dambulla g'or ibodatxonasi, mam-lakatning eng qadimiy shahri Kandi va boshqalarga bormoqdalar.

Shri-Lankada «yashil turizm» nomini olgan ekvatorial o'rmon-larga borish, qo'riqxonalarni tomosha qilish ham yaxshi yo'lga qo'yil-gan. Mazkur davlatda tabiatni himoya qilishning o'ziga xos milliy an'analari mavjud. Uning tarixida «yovvoyi tabiatni himoya qilish» ga qaratilgan birinchi huquqiy norma miloddan avvalgi III asrda qabul qilingan. Hozirda Shri-Lankaning 12 foizi alohida muhofaza etiladigan hududlar bilan band. Uning tarkibida 3 ta qo'riqxonona va 12 ta milliy bog'lar faoliyat yuritmoqda. Undagi yovvoyi qo'toslar, fillar, timsohlar, echkiemarlar, kiyiklar ekotur obyekti bo'lib xizmat qilmoqda.

Italiya. Ushbu davlatdagi ekoturizmning o'ziga xos xususiyati, uning agroturizm bilan birgalikda olib borilishidadir. Chunki agro-turizmning davlat iqtisodiyotidagi o'rni haqida alohida qonun 1985-yil 5-dekabrda qabul qilingan va shu kun agroturizm tug'ilgan kun hisoblanadi. Italiyaning Kampanya, Pule, Trentino-Alto-Adije,



11-rasm. Italiyadagi manzarali eko va agroturizmni birezalikka olib borish imkoniyatiga ega hududlar.

Marke va Kalabriya kabi provinsiyalarida agroturizm bilan ekoturizm birgalikda olib borilmoqda (11-rasm). Oxirgi 15 yil davomida mamlakatda qishloqda dam olishning mavqeyi yana ko'tariladi. Agar 1985-yilda Italiya 550 ming agro-ekoturistlarni qabul qilgan bo'lsa, 1999-yilda bu ko'rsatkich 1,7 mln ga yetdi. Ular ichida chet mamlakatlardan kelganlar soni 10 foizdan 18 foizga oshdi. XX asrning 80-yillariga qaraganda bu sohada moliyaviy aylanma 7 marotabaga oshdi, ya'ni 85 milliarddan 615 milliard italiya lirasini tashkil qildi. Bu o'rinda hukumatning asosiy diqqati agrar rayonlardan va aholi bandligi muammo bo'lgan janubiy rayonlar — Bazilikate, Pule, Kalabriya, Sitsiliya va Sardiniya kabi provinsiyalarga qaratilgan.

Italiya davlat statistika institutining (ISTAT) bergan ma'lumotlariga ko'ra, 1998-yil oxirida Italiyada agro-ekoturizm bilan shug'ullannuvchi 9718 ta agroxo'jalik ro'yxatdan o'tgan. Bu 1997-yilga nisbatan 14,7% ko'pdir. Mazkur xo'jaliklarning 45 foizi Italiyaning shimoli-sharqiy qismida joylashgan bo'lib, ularning aksariyati Bolsano (27,6%) provinsiyasida joylashgan. Bugungi kunda Italiyada agro-ekosayyohlarni qabul qilish uchun jihozlangan deh-

qon uylarining soni 9 mingta bo'lib, ular bir paytning o'zida 125 ming sayyohni qabul qila oladi. Provinsiyalar orasida Toskana (34%), Umbriya (14%), Sitsiliya (7%) yetakchilik qilmoqda.

Agroxo'jaliklar turistik xizmat ko'rsatish bo'yicha 3 turga bo'linadi — tabiat va sog'liq, an'anaviy agrolandshaft, agrosport. Ularning birinchi kategoriyasi qishloq xo'jaligi va ekoturizmni birlashtirgan holda olib boradilar. Ular Kyanti, Umbriya, Sitsiliya provinsiyalari hamda mineral suvlar manbai, qo'riqxonalar va milliy bog'lar atrofidagi hududlarda joylashgan.

Sayyohlarning xonadonda, maxsus qurilgan alohida uylarda yoki apartamentlarda joylashish imkoniyatlari bor. Agro-ekoturistlarning xo'jaliklarning apartamentlarda joylashuvi — 44%, xonadonlar va apartamentlarda — 22%, faqat xonadonlarda — 30%, 4% esa ochiq havoda, ya'ni chodirlarda yashashni xohlovchi mehmonlardir.

Alp tog'i mintaqasidagi mamlakatlardagi kabi, Italiya dehqonlari xonadonlarida sayyohlarni qabul qilishda yagona tarif tizimi amal qiladi va ularda ko'rsatilishi mumkin bo'lgan xizmatga qarab «gul» belgisi uy oldiga ilib qo'yiladi. Mamlakatdagi ko'pgina agroekozizmatlar (85% atrofida) 2—3 «gulli» xizmat darajasidagi xonadonlardir. Ularda yashash narxi 25 dan 60 ming lirgacha (o'rtacha \$13—\$35). 5 «gulli» xonadonlarda xizmat haqi o'rtacha 50 ming lirdan (\$30) boshlanadi. Dehqon uylarida yashash haqi mavsumiy hisoblanib, «A» darajadan (bazaviy) to «D» mavsum tig'izligigacha ko'tariladi. Davrlar orasidagi vaqt turli mintaqalarda turlichadir. Misol uchun Toskana provinsiyasida, qoida bo'yicha, yashash uchun boshlang'ich narxlar fevral oxiridan aprel oyining boshlarigacha hamda oktabr oxirlaridan dekabr o'rtalarigacha hukm suradi. Bu yerda «V» davr aprel oyining boshlaridan may oyining o'rtalari hamda sentabr o'rtalaridan oktabr oyining oxirlariga to'g'ri keladi. «V» davrning boshlang'ich narxlari «A» darajaga ko'ra 125% atrofida qimmatroqdir. «S» davri may oyi oxirlaridan sentabr oxirlarigacha davom etib, u «A» ga nisbatan 140% ga qimmatroq. Dekabr oxirlari — yanvar boshlarida yangi yil — rojdestvo munosabati bilan narxlar 155% atrofida qimmatlashadi.

Italiyaning janubida vaziyat birmuncha boshqacharoq. Yashash uchun boshlang'ich narxlar Shimoliy Italiyaga nisbatan 7—10% arzonroq bo'lib, Kalabriya, Bazilikate, Pule, Sitsiliya va Sardiniyada faqat ikki davrga ajratiladi: «A» (yanvar o'rtalari, aprel boshlari-

dan — may oyining boshlarigacha hamda oktabr boshlaridan dekabr o'rtalarigacha) va «V» davrda xizmat ko'rsatish narxlari 10—15% gacha oshadi.

Deyarli hamma provinsiyalarda agroekoturistik xizmat yosh bolalarga va yoshlarga mo'ljallangan chegirmalar asosida ish yuritadi. Qoida bo'yicha 2 yoshgacha bolalarga yashash bepul, 3 dan 12 yoshgacha bolalarga 20% gacha chegirmalar, ya'ni arzonliklar mavjud.

Estoniya. Boltiq bo'yi mamlakatlaridan bo'lmish Estoniyada inson qo'li deyarli tegmagan tabiat burchaklari mavjud bo'lib u asosan qo'riqxonalarda uchraydi (12-rasm). Ekolog olimlarning e'tirof etishlaricha, Kingisepp rayonida keyingi paytlarda ekologik turizmning rivojlanishi mahalliy aholi tomonidan rivojlantirib kelinmoqda. Davlat tomonidan esa, afsuski, hech qanday qo'llashlar bo'lmayapti. Hozirda turistik sohaning ekologik sektori rivojlanishi tendensiyasi o'sib bormoqda. Bu o'zgarishlar faqatgina ekologik turizm xalqaro ilmiy dasturlarining yoyilishigina emas, balki hukumatning bunday afzal turizm turini tushunib yetishidadir. Chunki ekoturizm rayonning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilishda, tabiatini muhofaza qilish va milliy madaniyatni rivojlantirishga ko'mak beradi.



12-rasm. Fin ko'rfazidagi ekoturizm obvekti.

Estoniyadagi mintaqalarni ekoturizm orqali barqaror rivojlantirishda Fin qo'ltig'i, Luga hamda Narva daryolari eng qulay joylar hisoblanib, ularda ajoyib manzarali landshaftlar ko'p. Bu yerda «yashil»sayyohlarni eng qiziqtirgan narsa bu Fin qo'ltig'i akvatoriya-sida joylashgan orollar — Gogland, Katta va Kichik Tyuterlar, Moshniy, Seskar va boshqalar. Orollar foydalanuvchisining huquqiy maqomi aniq qilib o'rnatilmaganligi tufayli hanuzgacha ulardan ekoturistik maqsadlarda foydalanish imkoniyati cheklangan. Faqatgina Kingisepp rayonining ma'muriyati o'ziga tegishli oroldan turistik va rekreatsion maqsadda foydalanish dasturlarini ishlab chiqmoqda.

Kurgal buyurtma qo'riqxonasida joylashgan Lipovskoye va Beloye — tabiatan toza ko'llar, ekoturizm uchun topilma bo'ldi. Ular ham tadqiqot, ham rekreatsion (litsenziyalashtirilgan ov va baliq ovi) nuqtayi nazaridan qiziqarlidir. Ko'llarga yaqin hududlarda yashovchi fermerlar ekoturizmni rivojlantirish uchun kerakli amaliy va moddiy-texnik bazaga egadirlar.

1999-yil Baltika tabiat fondi tashabbusi, Gollandiya Qishloq xo'jaligi vazirligi va Tabiat hamda baliqchilikni nazorat qilish boshqarmasining moliyaviy ko'magi bilan Estoniyaning Kingisepp rayonidagi qirg'oq zonalarida Umumyevropa Kodeksi prinsiplarini moslashtirish loyihasi amalga kiritilmoqda. Ekspertlar guruhiga Kingisepp rayonidagi alohida



muhofaza etilayotgan tabiiy hududlarni ko'rib chiqish topshirilgan. Natijada u yerlarda Umumyevropa prinsiplariga amal qilinadigan ekoturistik harakatlar boshlanadi.

Turizmning ekologik yo'nalishi **Kavkaz va Pomir tog'li o'lkalarida** ham rivojlanmoqda. Ekoturizm ushbu tog' tizmalarini qamrab olgan davlatlarga va mahalliy aholiga muayyan miqdorda qonuniy daromadlarning kirib kelishiga xizmat qilmoqda. «Qonuniy daromad» deya alohida ta'kidlashga sabab, ushbu o'lkalarda XX asrning oxirida noqonuniy xatti-harakatlar vosita-

sida sarmoya to'plash avjiga chiqqan edi. Lekin, afsuski, Kavkazorti davlatlarida, Qirg'iziston va Tojikistonda ekoturizm tabiiy turizmga aylanib ketmoqda. Buning oqibatida tabiat qo'yniga qilingan sayohat nozik tog' ekotizimlariga tiklab bo'lmas darajada moddiy zarar keltirmoqda. Ayniqsa mazkur jarayon XX asrning 80-yillarning oxiri, 90-yillarning boshida avj olgan. Sobiq SSSRning parokandalikka uchrashi, ekologik nazorat va javobgarlikni yo'qqa chiqardi. Yangi mustaqil davlatlar, uyushmalar va shaxslar maksimal darajada «muloyim tabiatdan» foydalanib qoldilar. Natijada Kavkazorti va Pomir-Oloy tog'li hududlarining 40 foizi ekologik xavfli holatga kelib qoldi.

XXI asrda xalqaro tashkilotlarning aralashuvi tufayligina ushbu mintaqalarda tabiiy turizm ekoturizm darajasiga olib chiqilmoqda. Mustaqil davlatlarning turli ekologik tashkilotlarga a'zo bo'lib kirishlari, milliy huquq normalarini ishlab chiqishlari, ekologik monitoring va boshqaruv mexanizmini yaratishlari ekologik xavfsiz vaziyatni sekin-astalik bilan yuzaga keltirishga olib kelmoqda. Bunga misol qilib, 1997-yil 26-dekabrda qabul qilingan Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish, O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlarini olish mumkin. Kavkazorti davlatlarida ekoturizmni rivojlantirish maqsadida avvalambor quyidagi dolzarb masalalarni hal qilishga kirishildi:

1) alohida muhofaza qilinadigan hududlar bo'yicha ekoturist mutaxassisliklarni tayyorlash;

2) ekoturistik servisni mahalliy, milliy va xalqaro miqyosda yo'lga qo'yish;

3) birinchi navbatda moliyaviy mablag'lar va investitsiyalar kiritilgan tabiiy atrof-muhit unsurlarini saqlab qolish.

Mazkur vazifalarni amalga tatbiq qilish maqsadida, ya'ni ichki va tashqi turistlarni jalb qilish uchun Gruziyada — Tusheti, Lagojeki, Vaslovaniy, Ozarbayjonda — Shox-dog', Armanistonda — Sevan ko'li, Delijon ekoturistik obyektlari hamma tomonlama tadqiq qilindi. Ulardagi tadbirkorlik faoliyati turistik mahsulotlarni yuqori darajada tashkil etish va mazmunan ularni anglashga qaratilgan edi. Barcha Kavkazorti ekoturistik markazlarda narxnavo sayyohlik mavsumiga va talabiga qarab farqlanadi. XX asrning 70—80-yillarida milliy turistik marketing xizmatining maqsadi — asosiy iste'molchini aniqlashdan iborat bo'lsa, 90-yillarning ik-

kinchi yarmiga kelib ular ekoturistik infrastrukturani shakllantirish ustuvor vazifaga aylandi, ya'ni ekologik sayyohlarni joylashtirish, ularning ekologik xavfsizlik darajasidagi yo'l harakatlarini ta'minlash, yovvoyi tabiatning uzoq hududlariga elektr olib borish va oziq-ovqat bilan ta'minlash. Ekoturizmdan kelib tushgan daromadlarni taqsimlashda turli uyushmalarning tuzilishi juda qo'l keldi. Masalan, ekoturizmdan ***mahalliy miqyosda tushgan daromad quyidagicha taqsimlandi:***

— *Mahalliy gidlar va xizmat ko'rsatish xodimlari o'rtasida;*

— *Ovqatlanish, dam olish, ko'ngil ochar uchrashuvlarni o'tkazish, turistlarni va yuklarni tashish o'rtasida;*

— *Suvenirlar tayyorlovchi hunarmandlar o'rtasida.*

Mintaqaviy va milliy miqyosda ekoturizmdan tushgan daromadning taqsimlanishi:

— *Avia va temir yo'l transport xizmatlari o'rtasida Avtotransportlarni ijaraga beruvchilar o'rtasida;*

— *Mahalliy tur operatorlar o'rtasida;*

— *Asosiy shaharlardagi mehmonxonalar o'rtasida.*

Ekoturizmdan tushgan daromadlarni Gruziya misolida ko'rib chiqsak: 17% ekoturistlarni mazkur davlatga jo'natayotgan va milliy ekoturizmni investitsiyalayotgan chet el kompaniyalari; 19% ekoturistlarga xizmat ko'rsatayotgan mahalliy aholi; 44% milliy davlat tashkilotlari o'rtasida taqsimlangan.

Qirg'izistonda turizm, jumladan ekoturizm davlat dasturi qabul qilingandan so'ng jadal sur'atlarda rivojlana boshladi. Bunga birinchidan, tog'li hududlarda yovvoyi tarzda saqlanib qolgan juda katta maydondagi tabiat komplekslari va uning komponentlari, ikkinchidan xususiy turizm va unga xizmat ko'rsatish sohasining xususiyashtirilishi sabab bo'ldi.

Qirg'izistonda ekspertlar turistlarni quyidagi guruhlariga bo'ladilar:

— Mamlakatga ekoturistik guruhlar sifatida kelayotganlar;

— Qushlarni kuzatish maqsadida kelayotgan turistlar;

— Tabiati bilan mushtarak bo'lgan milliy madaniyat va an'analar muxlislari;

— Tog'larda yayov yoki otlarda sayr qiluvchi ekoturistlar;

Ekzotik tabiatda baliq ovchiligi ishqibozlari.

Umuman olganda milliy va mahalliy miqyosda ekoturizmni rivojlantirish uchun xorij tajribasini o'rganish, ularni tahlil qilish va mahalliy sharoitga moslashtirish maqsadga muvofiqdir.

Nazorat savollari



1. Nima uchun ekoturizm bo'yicha dunyo tajribasi o'rganiladi?
2. Ekoturizm mahalliy yoki milliy ahamiyat kasb etadimi?
3. Qaysi davlatlarda ekosayohatchilar ko'pchilikni tashkil etadilar?
4. Qaysi mamlakatlarda yoki davlatlarda ekoturizm kuchli rivojlangan?
5. Yevropadagi ekoturizmning boshqa qit'alardagi ekoturizmdan farqi bormi?
6. An'anaviy turistik va ekoturistik oqim qanday sur'atlarda rivojlanmoqda?
7. Shri-Lankada ekoturizmning qanday turlari (qaysi hududlar)da rivojlangan?
8. Okean bo'yidagi davlatlarda ekoturizmga xavf soluvchi omillar nimalardan iborat?
9. «Italiyacha ekoturizm»ning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
10. Agroekotur bilan ekotur o'rtasidagi farq nimada?
11. Italiyada qishloq aholisi ekoturlarga qanday jalb etiladi?
12. Ekoturlarning narxi qanday ko'rsatkichlarga bog'liq?
13. Estoniyada ekoturizmning holati qanday?
14. Tog'li o'lkalarda ekoturistik imkoniyatlar qanday?
15. Nima uchun yangi mustaqil davlatlarda ekoturizmga katta e'tibor berilmoqda?
16. Ekoturizmdan tushgan foyda Kavkazorti davlatlarida qanday taqsimlanadi?
17. Qirg'izistonda ekoturizm holati qanday?

1.11. EKOTURIZMNING KELAJAK ISTIQBOLLARI

Butunjahon turistik tashkilotining (BTT) bashoratiga ko'ra, 2020-yilga borib Xitoy dunyoda turistik yo'nalishda oldingi o'ringa chiqib oladi. Bugungi kunda ushbu mamlakat 22 mln sayyohlarning tashrifi bilan oltinchi o'rinni egallagan va dunyodagi kuchli beshlik — Fransiya, AQSH, Ispaniya, Italiya va Buyuk Britaniyadan o'tib ketish arafasida. Agar har yili turistlar soni 8 foizga o'sib borsa Xitoyda sayyohlarning tashrifi 20 yildan so'ng 137 mln ga yetishi ko'zda tutilmoqda. Gonkong (Syangan) shahrining o'zidayoq ularning soni 59 mln ga yetishi mumkin. Ekoturizm ham bundan mustasno emas. Unda turizm bilan birga ekoturizm hozirgi sur'atlarda rivojlansa, faqatgina Xitoyning o'zida 35—40 mln tashqi turistlar oqimi kuzatilishi mumkin.

Dunyo bo'yicha eng yirik «Buyuk ipak yo'li» loyihasi qatnashchilari oldida tashrif buyuruvchilar yuqori bo'lgan davlatlarga kirgan turmahsulotlarni ishlab chiqish masalasi turibdi. Bunda turistik marshrutlar quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: Germaniya — O'zbekiston — Xitoy, Fransiya — Qozog'iston — Xitoy va hokazo. Agar aviata-shishlardan tashqari sayyohlarning kundalik harajatlari 5 mlrd AQSH dollarga chiqishi hisobga olinsa, ushbu foydaning bir qismi O'zbekiston Respublikasiga tegishli bo'lishi mumkin. Xalqaro ekspertlarning baholashlariga ko'ra, 2020-yilga kelib sayyohlarning asosiy qismi an'anaviy mamlakatlarga tashrif buyurishadi. Biroq, ularning bir guruhi o'zlariga yangi bo'lgan marshrutlarni o'zlashtirishga harakat qiladilar. Hisob-kitoblarga ko'ra, uzoq masofaga borish umumiy sondan 24% ni tashkil qiladi (hozirda bu ko'rsatkich 18% tashkil qilmoqda). BTT eksperti Z.Kleverdonning fikricha, «odamlar borgan sari uzoq-uzoqlarga sayohat qilishib, o'zlarining ta'tillarini bir necha bosqichga bo'lishadi, bunda uning davomiyligini o'zgartirishmaydi».

Rio — 92, Yoxannesburg — 2002, Kvebek — 2002 xalqaro anjumanlarida qabul qilingan hujjatlarning mazmun va mohiyatidan kelib chiqqan holda O'zbekistonda ekologik turizmga mahalliy aholining ishtirokini tadbirkorlik asosida jalb qilish dasturi ishlab chiqilmoqda. Bu o'rinda TESIS tomonidan moliyalashtirilgan G'arbiy Tyan-Shan rezervatining biologik xilma-xilligini saqlashga doir xalqaro (Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston Respublikalari) davlatlararo, tabiiy muhitni muhofaza qilishga yo'naltirilgan Xalqaro bankning GEF dasturlari tahsinga loyiq.

O'zbekistonda 38 mln gektardan ortiq maydonda ovchilik — baliqchilik yer maydonlari, jumladan, 1.0 mln gektar suv fondi yerlari mavjud. Respublikamiz faunasi 97 turdagi o'txo'r hayvonlar, 424 turdagi qushlar, 58 turdagi sudralib yuruvchilar va 83 baliq turlariga ega. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Botanika instituti ma'lumotlariga qaraganda, O'zbekistonda hozirgi kunda 4100 dan ortiq o'simlik turlari mavjud bo'lib, ulardan 9% endemiklar, ya'ni faqat bizning yurtimizga xosdir. Bulardan tashqari, O'zbekiston Osiyoning qoq markazida, joylashgani bois ekoturizm rivojlanishi uchun qulay geoturistik sharoitga ega. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra vatanimizda nodir umuminsoniy arxeologik topilmalar, paleontologik qoldiqlar, dunyoda juda kam uchraydigan geologik kesmalar, 8000 dan ortiq tabiiy yodgorliklar mavjud¹.

¹ O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan foydalanishning holati to'g'risda Milliy ma'ruza. — T.: Chinar ENK, 2006.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi Davlat bionazorati «Tabiiy hududlarni muhofaza qilish»bo'limi «Jayron ekomarkazi»ning 30 yillik faoliyatiga, jayronlar, prjevalskiy zotli otlar, qulonlarni saqlash va ko'paytirish, ularning etalogiyasi, biologiyasi, fiziologiyasini o'rganish hamda ekoturizmni rivojlantirish maqsadida «Jayron ekomarkazi» ga qo'shni, ochiq cho'l hududida joylashgan 27300 gektar yerni tashkil etgan markaz tajriba uchastkasini milliy tabiiy bog'ga aylantirishga bag'ishlangan buklet-broshura 3 til (o'zbek, rus, ingliz) da chop etdi.

Yuqorida qayd etilgan turistik ko'rsatkichlar yurtimizda ekoturizm imkoniyatlari nihoyatda katta hamda salohiyati bo'yicha dunyo ekoturizm industriyasida yuqori o'rinlarni egallasa-da, lekin amalda O'zbekistonda bu salohiyat va imkoniyatlardan to'la-to'kis foydalanish uchun chora va tadbirlar yetarli darajada amalga oshirilgan emas.

Bunga misol tariqasida, Jahon Turistik Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonga 2005-yilda 262 ming turist kelib ketgan, amalda esa O'zbekiston turistik resurslari har yili 1 mln dan ortiq turistlarni qabul qilish imkoniyatiga ega.

«O'zbekturizm» Milliy Kompaniyasi ma'lumotlariga ko'ra, 2005-yilda turistik xizmatning hissasi O'zbekiston Yalpi Milliy mahsulotining bor yo'g'i 0,6% tashkil etdi. O'zbekistonda ekologik turizmning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillaridan biri muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda ekoturistlar uchun qulay ekoturlarning yaratilmaganligidir.

— 2006-yil 17-aprelda Prezident Islom Karimovning «O'zbekiston Respublikasida 2006—2010-yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi 325-sonli qarori qabul qilindi. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti olimlari bilan birgalikda «O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish konsepsiyasi»ni ishlab chiqdi.

— Ekoturizm O'zbekistonning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish sohasida katta ahamiyatga ega. Bu tarmoqni rivojlantirishdagi asosiy yo'nalishlar xorijiy sayyohlarni Ona vatanimizning landshafti, hayvonot va o'simlik dunyosiga boy va betakror tabiati bilan tanishtirish, xalqlar o'rtasidagi do'stlik aloqalarini bog'lash, mamlakatlar va turli xalqlarning bir-birlarini kengroq bilishlari, qirilib ketish arafasida turgan noyob hayvonot va o'simlik dunyosini saqlash va ko'paytirish maqsadida qo'riqxonalar (Surxon, Nurota, Hisor, Ba-

day-To'qay, Zarafshon, Qizilqum, Chotqol, Zomin, Kitob), parvarishxonalar («Jayron ekomarkazi», Sayxun xo'jaligi) tarkibida va atrofida dunyo talablariga javob bera oladigan milliy tabiiy bog'larni yaratish loyihalarini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish orqali muhofaza qilinadigan hududlarda ekoturizm obyektlarining moddiy-texnik bazasini yaratish uchun qo'shimcha chet el investitsiyalarini keltirishdan iborat. Shu vazifadan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tarkibida «Ekoturizm» ilmiy-iqtisodiy Markazini tuzish maqsadga muvofiq,

Ekologik turizm oqilona rivojlantirilsa, u ekologik inqiroz va talafotlarning yechimini topishda juda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Buning uchun bugungi kunda mamlakatimizda tabiiy resurs yetarli. Ulardan o'ta samaradorlik bilan foydalanish ekoturizmning ham boshqa sohalar kabi gullab-yashnashida muhim o'rin egallaydi. Bu masalaning muvaffaqiyatli hal etilishi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy muammolarning va ekologik ta'limning sivilizatsiya darajasida hal etilishi bilan bir qatorda atrof-muhitni muhofaza qilishga olib keladi. Masalan:

— jamiyat tomonidan tabiiy atrof-muhit bilan bog'liq muammolar hamda ekotizimlarni asrab-avaylash zarurligi tushunib yetilmoqda. Shu bois bunday yutuqqa erishish uchun barcha sa'y-harakatlar 2 yo'nalishda olib borilmoqda va bu an'analarni davom ettirish, takomillashtirish zarur. Hozirda bu tarmoqqa daxldor barcha fondlar faoliyati va dasturlar bir tomondan tabiatni asrashga, ikkinchi tomondan esa ekoturizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Shu o'rinda Orolni qutqarish fondi amalga oshirayotgan tadbirlar ham e'tiborga sazovor. Bu fond Orol fojeasini tadqiq qilish bilan bir vaqtning o'zida uni tiklash bo'yicha investitsiyalarni ham jalb etmoqda. Shu maqsadda o'tkazilayotgan biznes-turlar, ilmiy kongress — turlarda ko'plab chet ellik turistlar ishtirok etmoqdalar;

— yerlardan foydalanishdagi yangicha yondashuvlarning vujudga kelishi. Ko'plab davlatlar zarari katta ishlab chiqarish tarmoqlarini ekotizimlari zaif yerlardan uzoqlashtirish hisobiga u yerlarda ekologik turizmni rivojlantirishga harakat qilmoqdalar. Natijada tabiiy muhitning ifloslanishining oldi olinmoqda;

— ekoturizmda yangidan-yangi obyektlar bo'ylab sayohat turlarini izlab topish va qiziquvchilarni jalb etish zarur bo'ladi. Masalan, qovun pishig'i davrida polizlar bo'ylab, paxta yig'im-terim

davrida paxta dalalariga yoki boshqacha sayohatlarni uyushtirish. Hozirda Norvegiyada qulupnay, Fransiyada vino tayyorlash plantatsiya (uzumzor)lari bo'ylab turistik sayohatlar muntazam ravishda uyushtirilishi odat tusiga kirib qolgan.

Turistik sohaning rivojlanishini baholash uning kelajak istiqbollarni rejalashtirishga imkon yaratadi. To'g'ri va aniq belgilangan bashorat O'zbekistonning demografik va ijtimoiy holatni tahlil etish, balki tashqi va ichki siyosat, integratsiya, ekologik vaziyat, fuqarolarning xavfsizligi kabi bir qator dolzarb masalalarni hal qilishga olib kelishi mumkin. Masalan, hozirda BTTning 2020-yilgacha bo'lgan istiqbol rejalarida yangi mustaqil davlatlarning turistik imkoniyatlaridan keng va atroflicha foydalanish birlamchi masalalar qatoridan joy olgan. Zero O'zbekiston kabi o'lkalarda nafaqat tarixiy, balki uning betakror tabiati bilan bog'liq bo'lgan sayyohlik imkoniyatlari juda katta.

Ekoturistik muammolarning yechimini topish uchun olimlar va mutaxassislarning o'zaro hamkorlik aloqalarini kengaytirish, qulay huquqiy makonni yuzaga keltirish va albatta, 2002-yilda qabul qilingan Kvebek deklaratsiyasidagi ko'rsatmalarni bosqichma-bosqich amalga tatbiq etib borish zarur bo'ladi.

Savohat inson tafakkuri va dunyoqarashini kengaytiradi.

Mutafakkirlar bisotidan

II. AMALIY QISM

2.1. EKOTURISTIK MARSHRUTLAR TUSHUNCHASI VA MAZMUNI

Ekoturistik marshrutlar yoki ekoturistik deyarli hamma ekoturistik sayyohlikning asosi bo'lgani uchun ham uning tushunchasi va mohiyatini bilib olish zarur.

Ekoturistik marshrut — sayyohlarning muayyan yo'nalish bo'yicha tabiat bilan bog'liq bo'lgan dam olishi, sport bilan shug'ullanishi, sog'lomlashishi, ma'rifiy-ma'naviy (umumtarbiyaviy) ishlarni amalga oshirish kabi maqsadlarni ko'zlagan ekologik yo'sindagi harakatlari.

Ekoturistik marshrutlar tushunarli va ommabop bo'lishi uchun turning konsepsiyasi (dunyoqarashi) to'raligicha yoritib berilishi, sayohatning ijobiy tomonlarini namoyon qilishi, servis va qulayliklarning optimal xususiyatlarini belgilab berishi kerak. Uning turli maqsadda, turli yoshdagi yoki ijtimoiy holatdagi kishilarning imkoniyat darajasiga qarab amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Ko'pgina holatlarda ekoturistik marshrutlar qiziqarli, keng ko'lamliligi va daromadli bo'lishi uchun ular boshqa turdagi turistik marshrutlar bilan qo'shib olib boriladi.

Masalan: «Yelena-tur» turistik firmasining «*Pskom tizmasi bo'yilab*» otlarda amalga oshiriladigan 2 kunlik ekoturistik marshruti etnografik turizm bilan «biriktirilgan»:

1- kun. Toshkentdan tog'dagi Burchmulla qishlog'iga yetib borish (120 km, 2 soat), mahalliy aholining turmush tarzi va hayoti bilan tani-



shish. Chorvoq suv omborida dam olish va cho'milish. Yakkatut qishlog'i xonadonlaridan birida tunash (a.b. 900 m).

2- kun. Chovod soyining yuqori qismiga otlarda sayohat qilish. Kelinchak (a.b. 2355 m) dovoniga ko'tarilish. G'arbiy Tyan-Shan tog' tizmalari bilan o'ralgan Chorvoq suv omborini yuqoridan turib tomosha qilish. Nanay qishlog'idan (a.b.880 m) Pskom daryosi vodiysiga tushish. Mahalliy aholi xonadonida to'xtash. Kechki tomon Toshkent shahriga Sijjak orqali qaytib kelish (120 km, 2 soat).

Trekking — «Kulsoy yo'lkalari bo'ylab»:

1- kun. Toshkent shahridan tog'dagi Burchmulla qishlog'iga yetib borish (120 km, 2 soat). Xonadonga yoki chodirlarga joylashish. Chorvoq suv ombori qirg'og'ida dam olish.

2- kun. Erta bilan qishloqdan marshrut bo'ylab yo'lga tushish. Qiyaligi uncha katta bo'lmagan Tiksoy dovoniga (a.b. 1560 m) ko'tarilish (1 soat 30 daqiqa). Chorvoq suv ombori, Ovqashqa, Katta Chimyon (a.b. 3309 m), Kichik Chimyon (a.b. 2099 m) cho'qqilarini tomosha qilish. Chorvoq suv omborining qirg'og'ida dam olish. Oqshom Toshkent shahriga qaytib kelish (120 km, 2 soat).

Hozirgi kunda qoidaga kirib qolgan holatlardan biri, har bir ekoturistik marshrutning ichki mazmunini belgilash uchun avval uning maqsadi, ekotur o'tkazilishi kutilayotgan obyekt, undagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari o'rganiladi. Ayrim mutaxassislar¹ ekskursiyalarni o'tkazishdan avval quyidagi amallarni bajarishni tavsiya etadilar:

— shaharlar bilan uning atrofidagi joylar, qishloq joylari va tabiiy landshaftlar aloqadorligini aniqlash;

— tabiiy atrof-muhitga, landshaftlarga, tabiatdan foydalanish tarixiga e'tiborni qaratish;



¹ А. Таксанов. Азбука туризма. — Т.: 2005. с. 39—41.

— kishilar faoliyati ta'siri ostidagi landshaftlarning hozirgi ko'rinishi va kelajak istiqbollariga, ya'ni dinamik holatiga e'tiborni qaratish;

— landshaftlarning ekologik holatini ijobiy tomonga o'zgartirish yo'llarini ishlab chiqishni rejalashtirish;

— alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar turi va ularning maqomini aniqlashtirish;

— sayohatchilarning ekologik ongi va madaniyatini ko'tarishning yechimini topish.

3-jadval. Ekoturistik marshrutlarning nazorat varag'i
(A. Taksanov)

Ko'rsatkichlar	Turlar	Misollar
Marshrut nomi va turi	O'quv-o'rganish Ma'naviy-ma'rifiy Jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish Etnografik va h.k.	Xumson qishlog'i atrofidagi tog'larga «Kumush ko'za afsonasi»
Kimlarga mo'ljallangan	Yakka tartibda Guruhlarga Yoshlarga Nafaqaxo'rlarga va h.k.	Guruhlar bo'yicha (2 kishining nazorati ostida)
Guruhlarning optimal soni, kishi hisobida	Kamida 3 kishilik 10 kishigacha 10—15 kishilik 15—25 kishilik va h.k.	17 yoshdan kam bo'lmagan kishilarga
Marshrut davomiyligi, kun	7 soatgacha 7soatdan 14 soatgacha 1 sutkalik va h.k.	8 soatlik 5 ta 15 daqiqalik dam olishi bilan
Marshrut uzunligi, km	5 km gacha 5—10 km 10 km ortiq va h.k.	2 yo'nalishdagi uzunlik — 24 km.
Agar marshrut darajalarga ajratilsa uni ko'rsatish lozim	Yengil O'zlashtirish mumkin Og'ir Juda og'ir	O'zlashtirish mumkin
Davriylik	Bahor Yoz Kuz Qish Yil davomida	Yoz

3-jadvalning davomi

Ko'rsatkichlar	Turlar	Misollar
Qo'llanadigan transport turi	Velosiped Qayiq Otlar Paraplan Jiplar va h.k.	Otda
Harakat turi	Yayov Chang'ida Velosipedda Suv orqali va h.k.	Otda va yayov
Kerakli anjomlar	Shaxsiy Ijaraga olinadi	Shaxsiy
Joylashish sharoitlari	Mehmonxona Xonadonlar, mehmonxonalar Xususiy xonadonlar Turbaza Chodir	Xususiy xonadonda
Marshrutlarda ovqatlanish	Xususiy paket Umumiy ovqatlanish joyi	Nonushta — uyda, tushlik — to'xtash joyida, kechki ovqat xonadonda. Yo'lda xususiy paket (mineral suv va quruq mevalar)
Asosiy tomosha qilish obyektlari	Tog'lar, ko'llar, daryo va soylar, o'simlik va hayvonot dunyosi, landshaftlar, qurilishlar va h.k.	Kan'on, ziyoratgoh tog' landshaftlari, noyob o'simlik va hayvonot dunyosi
Mutaxassislar	Gid — ekskursovod Oshpaz Tarjimon Otboqar, oshpaz va h.k.	Gid — tarjimon va otboqar
Xizmat narx-nuvosi	O'zbek so'mi Amerika dollari Yevro va h.k.	Har bir sayyohdan 40 amerika dollari
Olib borilgan marshrutlar	Marshrutlarda qatnashgan sayyohlar soni	25 kishi
Marshrut pasporti	Marshrut sxemasi va sertifikati Rasmlar va fotografiyalar Kartalar	Sxema va sertifikatlar bor
Klm ekoturistik xizmatni taklif etadi	Firma, Xususiy tadbirkor va h.k.	«Yelena-tur» firmasi

Ekoturistik marshrutlarni ishlab chiqishda sayyohlik obyektining relyefi, tuprog'i, tog' jinslari, yer osti va usti suvlari, iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosi haqidagi ma'lumotlarni mukammal o'rganish maqsadga muvofiq. Qo'shimcha ma'lumot sifatida joyning ekotizimlari, tabiatni muhofaza qilishga oid olib borilayotgan tadbirlar hamda alohida muhofaza qilinadigan hududlarning huquqiy maqomi to'g'risidagi axborotlar berilsa turistik marshrutlar haqiqiy ekologik yo'naltirilgan bo'ladi. Ekoturlarni o'tkazishda 3-jadvalda ko'rsatilgan marshrut chizmalari va unga oid ma'lumotlar bo'lishi talab etiladi.

Jadvalda keltirilgan talablar majburiy emas, balki tavsiya kuchiga ega. Ushbu ko'rsatkichlar, turlar yoki misollar ekoturlarni tashkil etayotgan firma yoki shaxslarning holati, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlari hamda sharoitlariga qarab turlicha bo'lishi mumkin.

2.2. EKOTUR TALABLARI VA TAVSIYALARI

Boshqa turizm turlaridan farqli ravishda ekoturizmدا noqulay tabiiy sharoitlarda ham ekoturlar olib borilganlari bois ko'zda tutilgan yoki tutilmagan turli salbiy holatlarga duch kelib qolish mumkin. Shuning uchun ham ekoturistik marshrutlarda ishtirok etuvchilarning barchasiga, hech qanday istisno-siz, majburiy talab va qoidalar belgilanadi. Ularni bajarish nafaqat sayyohlarning, balki tabiiy muhit unsurlari va komplekslarining, tashkilotchilarning hamda mahalliy aholining xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ekoturistik marshrutlarni ishlab chiqish, ularni e'lon qilish va o'tkazishda, albatta ekoturizmning tub mazmuni va mohiyatini tushuntirib o'tish kerak. Iloji bo'lsa yozma ravishda reklama va e'lonlarda ekoturizm bu insonlar yashab turgan tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan turizm ekanligi, ekologik sayyohlik qilish uchun kishilarning qilgan sarf-xarajatlari oxir oqibatda ularning turistik marshruti orqali ma'lum darajada tabiatga yetkazgan zararlarini qoplash uchun sarflanishini tushuntirish lozim. Shundagina biz ekologik sayyohlikning maqsadini teranroq anglaymiz.

Ekoturistik marshrutlardagi talablarni 3 qismga ajratib izohlash mumkin:

1. Ekoturistik marshrutlarga chiqishdan avval ekoturistik tashkilotlar va ekoturistiklar uchun qo'yiladigan talablar.

Ekoturistik tashkilotlarga:

— ekoturistik marshrutlarning ekologik yo'naltirilganligini aniqlash, tegishli tabiiy sharoitlarni har tomonlama o'rganib chiqish;

— ekoturistik marshrutlarni ishlab chiqish va uni tabiatni muhofaza qilish bo'yicha tuman yoki shahar bo'linmalarida tasdiqlatish;

— sayohatchiar uchun shaxsiy va ekologik xavfsizlik yo'riqnoma-larini ishlab chiqish va ularga oid ko'rsatmalarni chop etish;

— sayohatchilarni yo'riqnoma bilan tanishtirish va ularning tegishli talablar bilan tanishganliklari haqidagi tasdiqlovchi hujjatni rasmiylashtirish va h.k.;

— ekoturizmning ilg'or tajribalari bilan tanishtiruvchi video va teleko'rsatuvlarni namoyish etish;

— doimiy aloqa vositalarini tayyorlash;

— profilaktika nuqtayi nazardan salbiy xarakterdagi (inson tomonidan tabiatga yetkazilgan zarar va talafotlar yoki aksincha tabiiy ofatlarning inson uchun zararli oqibatlar aks ettirilgan) video va teleko'rsatuvlarni ham namoyon etish va h.k.

Ekoturistlarga:

— o'z imkoniyatlari, ya'ni salomatligi, yosh jihatlari, ijtimoiy faolligi, jamoa bilan qo'shila olishi kabi holatlarni to'g'ri baholash va shunga yarasha ekoturistik marshrutni tanlash;

— ekoturistik tashkilotlar ko'rsatmalarining barchasiga qat'iy amal qilish;

— tegishli yo'riqnomalar va ko'rsatmalarni talab qilib olish va unga tayyorlanish;

— tabiat hodisalarini e'tiborga olgan holda tegishli anjomlar, kiyim-kechak, o'ta zarur bo'lgan ashyolarni mujassamlash;

2. Ekoturistik marshrutlar davomida.

Ekoturlarni olib boruvchilar:

— rejalashtirilgan sayyohlik marshrutlariga qat'iy amal qilish, zarurat bo'lgan taqdirdagina va yo'riqnoma asosida unga o'zgartirishlar kiritish;

— tegishli boshqaruv va nazorat organlari, yordam ko'rsatish idoralari bilan doimiy aloqada bo'lish;

— boshlovchi va yakunlovchi gidlarning o'z vazifasiga va tegishli xavfsizlik qoidalariga rioya etishlarini ta'minlash.

Ekoturistlar:

— o'zboshimchalik bilan marshrutlarga chiqib ketmaslik;

— tabiat unsurlariga nisbatan vahshiylarcha munosabatda bo'lmaslik;

— yemishli yoki dorivor o'simliklarni yig'maslik va ularni jam-lamaslik;

— minerallar va toshlardan esdalik sovg'asi sifatida olib ketmaslik;

— o't yoqmaslik va kechki gulxanlarni uyushtirmaslik;

— xohlagan joyida chekmaslik va yoki chiqindilarni xohlagan joyga tashlamaslik;

— marshrutlarga radio yoki magnitofonlarni, ya'ni tabiiy muhitqa salbiy ta'sir ko'rsa'tuvchi va sayyohni chalg'ituvchi narsalarni olmaslik va h.k.

3. Ekoturistik marshrutlardan so'ng.

Ekoturlarni yakunlovchi tashkilotlar:

— ekoturlarning yakunlaganliklari haqidagi hisobotni topshirish;

— ekoturlarning ijobiy va salbiy tomonlarini yoritib berish;

— ekoturlarni yaxshilash maqsadida takliflar berish va h.k..

Ekoturistlar:

— ekoturlarning qanday o'tganligi haqida yozma yoki og'zaki axborot berish;

— axborotda ekoturistik marshrutlarni yaxshilash haqida taklif va mulohazalarini bildirish;

— ko'rganlari haqida kundalik daftar tutish (tavsiya tariqasida);

— esdalik albomlari, video ko'rsatuvlar va daftarlarni yaratish (tavsiya tariqasida) va h.k..

Yuqorida keltirib o'tilgan talablardan tashqari ekologiya va turizmga oid qonun hujjatlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tegishli qaror, farmon va farmoyishlari, nodavlat va jamoat tashkilotlarining ko'rsatmalarini inobatga olish majburiy shartlardan hisoblanadi.

2.3. O'ZBEKISTONDAGI EKOTURISTIK TASHKILOTLAR VA EKOTURLAR

O'zbekiston Respublikasida umumiy turizm industriyasining jadal sur'atlarda rivojlanishi ekoturizmga ham o'z ijobiy natijalarini o'tkazdi. Keyingi paytlarda bevosita ekoturistik marshrutlar bilan shug'ullanadigan markazlar va tashkilotlarning soni 12 tagacha yetdi. Bilvosita tarzda turizmning boshqa turlari bilan bir qatorda ekoturizm bilan shug'ullanadigan turtashkilotlarning soni 30 dan oshib ketdi. Bularning hammasi yuridik shaxs maqomida faoliyat yuritayotgan ekoturistik tashkilotlardir. Lekin ko'plab jismoniy shaxslar davlat ro'yxatidan o'tgan, lekin anchagina fuqarolar davlat ro'yxatidan o'tmagan tarzda tabiiy turizm bilan shug'ullanmoqdalar. Tegishli turistik faoliyatni olib borish litsenziyasiga ega bo'lmagan jismoniy shaxslarning deyarli hech birida sof ekologik turizm faoliyati olib borilmayapti. Chunki, ularning hammasi davlat va

mahalliy jamoat birlashmalariga ekologik to'lovlarni to'lamaydilar, ekologik bilim va madaniyatga ega emaslar, ekoturlar tegishli ekologik jihatdan sertifikatlanmagan.

Ekologik turizmning xalqaro markazi Ekosan-tur tashkiloti asosiy ekoturlarni taqdim etadi. Ular asosan Nurota davlat Qo'riqxonasi, Zomin milliy bog'i, G'arbiy Tyan-Shan tog'lariga piyoda va otlarda ekoturistik marshrutlar. Ekosan-tur Qizilqumga tuyalarda sayohat, shuningdek tog' va tekislik daryolarida raftlarda suzish, O'zbekiston bo'ylab ovchilik va baliq ovlashni uyushtiradi.



Ekosan-turning asosiy marshrutlari G'arbiy Tyan-Shan tog' tizmalariga tegishli bo'lib, ularga:

- Chimyon — Taxta jaylau dovoni trekkingi;
- Chimyon — Kichik Chimyon cho'qqisi trekkingi;
- Chimyon — Oqsoy darasi — Qora Sharshara trekkingi;
- Chimyon-Qumli dovon-Gulqamish darasi trekkingi;
- Beldirsoy-Nurekota-Oqsog'ota-Kumushkon otdagi tur.

Undan tashqari Ekosan-tur turistlarga Nurota davlat qo'riqxonasi-ga 6 kunlik trekking va otlarda, Zomin milliy bog'iga 3 kunlik trekking va otlarda, Qizilqumga 2 kunlik tuyada sayohat turlarini taqdim etadi.

Navoiy shahridagi ekskursiya va sayohat byurosi 2002-yilda tashkil etilgan bo'lib, u kompleks turlarni taqdim etadi. Navoiy ekskursiya va sayohatlar byurosiga qarashli Navoiy turistik bazasi Aydarko'lda joylashgan. Uning tarkibiga, asosan, to'rta o'tov, ikkita chodir va ikkita tepa tomoni yopilgan bostirmalar kiradi. Firmalarga qarashli 10 ta tuya bir sutkada 100 ta sayohatchiga xizmat ko'rsata oladi.

1999-yilda tashkil etilgan Ark-Osiyo xususiy firmasi an'anaviy ekoturistik sayohatlardan tashqari kompleks (trekking, tog' chang'i, ot va tuya, velosipedlarda sayyohat) turlarni ham taqdim etadi.

Qoraqum-Tur (Xiva) firmasi o'ziga xos kechki Qoraqumga sayohatlarni taqdim etadi. Bu sayohatlar kechki 17.00 dan 22.00 gacha o'tkaziladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasidagi ekskursiya va sayohat byurolarining o'ziga xos jihatlari, mamlaktimizda qaytarilmas tabiatiga ega bo'lgan



Ustyurt platosiga, Amudaryoning quyi oqimidagi ko'llarga, Qoraqalpog'istonning Qizilqum cho'llariga qilinadigan ekoturlardir.

O'zbekistonning Sayohatchilar Assotsiatsiyasiga tegishli bo'lgan Rabat Malik ekoturistik tashkiloti tomonidan ham ekoturlar ishlab chiqilgan. Rabat Malik 2000-yil 15-martda, ya'ni sayohatchilar kunida tashkil topgan. Assotsiatsiyaga 22 tashkilot a'zo. Ularning barchasida ekoturlar uyushtiriladi. Bular asosan G'arbiy Tyan-Shan tog'lariga uyushtiriladigan — «Kumush ko'za», «Xumson», «Kumushkon» kabi ekoturistik marshrutlardir.

Yevropa Ittifoqi tomonidan qo'llab quvvatlanayotgan «G'arbiy Tyan-Shan biologik xilma-xilligini saqlash loyihasi» ruknida «Barqaror faoliyat rivoji va ekoturizm» dasturi ishlab chiqilgan. Unda tog' ekotizimlarini saqlab qolish va atrof-muhitni muhofaza qilishni ekoturizmni rivojlantirish orqali amalga oshirish maqsad qilib olingan. Rabat Malik assotsiatsiyasi mahalliy aholi orasidan tur operatorlarni tanlab oladi va ularni gid sifatida tayyorlaydi.

2.5. O'ZBEKISTON HUDUDINI EKOTURISTIK RAYONLASHTIRISH

Geografik fanlarning predmetidan biri tadqiqot obyektini turli maqsadlarda rayonlashtirishdir. Rayonlashtirish orqali muayyan tabiiy geografik komplekslarning holati baholanadi, tegishli amaliy choratadbirlar ishlab chiqiladi va tavsiya etiladi, ularning optimallashtirish xususiyatlari nazorat qilinadi, kelajak istiqbollari bashoratlanadi. Ushbu hududiy tabaqalanish yoki qismlarga ajratish nafaqat geografiyaga, balki barcha tabiiy, gumanitar, ijtimoiy fanlarga ham xosdir. Masalan, Konstitutsiyaviy huquqda ma'lum bir davlat hududi uning katta-kichikligi, aholisining zichligi, milliy-etnik tarkibiga qarab turli qismlarga tabaqalash asosida bo'linadi. Garchand bunday qismlashni Huquqshunoslikda «ma'muriy birliklarga ajratish», Tuproqshunoslikda esa, «tuproqlar klassifikatsiyasi» deb yuritilsa-da, lekin uning asl maqsadi va mohiyati rayonlashtirishdan iboratdir.

Rayon soʻzi amaliyotda ikki xil maʼno kasb etadi. Birinchisi, muayyan boʻlingan geografik, geologik, botanik, iqtisodiy va shu kabi hudud. Ikkinchisi — muayyan maʼmuriy boʻlinma.

Geografiyada esa odatda «rayon» tabiiy geografik yoki iqtisodiy-geografik boʻlinma sifatida ishlatiladi. Lekin ushbu geografik funktsionomik birlik aynan shu ikki koʻrinishda boʻlishi kerak, degan soʻz emas. Chunki geografik fanlar tarmogʻi juda keng va ularning har birida oʻziga xos boʻlgan rayonlashtirish ishlari olib boriladi. Masalan — rekreatsion, geoekologik, geomorfologik, geodemografik, geopolitik, geokartografik, geobotanik rayonlar va h.k.

Oʻzbekiston uchun yangi fan sohasi — Ekologik turizm (Ekoturizm) jadal surʼatlarda rivojlanib bormoqda. U hozircha qaysi bir umumeʼtirof etilgan fan tizimiga kirishi kerakligi haqida yagona fikr yoʻq. Lekin, Ekoturizm bevosita Geografiyaning uch asosiy predmeti — tabiat va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlarning hududiylik, davriylik himda komplekslik xususiyatlarini tadqiq qilish nuqtayi nazardan qaralishi shubhasizdir. Chunki sayyohlarning ekologik yoʻnaltirilgan turizmi — tabiati turlicha nomoyon boʻlgan **hududlarga**, ularning tabiat komponentlaridan (tuproq, suv, iqlim, oʻsimlik va hayvonot dunyosi, togʻ jinslari, relyefi) kompleks foydalanilgan tarzda kamida 24 soatlik **duvrga** choʻziladigan harakatidir. Bu yerda Geografiyaning, xususan Tabiiy geografiyaning uch elementi namoyon boʻlmoqda va shuning uchun ham uni geografik fanlar tizimida koʻrib chiqish mumkin.

Ekoturistik rayonlashtirish — maʼlum bir hududni uning ekoturistik holati, imkoniyati va kelajak istiqbollari nuqtayi nazaridan boʻlimlarga ajratish.

Ushbu tadqiqotda milliy maʼmuriy birlik, yaʼni Oʻzbekiston Respublikasini, uning ekoturistik holati, imkoniyati va kelajak istiqbollariga qarab muayyan rayonlarga ajratish maqsad qilib olingan. Respublika amaliyotida hozircha ushbu yoʻnalishdagi rayonlashtirish ishlari olib borilmagan. Lekin, ekoturistik rayonlashtirishda milliy davlat chegarasi yoki uning bir qismida olib borilgan tadqiqotlardan himda amaliyot tajribalaridan atroflicha foydalanishga harakat qilinadi.

Geografiyada odatda ikki xil rayonlashtirish turi mavjud — regional va tipologik¹. Regional rayonlashtirish ekoturistik maqsadlarda juda qoʻl kelishini toʻrt holat bilan asoslash mumkin:

¹ Исаченко А.Г. Ландшафтоведение и физико-географическое районирование. — М.: «Высшая школа», 1991. — 366 с.

➤ O'zbekistonning muayyan tabiiy geografik kompleksini sayyohlarga ko'rsatish bilan ikkinchi bir tabiiy geografik kompleksni ham tanishtirdik, deya olmaymiz, zero turistik jihatdan tabiiy qaytarilmas va beo'xshashdir;

➤ iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan ko'pgina hollarda ekoturizmni tarixiy, diniy, ma'naviy-ma'rifiy turizm bilan birga olib borish aniq bir imkoniyatdan kelib chiqadi va uni hozircha inkor etib bo'lmaydi;

➤ aholining ekologik ongi va madaniyatini har bir joyning o'zida amalga oshirish ko'proq ekologik samara beradi;

➤ turizm ekologik xarakterda bo'lishi uchun albatta sayyohlikdan kelgan foydaning ma'lum bir qismini ekoturistik obyektidagi tabiatni muhofaza ishlariga qaratish lozim.

O'zbekiston hududini regional ekoturistik rayonlashtirishda uning hududiy yaxlitligi, kompleks yondashuv, genetik o'xshashlik va individuallik kabi qoidalarga amal qilishga harakat qilindi. Shu bilan birga yana quyidagi geoekologik prinsiplarga amal qilish lozim deb topildi:

➤ geotizimlarning antropogen, tabiiy va tabiiy-texnogen o'zgaruvchanligi;

➤ ekoturizmni boshqa turizm turlari bilan birgalikda olib borish samaradorligi;

➤ madaniylashtirilgan landshaftlarda agroekoturistik imkoniyatlarning yuqoriligi;

➤ ekologik tadbirlarni olib borish imkoniyatining yaratilganligi va h.k.

Tabiiy geografik jihatdan O'zbekiston hududi 9 rayonga, iqtisodiy geografik nuqtayi nazardan esa 8 rayonga bo'linadi. Ekoturistik rayonlashtirishda qat'iy tabiiy yoki iqtisodiy geografik rayonlashtirishni asos qilib olingani yo'q. Chunki ekoturistik rayonlashtirish, garchand tabiatga obyekt sifatida qarasa-da, lekin sayyohlar va ularning turistik harakatlari ijtimoiy xarakterga ega. Rayonlarni nomlashda bir paytning o'zida ham tabiiy geografik atamalardan, ham iqtisodiy-ijtimoiy geografik atamalardan atroflicha foydalanildi. Ekoturizmning maqsadi undan tushgan sarmoyani tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat komplekslarini qayta tiklashga yo'naltirilgan moddiy va moliyaviy sarf-xarajatlardan iboratdir¹.

¹ A. Nig'matov, N. Shomurotova. Ekologik turizm — yangi fan sohasi. O'zbekiston ekologik xabarnomasi. 6-son, 2004, 17—19-b.

Ekoturistik rayonlashtirishning ilmiy asosi sifatida quyidagi geoeologik tasnifiy belgilar olindi:

➤ har bir tabiiy geografik kompleks qaytarilmas ekoturistik imkoniyatlarga, ya'ni regionallik xususiyatlariga ega;

➤ ekoturistik obyekt chegarasi doim ham ma'muriy chegaraga to'g'ri kelavermaydi, ya'ni u tabiiy geografik kompleks ta'sir doirasida turadi va shuning uchun ham undan kompleks foydalanish imkoniyati ochib berilishi lozim;

➤ tabiatga uyushtirilgan sayyohlik mohiyatida tabiatni muhofaza qilish, turistlarning ekologik ongi va madaniyatini ko'tarish, buzilgan tabiat komplekslarini qayta tiklash masalalari turishi lozim;

➤ ekoturistik rayonlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish va uning jozibadorligini namoyon etish uchun ekoturistik marshrutlarni tarixiy, tabiiy, ma'naviy-ma'rifiy, diniy kabi turistik sayohatlar bilan birga olib borish imkoniyatini hisobga olish;

➤ ekoturistlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash imkoniyatini yuzaga chiqarish va h.k..

Yuqorida aytib o'tilgan ilmiy prinsip va asoslarga binoan O'zbekiston hududi 14 ta ekoturistik rayonga ajratildi (10- rasm):

O'zbekiston Respublikasining ekoturistik rayonlarining chegarasi va ularning katta-kichikligi tabiiy geografik rayonlarga yaqinroq keladi¹, lekin aynan o'zi emas. Zero ekoturizmning obyekt tabiat va uning komplekslari, predmeti esa uning turistik imkoniyatlaridir.

Agar Yer kurrasi bo'yicha regional ekoturistik rayonlashtirishni amalga oshirilsa (afsuski, bunday tadqiqot hanuzgacha olib borilmagan) O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasining markaziy qismini egallagan bo'lar edi. Unda ikki katta — G'arbiy Tyan-Shan va Pomir-Oloy tog'li hamda Qizilqum-Orol-Ustyurt tekislik qismlarni ajratish mumkin bo'lar edi. Lekin ekoturizmning yuqorida aytib o'tilgan ilmiy asoslari mazkur rayonlashtirish darajasida buning imkoniyatini bermaydi. Unga misol qilib Farg'ona, Qashqadaryo va Surxondaryo ekoturistik rayonlarini olsa bo'ladi. Quyi taksonomik ekoturistik rayonlashtirish darajasida buning imkoniyati bor.

Har bir ajratilgan rayon o'zining ekoturistik holati, imkoniyatlari va rivojlanish istiqbollari nuqtayi nazaridan ajralib turadi.

¹ Козай Н.А. Физико-географическое районирование // Узбекская ССР. — Т.: «Энциклопедия», 1981. — с. 54—59.

I. Ustyurt ekoturistik rayoni. Ustyurt — O‘zbekistonning shimoli-g‘arbiy — Qoraqalpog‘istonda joylashgan plato (yer yuzasi kam parchalangan yassi tekislik). Uning maydoni katta (200 ming km²), yo‘llari asfaltsiz, notekis bo‘lgani uchun ham ekoturistik marshrutlar «jip» rusumdagi mashinalar, samolyot yoki vertolyotlarda olib borilgani ma’qul. **Ustyurtning** sayyohlarni o‘ziga jalb qiladigan **ekoturistik obyektlariga:**


«Chink» — dunyoda eng katta va yagona 60—150 metrlik tik qoyali jarlar bilan o‘ralgan plato:

✓ doimiy oqar suvlarga ega bo‘lmagan, lekin yer osti suvlariga ega supasimon tekislik;

✓ davolash xususiyatiga ega bo‘lgan juda katta (1000 km²) tuzli Borsakelmas sho‘rxoki. Unda o‘simlik dunyosi deyarli yo‘q. Osh tuzi va balchiqli tuzning qatlami 16—27,5 m gacha boradi. Yangi ochilgan Qo‘ng‘irot soda zavodi aynan Borsakelmas tuzlari hisobiga qurilgan;

✓ neolit davridan qolgan «Ustyurt makoni». Unda qadimiy odamlar yashagan 60 ga yaqin tabiiy obyektlar aniqlangan. Ularning ichida ham tarixiy, ham ekoturistik ahamiyatga molik «Tempa»makoni alohida ahamiyatga ega bo‘lib, undan arxeolog S.P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm ekspeditsiyasi 1300 dan ortiq chaqmoqtosh qurollarini topgan.

II. Orol va Orolbo‘yi rayoni ekologik inqirozli ekoturistik hudud bo‘lgani uchun ham unda yuzaga kelgan ekologik inqiroz holati asosiy ekoturistik obyekt bo‘lib hisoblanadi. Ekoturistik marshrutlar bir paytning o‘zida ham Orolning qurigan, ham uning ta’sirida turgan Orol atrofi hududlarini qamrab olishi zarur. Ekoturlarni nafaqat treking (piyoda) yoki tuya va otlarda, balki samolyot va vertolyotlar orqali ham amalga oshirish lozim. Zero u yuqori masofadan turib katta va tekis maydonni vizual kuzatish imkoniyatini beradi. Orol dengizining shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan va kundan kunga kattalashib borayotgan Borsakelmas oroli insonlarning atrof tabiiy muhitga salbiy ta’sirini aks ettiruvchi ekoturistik obyektidir. Chunki unda nafaqat kengayib borayotgan quruqlik yuzasi, balki sobiq SSSRning noekologik faoliyati ham namoyon bo‘ladi. Unda Qozog‘iston Respublikasi Borsakelmas qo‘riqxonasi tashkil qilingan.

O'zbekiston Respublikasining
ekoturistik rayonlari

III. Amudaryo rayoni. Amudaryoning o'zaniga yaqin har ikkala sohillarida to'qayzorlar mavjud bo'lib, ular ekoturlar uchun juda qiziqarli noyob landshaft ko'rinishlardan hisoblanadi. Quyi Amudaryoning o'ng sohilida to'qay landshaftidagi qushlar va hayvonlarni muhofaza qilish uchun Badayto'qay qo'riqxonasi tashkil etilgan. Unga ma'rifiy-ma'naviy maqsadda tashrif buyurishni uyushtirish lozim. Ornitofaunani saqlash uchun Xorazm buyurtmaxonasi tashkil etilgan. Bulardan tashqari Qizilqumning g'arbiy qismida, Amudaryoning o'ng qirg'og'ida, kembriy va kembriygacha burmalangan tog' jinslari ochilmalaridan iborat, balandligi 485 metrlik Sulton Vays tog'lariga ekoturlar uyushtirish mumkin. Amudaryo rayonida O'zbekistonning ko'hna o'lkalaridan biri Xorazm joylashgan. Xorazmdagi arxitektura yodgorliklari tarixiy turizm markazlaridan biri hisoblanadi. Ekoturlarni tarixiy turlar bilan kompleks olib borish tavsiya etiladi.

IV. Qizilqum rayoni qumliklardan iborat bo'lsa-da, lekin boy o'simlik va hayvonot olamiga ham ega. Jilolanib turadigan eol relyef shakllari — qum marzalari, do'ng qumliklar faqatgina shu yerga xos bo'lgan go'zal tabiat manzaralariga ega. «Sahro kemasi» — tuyalarda ekskursiyalar uyushtirish ekzotik turizmni eslatadi. 1971-yilda tashkil etilgan va 10,3 ming ga maydonda joylashgan Qizilqum Davlat qo'riqxonasida to'qay va cho'l landshaftiga xos bo'lgan o'simlik va hayvonlar muhofaza etiladi. Ekoturistik obyektlardan biri bo'lgan qo'riqxonada buxoro bug'usi (xongul), to'ng'iz, qirg'ovul, echkiemar, jayron, qum charxiloni, turkiston kobrasi va hattoki, Prjevalskiy zotli otlar saqlanadi. Ko'rkam tabiat bag'ridagi ovullarda mehmon bo'lib, yulduzli osmon ostida kechani o'tkazish sayyohlarga zavq bag'ishlaydi. Qizilqumda bahor oylarida kishilarga estetik zavq berib, hordiqni chiqaradigan chiroyli gulli o'simliklar — lola, chuchmoma, eremurus, boyg'alcha, lolaqizg'aldoq, boychechak kabilar o'zgacha go'zallik kasb etadi. Qizilqum rayoni yilning barcha fasllarida ajoyibdir. Tuyalar karvoni esa unga yanada ekzotik tus beradi hamda uning jozibadorligini orttiradi.

V. Nurota rayoni o'zining ajoyib tabiat manzaralari, tarixiy arxitektura yodgorliklari bilan kishilarni maftun etadi. 1975-yilda tashkil etilgan va maydoni 17,8 ming ga bo'lgan Nurota tog' yong'oqzor-meva qo'riqxonasi mavjud. Bu qo'riqxonaga «Ekosan» huzuridagi «Ekosan-tur» firmasi tomonidan ko'plab marshrutlar

uyushtirilgan. Oqtog'ning janubiy yon bag'rida joylashgan, shamol ta'sirida tebranib turuvchi bahaybat xarsang toshli «Sanjigumon», «Koriz qoldiqlari» kabi tabiat yodgorliklari ekoturizmning muhim obyektlaridan hisoblanadi.

Nurota tog' oldida joylashgan «Chashma bulog'i» ko'p asrlardan buyon Nurota shahri va uning atrofidagi qishloqlarni suv bilan ta'minlash bilan bir qatorda diniy ziyoratgohdir. Buloq yaqinida «Chilistun» masjidi, madrasa, Abul Hasan Nuriy maqbarasi va qal'asi joylashgan. Chashmadagi baliqlar muqaddas hisoblanadi. Buloqdan taralayotgan nur inson nigohini lol qoldiradi.

Qoratog' tizmasining janubiy yon bag'rida «Sarmish darasi»dagi qoyalarda ajdodlarimizning hayoti va madaniyatini aks ettiruvchi lavhalar, rasmlar ishlangan.

Janubiy Nurota tizmasida uzunligi 110 m, absolut balandligi 1060 m, maydoni 163 m² keladigan «Maydon karst g'ori», Shimoliy Nurota tizmasidagi uzunligi 130 m, absolut balandligi 1100 m, maydoni 70 m² keladigan «Xonaixudo karst g'ori»da speleoturizmni rivojlantirish mumkin. Bulardan tashqari, XI asrda bunyod etilgan va XVIII asr boshlarigacha turgan «Rabat Malik karvonsaroyi»sayyohlarning to'xtash joyi, shuningdek savdogarlarning savdo qilish joyi bo'lgan. Rabat Malik yonida ming yillik tarixga ega bo'lgan madaniyat yodgorligi — sardoba mavjud. Yer ichiga 12 m botirilgan sardobada butun yoz bo'yi muzdek va toza suv saqlangan.

VI. Zarafshon rayonida Zarafshon daryosi qayirlarida joylashgan to'qay landshafti, undagi o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish uchun tashkillashtirilgan «Zarafshon qo'riqxonasi»mavjud. Buxoro viloyatining Shofirkon o'rmon xo'jaligi hududida joylashgan qum cho'l landshafti, u yerdagi o'simliklar va hayvonlar hamda tarixiy yodgorlik (Vardanza shahar xarobalari) davlatning alohida e'tibori bilan qo'riqlanadi. «Vardanza qo'riqxonasi», «To'dako'l flora va faunasini boyitish buyurtmaxonasi», Qorovulbozor xo'jaligida joylashgan «Jayron-ekomarkazi», suv va botqoqqa moslashgan qushlarni ko'paytiruvchi «Dengizko'l buyurtmaxonasi», Zarafshon tog' tizimlaridagi Omonqo'ton va Temurlang karst g'orlari, Zarabuloq-Ziyovuddin tog' tizmalaridagi ko'p qavatli «G'untak g'ori»kabilar. Zarafshon ekoturistik rayonida O'zbekistonning qadimgi shaharlari Samarqand va Buxoro joy-

lashganligi tufayli ham ekoturlar yakuni tarixiy-diniy arxitektura yodgorliklariga qilinadigan safarlar bilan olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

VII. Aydarko‘l rayonidagi ko‘llar tizimining paydo bo‘lishi bevosita Mirzacho‘lning o‘zlashtirilishi bilan bog‘liqdir. Sizot suvlari hamda zovur-drenaj suvlarining Aydarko‘l botig‘i tomon harakatlanishi natijasida botiqdagi Tuzkon ko‘lining kengayishi Arnasoy hamda Aydarko‘l ko‘llarining paydo bo‘lishiga olib keldi. Botiqdagi keyingi dinamik o‘zgarishlar Chordara suv omboridagi (1969) ortiqcha suvlarning tashlanishi bilan bog‘liq. Bu suvlarining to‘planishi natijasida Arnasoy ko‘llari birlashib yagona Aydarko‘llar tizimining paydo bo‘lishiga va undagi faunani boyitib beruvchi «Arnasoy buyurtmaxonasi» ning tashkil etilishiga olib keldi.

VIII. Sirdaryo rayoni Sirdaryo o‘zanidagi to‘qayzorlari bilan ajralib turadi. Sirdaryoning ba‘zi joylarida doimiy yoki mavsumiy orolchalar mavjud bo‘lib, unda juda ko‘p qushlar to‘pladi va manzarali ekoturistik obyekt bo‘lib hisoblanadi.

IX. Chirchiq — Ohangaron tog‘li ekoturistik rayonida xalqaro ekologik rezervat joylashgani uchun ham uning huquqiy maqomi tabiatga aralashmaslik prinsipiga moslashtirilishi lozim. Undagi ekoturistik sayohatda vertolyot va samolyotlardan foydalanishga ruxsat berilmaydi. Ekoturlar oldindan belgilab berilgan kichik yo‘lakchalar orqali, kam sonli turistik guruhlariga bo‘lingan tarzda, yilning hayvonot olami urchimaydigan va ko‘paymaydigan davrlarida piyoda va otlarda aylanish tarzida tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Mazkur ekoturistik marshrutlarda mahalliy aholining xizmatidan atroflicha foydalanish ularning noekologik yo‘naltirilgan turmush tarzini ijobiy tomonlarga o‘zgartiradi.

X. Farg‘ona rayoni ekoturizmni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki undagi landshaftlarning turli-tumanligi markazdagi cho‘llardan tortib, to maftunkor tog‘ cho‘qqilarigacha barchani o‘ziga jalb etadi. Tog‘lardagi tez oqar va ba‘zida kechuv qiyin bo‘lgan daralarda raftlarda oqish (rafting), Janubiy Farg‘onadagi balandligi 10 m keladigan, dam olayotgan tuyalarni eslatuvchi ekzotik relyef shakllariga hamda «Yozyovon davlat tabiat yodgorligi»dagi ajoyib tabiiy qum massivi (1994-yilda tashkil etilgan va maydoni 1,9 ming ga) piyoda turlar uyushtirish mumkin. Ko‘ksuv

vodiysida 120 yil avval vujudga kelgan, oq, kulrang qoyalar bilan o'ralgan toza, muzdek suvli ko'k va yashil ko'llar ham ekoturizm obyektidir.

Farg'ona vodiysida milliy hunarmandchilik ancha keng rivojlanganligi tufayli uni ekoturizm bilan uyg'unlikda olib borish mumkin. Rishtonda avlodan-avlodga o'tib keluvchi kulolchilik san'ati, Chustda do'ppido'zlik, pichoqchilik va temirchilik, Marg'ilonda atlas to'qish kabi milliy xunarmandchilik asrlar davomida taraqqiy etib kelmoqda.

XI. Turkiston rayonida ekoturlarni alohida muhofaza etiladigan hududlarga uyushtirish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu rayonda Turkiston tizmasining shimoliy yonbag'rida 1959-yilda tashkil etilgan, absolut balandligi 1760—3500 m umumiy maydoni 21735 ga bo'lgan «Zomin davlat qo'riqxonasi», maydoni 24110 ga bo'lgan noyob tog'-archa ekosistemalarini tiklash, va rekreatsiya maqsadlarida foydalanish uchun 1978-yilda tashkil etilgan «Zomin milliy bog'i» mavjud.

XII. Qashqadaryo rayoni O'zbekistonning janubiy qismida joylashgan bo'lib, u cho'l, dasht, tog'oldi va tog'li hududlardan iborat. Bu rayonda yoz va bahor oylarida cho'l va dashtlarda, yilning barcha fasllarida esa tog'oldi va tog'li hududlariga ekoturlar uyushtirish mumkin. Qashqadaryo rayonida 1979-yilda tashkil etilgan, 3938 ga maydonga ega bo'lgan, MDH davlatlari ichida yagona — «Kitob davlat geologiya qo'riqxonasi», 1992-yilda tashkil etilgan «Muborak buyurtmaxonasi», 1992-yilda tashkil etilgan «Sechenko'l» buyurtmaxonasi» mavjud. Qashqadaryo rayonida ekoturizmni tarixiy, diniy turizm bilan birgalikda olib borish uchun birqancha arxitektura yodgorliklari va diniy qadamjolar mavjud.

XIII. Hisor rayonida 1983-yilda tashkil topgan O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv vazirligiga qarashli, absolut balandligi 1150—4349 m bo'lgan, 870 xil o'simlik, 140 xil hayvonot olamiga ega, maydoni 80,9 ming ga bo'lgan Hisor davlat qo'riqxonasi mavjud. Bu rayonda ekoturlarni mahalliy aholining madaniyatini aks ettiruvchi «Boysun» etnografik-folklor ansambli chiqishlari bilan uyg'unlikda olib borish sayyohlarni o'ziga ko'proq jalb qilish imkoniyatini beradi.

XIV. Surxondaryo rayonida Ko'hitang tog'li hududda 1987-yilda tashkil etilgan, 53,7 ming ga maydonda 800 xil o'simlik va

290 ta qush hamda 20 dan ortiq hayvon turlarini muhofaza qilishga yo'naltirilgan «Surxon davlat qo'riqxonasi» mavjud. Surxondaryo rayoni Respublikamizning o'ziga xos rayonlaridan biri hisoblanib, bu yerda quruq subtropik iqlim mintaqasi hukmron. Shuning uchun ham yilning ko'p oylarida ekoturlar uyushtirish imkoniyati bor.

Xulosa qilib aytganda, ekoturistik rayonlashtirishni joyning geoekologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirish tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

III. AMALIY MASHG'ULOTLAR

1-amaliy mashg'ulot. «Kimning ekoturistik marshruti atrof-muhitni ko'proq muhofaza etadi?»

Mashg'ulot usuli — rolli o'yin.

Mashg'ulot maqsadi — ekoturistik marshrutlarni tashkil etishda alternativ ekologik variantlarni izlab topish.

Bu darsda o'rganiladi:

1. Ekoturistik marshrutlarni to'g'ri tashkil etish.
2. Tashkil etilgan ekoturistik marshrutlarda atrof-muhitni muhofaza qilish yo'llarini izlash.
3. Mahalliy aholi va turistlarga tabiatni muhofaza etish haqida yo'l-yo'riqlarni ko'rsata bilish.

«Aqliy hujum»

1. Ekoturistik marshrutlarni to'g'ri tashkil etish haqida qanday fikrdasiz?
2. Atrof-muhitni muhofaza etish haqida nimalarni bilasiz?
3. Siz turist yoki mahalliy aholi vakilisiz, tabiatni muhofaza etishga o'z hissangizni qanday qo'shgan bo'lar edingiz?

«Rolli o'yin»

Rollarda:

1. Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining raisi.
2. Xususiy turistik firma direktori.
3. EKOSAN tashkiloti vakili.
4. Turistlar.
5. Mahalliy aholi.

Mashg'ulotning borishi. «Kimning ekoturistik marshruti atrof-muhitni ko'proq muhofaza etadi» mavzuidagi amaliy mashg'ulotda ekoturistik marshrutlarni tashkil etish; ushbu marshrutlar orqali atrof-muhitni ko'proq muhofaza qilish yo'llarini izlab topish; turistlarning sayohat chog'larida tabiatga putur yetkazmasliklari lozimligi haqida mufassal tushuncha berish; mahalliy aholining tabiatni muhofaza etishga o'z hissalarini qo'shishlarini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni tashkillashtirish va tatbiq etishni o'rganish.

Tabiat — obyektiv borliq bo'lib, bizni o'rab turuvchi olam, kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish manbayi. Tabiat inson faoliyati va ishtirokisiz paydo bo'lgan, lekin inson kundalik hayotiy faoliyatlarida bizni o'rab turuvchi atmosfera havosi, suv, yer, yer osti boyliklari, o'simlik, va hayvonot dunyosi kabi tabiat ne'matlaridan foydalanadi.

Ekologiya tirik organizmlarning atrof-muhit bilan bo'ladigan o'zaro aloqalari, munosabatlarini o'rganuvchi fan sohasi va unga oid bilimlarni beruvchi ta'lim sohasi.

Turizm sayohat qilish, dam olish bilan bir qatorda sport va umumtarbiyaviy yoki ma'naviy-ma'rifiy vazifalarni va hokazolarni bajarishdan iborat.

Ekoturistik marshrutlar tabiiy saqlanib qolgan yoki aksincha antropogen buzilgan hududlarga sayohat uyushtirish vositasida ularni anglashga, sayyohlarning va mahalliy aholining ekologik madaniyati va ongini oshirishda xizmat qiladi.

Bildirilgan fikr mulohazalar doskaga yozib boriladi.

1. Ekoturistik marshrutlarni tashkil etishdan maqsad nima?
2. Ekoturistik marshrutlar asosan qaysi obyektlarga qaratilgan?
3. Ekoturizmdan kelayotgan daromad tashrif etilgan obyekt muhofazasiga qanchalik hissa qo'shadi?

4. Mahalliy aholining atrof-muhitni muhofaza qilishdagi ulushi qanday?

Mashg'ulotda Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining raisi ishtirokidagi majlis rolli o'yin tarzida o'tkaziladi.

Rais: Bugungi kunda O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilishga e'tibor anchagina ko'tarildi, biroq shunga qaramay ba'zi tashkilotlar, xususiyl turistik firmalar, turistlar, mahalliy aholi bu masalaga jiddiy e'tibor berishmayapti. Bu borada hozirgi kunda turistik firmalarda uyushtirilayotgan ekoturistik marshrutlar tabiatni qay darajada muhofaza etayapti? Shu haqda xususiyl turistik firma direktoriga so'z beramiz.

Xususiyl turistik firma direktori: Hozirgi kunda bizning firmamizda, asosan, O'zbekistonning tog'lariga va tekisliklariga, cho'llariga piyoda, otda, tuyada marshrutlar mavjud. Bulardan tashqari gidroobyektlariga qayiqalarda sayohat hamda baliq ovlarini uyushtirganmiz. Uyushtirilgan ekoturistik marshrutlar tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan bo'lib, kelayotgan daromadning asosiy qismi tashrif etilgan obyektlar muhofazasiga ajratiladi.

Ekosan vakili: Bizning tashkilot qoshida ham «Ekosan-tur» kompaniyasi faoliyat yuritayapti. Bizlarda ham bir qancha ekoturistik marshrutlar tashkil etilgan. Bizning ekoturistik marshrutlarimiz nafaqat buzilmagan, balki ekologik inqirozli hududlarga, ya'ni Orol va Orolbo'yiga ham uyushtirilgan. Bundan maqsad ekologik inqirozli hududlarda yashovchi aholiga yordam ko'rsatish, ularning salomatliklari haqida qayg'urishdan iborat.

Turistlar: O'zbekistonda uyushtirilgan ekoturistik marshrutlar piyoda, otda, tuyada, velosipedlarda tashkil etilgan. Alohida muhofaza etiladigan tegralarga: qo'riqxonalariga, milliy bog'larga, buyurtma qo'riqxonalariga, rezervatlarga marshrutlar tashkil etilgan. Bizlar bundan minnatdormiz. Lekin ularning mazmun va mohiyati zamonaviylashtirilsa maqsadga ko'proq muvofiq bo'lar edi. Ovqatlanishni uyushtirish tizimini qayta ko'rib chiqish lozim.

Mahalliy aholi: Ekoturistik marshrutlar bizlar uchun nafaqat atrof-muhitni yaxshilashga, balki ishga yaroqli aholini ish bilan ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shuning uchun ham ushbu turistik faoliyatni kengaytirish va ularning yangi turlarini amalga tatbiq etish zarur.

Tashkil etilayotgan ekoturistik marshrutlardan tabiat va mahalliy aholi qanday naf ko'ryapti? Turistlardan so'ng atrof-muhitga qancha chiqindi chiqadi? Flora

va faunaga qanday ko'lamda zarar yetkaziladi? Bular ham inobatga olinganmi? Bular qanday sabab oqibatlariga olib keladi? Bu savollarning barchasiga ishtirokchilar javob beradilar. Bildirilgan fikr-mulohazalar doskaga yoziladi. So'ngra, ularning muallifi tomonidan qiziqarli ma'lumotlar o'qib beriladi.

Rais: Davra suhbatida aytilgan fikrlardan kelib chiqqan holda quyidagi qarorga kelish mumkin. Ekoturistik marshrutlarni tashkil etishda tabiatni muhofaza qilishga alohida ahamiyat berilsin, tabiat muhofazasida barcha faol qatnashsin, turli yo'nalishdagi marshrutlar uyushtirilsin va uning xizmat ko'rsatish darajasi oshirilsin.

2-amaliy mashg'ulot. «Kimsasiz orolda ekoturizm»

Mashg'ulot usuli: uzoq muddatli variantlarni modellashtirish.

Mashg'ulot maqsadi — cheklangan tabiiy sharoitda ekoturizmni tashkil etishni modellashtirish.

Mashg'ulot uchun kerakli materiallar: A—1 formatdagi toza qog'oz, rangli markerlar.

O'yin tavsifi:

I. O'quvchilardan ekoturistik prinsiplarni sanab chiqishlarini so'rang.

1. Ekoturizmida tabiatni muhofaza qilish masalasining ustuvorligi.

2. Ekoturizmdan tushgan foydaning ekologik maqsadlarga yo'naltirilganligi.

3. Ekoturizmning tarixiy, madaniy, diniy turizm kabi boshqa turizm turlari bilan uzviy bog'langanligi.

4. Tabiatdan oqilona foydalanish va tabiatni muhofaza qilishning mazmunini ekoturistik marshrutlarda aks ettirish.

5. Noekologik harakatlarning qat'iy cheklanganligi.

6. Ekoturizmida ekologik — ijtimoiy-iqtisodiy manfaatdorlikning yagonaligi.

II. O'quvchilar guruhi uchta jamoaga bo'linadi.

III. Olib boruvchi vaziyatni tanishtiradi:

Sizning davlatingiz ekologik hamda iqtisodiy inqirozga yuz tutgan. Davlatda turizmni va ekoturizmni rivojlantirish uchun imkon yo'q. Yaqin atrofda esa kimsasiz orol mavjud. Kimsasiz orolda ekoturizmni tashkil etib, rivojlantirish uchun barcha shart-sharoit mavjud.

IV. Bir varaq qog'ozga har bir guruh a'zolari kimsasiz orolda uzoq muddatga ekoturizmni shakllantirishni turli tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy, moliyaviy, siyosiy vaziyatlarni hisobga olgan holda ifodalashlari lozim. Cheklangan resurslardan oqilona foydalanish, tabiatni muhofaza qilish va qayta tiklash muammolarini hal qilishlari lozim. Undan tashqari, o'quvchilar olib boruvchining qo'yg'an savollariga ham javob berishlari kerak. Shartli belgilar yordamida kimsasiz orolni chizib, unga nom berishlari zarur. Shartli belgilar yordamida oroldagi barcha ekoturistik obyektlarni ko'rsatishlari lozim (shartli belgilar ixtiyoriy ravishda olinishi mumkin).

V. Muhokama tugashi bilan guruh «kimsasiz orolda ekoturizm» haqidagi axborotni barchaga yetkazishlari uchun ikkita taqdimot o'tkazuvchi vakilni tanlashlari kerak.

VI. Komandalar ish natijalari bo'yicha taqdimot o'tkaziladi va berilgan savollarga javob qaytaradi. Har bir jamoa uchun 3—5 daqiqa vaqt ajratiladi.

VII. Jamoalar tomonidan olib borilgan ishlar taqdimotidan so'ng «Kimsasiz oroldagi eng yaxshi tashkil etilgan ekoturizmni» tahlil qilish va aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Yana o'quvchilar bilan birgalikda ekoturizmni rivojlantirish va ekoturistik marshrutlarni tashkil etish haqida xulosalar qilinadi.

Kimsasiz orolga tavsif. Kimsasiz orol atrofi tabiiy plyajlar bilan o'ralgan, boy hayvonot va o'simlik dunyosiga ega. Orolning bir qismi yaylov uchun yaroqli bo'lgan o'tloq bilan qoplangan. Uning g'arbida sahro va qoyali tog'lar joylashgan. Tog'larda karst g'orlari mavjud. Qadimda insonlar yashaganliklaridan darak beruvchi ma'lumotlar ham mavjud. Bulardan tashqari — zaharli o'simliklar, sovuq qish kabi holatlar bor. Shuning uchun ham orolda ekoturizmni tashkil etish imkoniyati yuqori.

Asosiy vazifa — ekoturizmni tashkil etish, shakllantirish va rivojlantirish.

Bir varaq qog'ozda orolning xaritasini chizib, unga shartli belgilarni tushiring.

Mazkur mashg'ulotning yakunlovchi xulosasi tariqasida har qanday sharoitda ekoturizm orqali tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, buzilgan tabiat majmualarini qayta tiklash imkoniyatlarini izlab topish mumkinligini aytib o'tish joizdir.

3-amaliy mashg'ulot. Ekoturizmning tasniflanishi

Mashg'ulot usuli: «Menyu» uslubi.

Yakka tartibda yoki kichik guruh bilan ish olib borishda «menyu» uslubidan foydalanish tavsiya etiladi. «Ekoturizmning tasniflanishi» mavzusi bo'yicha o'qituvchi ekoturizmlarning tasnifi bo'yicha har bir guruh uchun alohida topshiriq tayyorlaydi;

- 1) shakl;
- 2) sinf;
- 3) tur;
- 4) ko'rinish;
- 5) guruh;
- 6) daraja.

Har bir guruh topshiriq oladi va 3 minut davomida vazifa muhokama qilinadi, so'ngra har bir guruhdan bittadan vakil o'qituvchi stoliga keladi va tayyor «menyu»ni olib qaytadi. Bu uzun qirg'ilgan — «tillar» bo'lib, ularda ekoturizmlarning tasnifi bayon qilingan bo'ladi. Guruh vakili ulardan tanlab oladi va o'z guruhiga olib keladi, keyin boshqa talaba shu ishni bajaradi va zaruriy materiallar yig'ilguncha bu holat davom etadi. 10 minut davomida topshiriq muhokama qilinadi va rasmiylashtiriladi. Bu jadval qo'lda tayyorlanishi yoki javoblar og'zaki bo'lishi ham mumkin. Boshqa guruh vakillari savollar berishadi, o'qituvchi esa guruh ishlarini, sardor faoliyatini baholab, fikr-mulohazasini bildiradi.

4-amaliy mashg'ulot. «Ekoturistik tizimli yoki tarmoqli fikrlash»

Mashg'ulot usuli: «Klaster» yoki tarmoqli fikrlash.

Mashg'ulot maqsadi — tezkor va aniq ravishda ekoturistik atama va terminlardan foydalanishni o'rgatish.

Bu metoddan foydalanish uchun talabalarni kichik (3—5 tadan iborat bo'lgan) guruhlariga ajratish talab etiladi. Har bir guruhcha mavzuga oid alohida ekoturistik

tushuncha, termin va elementlarga ishlov beradi. Buning uchun auditoriyada darslik, o'quv qo'llanma, ma'ruza matnlari va boshqa axborot manbalari yetarli miqdorda bo'lishi lozim. O'qituvchi o'quvchilarni o'zlashtirish uchun vaqt ajratadi (15—20 daqiqa).

Klaster tuzish bosqichlari:

1. Auditoriya yozuv taxtasiga kichik guruhlar soniga qarab vatman ilinadi va «kalit» so'zlar (ekoturizm, ekologiya, turizm, resurs) o'qituvchi tomonidan yoziladi.

2. Mavzu bo'yicha o'quv elementlarga tegishli fikrlar qog'ozga yoziladi (Ekoturistik konsepsiyalar va prinsiplar).

3. Asosiy tushuncha va g'oyalar o'rtasidagi aloqadorlik chizmada ko'rsatiladi (tabiatdan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy majmualarni qayta tiklash).

4. Kichik guruhlardagi barcha talabalar o'z variantlarini qog'ozga tushirishadi.

5. Fikrlar «shajarasi» umumlashtiriladi va yakuniy xulosalar qayd etiladi.

6. O'qituvchi guruh ishtirokchilarining faoliyatini nazorat qiladi va xolis baholaydi.

Bu metodda ekoturizmga oid tushunchalar mazmunan ketma-ketlik saqlangan holda vatman qog'oziga yozib boriladi va fikrlar «yoyilmasi» chizmasi yaratiladi.

5-amaliy mashg'ulot. «Ekoturistik» albom yaratish

Mashg'ulot usuli: «Kichik guruhlarda bosma materiallar bilan ishlash».

Mashg'ulot maqsadi — turistik servisdagi kerak bo'ladigan ko'rgazmali vositalarni tayyorlashni o'rgatish.

Bu amaliy mashg'ulotni bajarish uchun auditoriya 4—5 kishidan iborat kichik guruhlariga bo'linadi. Guruhlar bir xil yoki turlicha mazmundagi topshiriqlar, gazetalar, jurnallar, fotoalbom, bulletinlar olishadi.

Zaruriy materiallar: 24 varaqli albom, qaychi, yelim.

Topshiriqlar: A. gazeta va jurnallardan ekoturizm to'g'risidagi axborotlarni toping va ularni joylashtiring:

1) ekologik turizm;

2) tabiiy turizm;

3) muhofaza etiladigan tabiiy hududlar;

4) antropogen faoliyat natijasida buzilgan hududlar.

B. Ekoturistik konsepsiyalarni yoritib bering.

Har bir guruh topshiriq oladi, gazetadan kerakli materiallarni, maqolalarni, suratlarini qirqib oladi va albomga yelimlaydi, zaruriy matnni sharhlaydi. Har bir guruh o'z sardorini saylaydi va ular ish yakuni to'g'risida hisobot beradi. Boshqa guruh talabalari savollar berishadi va ishni o'qituvchi yordamida baholashadi.

Talabalardan ehtiyot bo'lib ishlash talab etiladi, ortiqcha qog'oz qirqish, yelimlash, auditoriyani ifloslantirishga yo'l qo'yilmaydi.

IV. SEMINAR MASHG'ULOTLAR REJASI

1-seminar. Turizm va ekoturizm

1. Turizm, ekologiya va ekoturizm tushunchalariga beriladigan ta'riflar.
2. Turizm va ekoturizmning umumiy hamda xususiy tomonlari.
3. O'zbekiston iqtisodiyotida turizmning, jumladan ekoturizmning tutgan o'rni.

Adabiyotlar

1. *Александрова А. Ю.* «Международный туризм». — М.: Аспект пресс, 2002. 5—14 с, 29—32 с.
2. *А. Nig'matov.* «Ekologiya nima?» — Т.: «Turon Iqbol», 2005. 8—20-b.
3. *Окладникова Е. А.* Международный туризм. География туристических ресурсов мира. — М.: Омега-Л., 2002. 12—18 с.
4. *А. Soliyev, А. Usmonov.* «Turizm geografiyasi». — Samarqand, SamDU, 2005. 5—15-b.
5. *Таксанов А.* Азбука туризма. — Т., 2005 — 74 с.
6. *То'xtayev, А. Hamidov.* «Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish». — Т.: «O'qituvchi», 1994. 5—6-b.
7. *Храбовченко В. В.* «Экологический туризм». — М.: Финансы и статистика, 2003. с. 5—25.

2-seminar. O'zbekistonda ekoturistik obyektlar

1. Ekoturistik obyektlarga qo'yiladigan talablar.
2. O'zbekistonda ekoturistik obyektlarni ajratish usullari.
3. Respublikadagi ijobiy va salbiy ko'rinishdagi ekoturistik obyektlar.

Adabiyotlar

1. *Егоренков Л. И.* «Экология туризма и сервиса». — М.: Финансы и статистика, 2003. 7—52 с.
2. *А. Nig'matov, N. Shomuratova.* «Ekologik turizm — yangi fan sohasi» // «Ekologiya xabarnomasi», 2003. 6-son. 14—17-b.
3. Рабочая программа развития экотуризма на участке Чимган-Белдерсай// Угам-Чаткальский национальный парк, Узбекистан. — Проект — июнь, Ташкент, 2005. — 41 с.
4. Рабочая программа развития экотуризма на участке Хумсан-Акташ/ Угам-Чаткальский национальный парк, Узбекистан. — Проект — июнь, Ташкент, 2005. — 42 с.

5. Труды заповедников Узбекистана. Выпуск 4—5. 168—358 с.
6. *Храбовченко В.В.* Экологический туризм. — М.: «Финансы и статистика», 2003. 15—41 с.

3-seminar. O'lka tabiati va ekoturizm

1. Vatanimiz tabiati va uning qo'yniga sayohat.
2. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishda ekoturizmning tutgan o'rni.
3. O'zbekiston tabiatini ekoturistik baholash mezonlari.

Adabiyotlar

1. *P. Baratov.* O'zbekiston tabiiy geografiyasi. T., «O'qituvchi» 1996. 3—5. 135—147-b.
2. Рабочая программа развития экотуризма на участке Чимган-Белдерсай// Угам-Чаткальский национальный парк, Узбекистан.- Проект -июнь, Ташкент, 2005.
3. Рабочая программа развития экотуризма на участке Хумсан-Акташ/ Угам-Чаткальский национальный парк, Узбекистан. — Проект — июнь, Ташкент, 2005.
4. *A. S. Soliyev, M. R. Usmanov.* Turizm geografiyasi. — SamDU, 2005. 60—64-b.
5. *Таксанов А.* Азбука туризма. Ассоциация путешественников Рабат Малик. — Т., 2005. 18—20 с.
6. *Тетюхин Г.Ф., Маматкулов М., Батунская Б.А.* Некоторые аспекты рационального использования и охраны неживой природы Узбекистана. — Т.: Фан 1987, 24—53 с.
7. *Храбовченко В.В.* Экологический туризм. — М.: Финансы и статистика, 2003. 32—53 с.

4-seminar. Ekoturistik servis

1. Ekoturistik servis tushunchasi va turlari.
2. Respublikaning o'ziga xos tabiati va undan turizmga foydalanish imkoniyatlari.
3. Ekoturizmda mehmonxona servisi.

Adabiyotlar

1. *Александрова А.Ю.* Международный туризм. — М.: Аспект пресс. 2002, 309—327 с.
2. *Егоренков Л.И.* Экология туризма и сервиса. — М.: Финансы и статистика, 2003. 145—151 с.
3. *Соколова М.В.* История туризма М.: Мастерство 2002. 309—327 с.
4. *A. S. Soliyev, M. R. Usmanov.* Turizm geografiyasi. — SamDU, 2005. 100—108-b.
5. *Храбовченко В.В.* Экологический туризм. — М.: Финансы и статистика, 2003. 135—140 с.

5-seminar. Ekoturistik ong va madaniyat

1. Ekoturistik ongni ta'lim orqali rivojlantirish muammosi.
2. Ekoturistik madaniyat — milliy madaniyatning ajralmas bir bo'lagi.
3. Milliy g'urur va iftixorni shakllantirishda ekoturizmning tutgan o'rni.

Adabiyotlar

1. Глобальные прогнозы развития туризма до 2000 года и в последующий период. Мир в целом. — Мадрид, 1994. 3-68, 123—210 с.
2. *R. Davidov*. Torizm — London, 1990. 234 r.
3. *Егоренков Л.И.* Экология туризма и сервиса. — М.: Финансы и статистика, 2003. 53—73 с.
4. *Уокер Д.* Введение в гостеприимство. Учебник. — М., 1999.
5. *Храбовченко В. В.* Экологический туризм. — М.: Финансы и статистика, 2003. 104—132 с.
6. O'zbekcha ruscha-inglizcha ekologik izohli lug'at. — T.: Chinor ENK, 2004. — 303-b.

V. MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Ekoturizm: kecha, bugun va ertaga.
2. Ekoturizm — yangi fan sohasi.
3. Ekoturizm mustaqil turizm industriyasi.
4. Global miqyosdagi ekoturistik muammolar.
5. Regional va mahalliy miqyosdagi ekoturistik muammolar.
6. O'lkashunoslik va ekoturizm.
7. Milliy g'oya va ekoturizm.
8. Tabiiy turizm hamda ekoturizmning umumiy hamda xususiy tomonlari.
9. Ekologik turizmda xizmat ko'rsatish sohasi.
10. O'zbekistonda ekoturizm obyektlari.
11. Orol va Orolbo'yi ekoturistik obyekt sifatida.
12. Davlatlararo ekoturistik marshrutlar.
13. G'arbiy Tyan-Shandagi ekoturistik marshrutlar.
14. O'zbekistonning endemik o'simliklaridan foydalangan holda ekoturizmdagi tabiiy servisni tashkilashtirish.
15. O'zbekistonning cho'l mintaqasida ekoturizm.
16. O'zbekistonning tog' mintaqasida ekoturizm.
17. Antropogen o'zgargan hududlarda ekoturizm.
18. Ekoturizmda xavfsizlik turlari va ularga ta'rif.
19. Ekoturistik ong va madaniyat.

VI. TEST SAVOLLARI

1. «Ekologiya» soʻzi grekchada nimani anglatadi?

- A) organizmlar haqidagi fan
- B) yer haqidagi taʼlimot
- C) tabiat haqidagi bilim
- D) uy, yashash joyi haqidagi taʼlimot
- E) tabiat haqidagi taʼlimot

2. Turizm ... munosabatlar turkumiga kiradi.

- A) tabiiy
- B) iqtisodiy
- C) ijtimoiy
- D) siyosiy
- E) maʼnaviy-maʼrifiy

3. Ekoturizm predmetiga kiradi.

- A) atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish
- B) tabiiy resurslardan oqilona foydalanish
- C) buzilgan tabiat majmualari, tizimlari va unsurlarini qayta tiklash
- D) hamma javob toʻgʻri
- E) A, C

4. «Tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni qachon qabul qilingan?

- A) 1992-yil 8-dekabr
- B) 1993-yil 9-dekabr
- C) 1992-yil 9-dekabr
- D) 1993-yil 8-dekabr
- E) 1994-yil 8-dekabr

5. Ekoturistik konsepsiyalarga qaysi dunyoqarashlar kiradi?

- A) barqaror rivojlanish uchun ekoturizm
- B) naturalistik

C) isteʼmolchilik

D) muhofaza qilish va rivojlanish

E) barcha javoblar toʻgʻri

6. Ekoturizmning rivojlanish bosqichlari nechtaga ajratiladi?

- A) 2
- B) 3
- C) 4
- D) 5
- E) 6

7. Ekoturizmning mustaqil turizm sohasi sifatida yuzaga kelish davrini ajrating.

- A) XX asrning 50-yillarigacha boʻlgan davr
- B) 1990—2000-yillar
- C) 2000-yildan keyingi davr
- D) XX asrning 90-yillarigacha boʻlgan davr
- E) 1980—2000-yillar

8. TASHIS dasituri asosida Gʻarbiy Tyan-Shan biologik xilma-xillikni saqlash loyihasi nechanchi yilda ishlab chiqilgan?

- A) 2000-yil
- B) 2001-yil
- C) 2002-yil
- D) 2003-yil
- E) 2004-yil

9. Qaysi yil va qaysi xalqaro tashkilot tashabbusi bilan «Xalqaro ekoturizm yili»deb eʼlon qilindi?

- A) 2001-yil PROON

- B) 2003-yil BTT
 C) 2002-yil BTT
 D) 2004-yil FAO
 E) 2002-yil YUNEP

10. YUNEP bu — ...

- A) *BMTning oziq-ovqat bo'yicha dasturi*
 B) *BMTning fan va madaniyat bo'yicha tashkiloti*
 C) *BMTning atrof-muhit bo'yicha dasturi*
 D) *BMTning salomatlik bo'yicha dasturi*
 E) *BMTning ekologiya va salomatlik bo'yicha dasturi*

11. Ekoturistik konsepsiya bu — ...

- A) *tabiat va turizmning o'zaro munosabati to'g'risidagi dunyoqarashlar*
 B) *iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar to'g'risidagi qarashlar*
 C) *tabiat va jamiyatning o'zaro munosabati*
 D) *jamiyat va turizmning o'zaro munosabati*
 E) *atrof-muhit va insonlarning munosabatlari to'g'risidagi qarashlar*

12. Ekologik turizm ... ekologiya fanlar tarmog'iga kiradi.

- A) *iqtisodiy*
 B) *ijtimoiy*
 C) *biologik*
 D) *geografik*
 E) *huquqiy*

13. Ekoturizmning obyekti bo'lishi uchun sayyohlik obyekti qanday talablarga javob berishi lozim?

- A) *organizmlarning yashash makoni bo'lishi*
 B) *tabiiy kelib chiqqan holda o'zgargan yoki o'zgarmagan bo'lishi*
 C) *inson tomonidan yaratilgan bo'lishi*
 D) *A, B*
 E) *to'g'ri javob yo'q*

14. O'zbekiston hududi nechta ekoturistik rayonga ajratiladi?

- A) 10
 B) 11
 C) 12
 D) 13
 E) 14

15. Ekoturizm tasniflashda qanday iyerarxik qismlarga bo'linadi?

- A) *shakl — sinf — kichik sinf — tur — kichik tur — daraja*
 B) *shakl — sinf — tur — ko'rinish — guruh — daraja*
 C) *sinf — tur — ko'rinish — xil — guruh — daraja*
 D) *tur — sinf — ko'rinish — daraja — guruh*
 E) *to'g'ri javob yo'q*

16. Butun jahan ekoturistik sammit qayerda va qachon bo'lib o'tdi?

- A) *Kvebek shahrida 2002-yil 19—22-may*
 B) *Bermin shahrida 2003-yil 15—20-iyun*
 C) *Dublin shahrida 2001-yil 27—31-avgust*
 D) *Kopengagen shahrida 2004-yil 5—10-sentabr*
 E) *Rio-de-Janeyro shahrida 2001-yil 3—14-iyun*

17. O'zbekistonda nechta davlat qo'riqxonalari mavjud?

- A) 7
 B) 8
 C) 9
 D) 10
 E) 11

18. O'zbekistonda o'simliklarning nechta turi uchraydi?

- A) 3000
 B) 3500
 C) 3800
 D) 4000
 E) 4200

19. O'zbekistonda davlat ro'yxatiga olingan turistik korxonalarining nechta foizi ekoturizmga yo'naltirilgan?

- A) 5
- B) 7
- C) 9
- D) 10
- E) 12

20. Ekoturistik ... — ma'lum bir hududni uning ekoturistik holati, imkoniyati nuqtayi nazardan bo'linmalarga ajratish.

- A) *konsepsiya*
- B) *prinsip*
- C) *rayonlashtirish*
- D) *tasniflash*
- E) *monitoring*

21. Qo'riqxonaga va milliy bog' ekoturistik obyekt bo'la oladimi?

- A) *ha*
- B) *yo'q*
- C) *qisman*
- D) *agarda Oliy Majlisdagi tasdiqlansa*
- E) *to'g'ri javob yo'q*

22. Ekoturistik ... — ekoturizmga yo'naltirilgan qoidalar.

- A) *rayonlashtirish*
- B) *prinsip*
- C) *konsepsiya*
- D) *ro'yxatlash*
- E) *nazoratlash*

23. Buzilgan tabiat komplekslari ekoturizm obyekt bo'la oladimi?

- A) *yo'q*
- B) *qisman*
- C) *ha*
- D) *Vazirlar Mahkamasining ruxsati bilan*
- E) *to'g'ri javob yo'q*

24. Ekoturizmga qanday harakatlar qat'iy cheklangan?

- A) *ekologik*
- B) *noekologik*
- C) *iqtisodiy*
- D) *ijtimoiy*
- E) *A, C*

25. Italiyada ko'pincha ekoturizm qaysi turida bilan birga olib boriladi?

- A) *agroturizm*
- B) *speleoturizm*
- C) *veloturizm*
- D) *gidroturizm*
- E) *tarixiy turizm*

26. Barqaror rivojlanish ilk bor qanday hujjat sifatida qabul qilingan?

- A) *dastur*
- B) *reja*
- C) *konsepsiya*
- D) *xalqaro hujjat*
- E) *deklaratsiya*

27. Ekoturizm fanining rivojlanish bosqichlarini ajratishda qanday ko'rsatkichlarga e'tibor beriladi?

- A) *yangi bosqichga ko'tarilishiga*
- B) *tizimlanishiga*
- C) *metodologik asoslari ko'rib chiqilishiga*
- D) *konseptual dunyoqarashlar o'zgarishiga*
- E) *barcha javoblar to'g'ri*

28. Ilk bor regional miqyosda atrof-muhitni muhofaza qilishga oid konferensiyasi qayerda va qachon chaqirilgan?

- A) *Shveysariyada 1913-yil*
- B) *Kanadada 1915-yil*
- C) *Avstraliyada 1916-yil*
- D) *Italiyada 1918-yil*
- E) *AQSHda 1920-yil*

29. «Jayron» ekomarkazi O'zbekistonning ... viloyatida joylashgan?

- A) *Samarqand*
- B) *Qashqadaryo*
- C) *Navoiy*
- D) *Buxoro*
- E) *Sirdaryo*

30. Geografiyaning uch asosiy predmetini aniqlang?

- A) *ritmlilik, bir butunlik, hududiylik;*

- B) *regionallik, ritmlilik, sistemalilik;*
 C) *hududiylik, ritmlilik, majmualilik;*
 D) *davriylik, sistemalilik, regionallik;*
 E) *hududiylik, davriylik, komplekslilik;*

31. Ekoturistik rayonlashtirishda qanday qoidalarga amal qilinadi?

- A) *hududiy bir butunlik*
 B) *kompleks yondashuv*
 C) *genetik o'xshashlik*
 D) *individuallik*
 E) *barcha javoblar to'g'ri*

32. «Zarafshon» qo'riqxonasi qaysi ekoturistik rayonda joylashgan?

- A) *Ustyurt*
 B) *Qizilqum*
 C) *Zarafshon*
 D) *Nurota*
 E) *Hisor*

33. O'zbekistonda milliy hunarmandchilik rivojlangan rayonni aniqlang?

- A) *Farg'ona*
 B) *Qashqadaryo*
 C) *Surxondaryo*
 D) *Chirchiq-Ohangaron*
 E) *Sirdaryo*

34. Xalqaro ekologik rezervat joylashgan rayonni ajrating ?

- A) *Chirchiq-Ohangaron*
 C) *Ustyurt*
 B) *Sirdaryo*
 D) *Turkiston*
 E) *to'g'ri javob yo'q*

35. Ekoturizmning maqsadi nimadan iborat?

- A) *aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash*
 B) *barqaror rivojlanishni ta'minlash*
 C) *atrof-muhitni huquqiy jihatdan muhofaza qilish*
 D) *A, B*
 E) *to'g'ri javob yo'q*

36. Ekoturizm obyektini aniqlang?

- A) *tabiat unsur (komponent) lari*
 B) *tabiiy tizimlar*
 C) *tabiat majmualari*
 D) *antropogen majmualar*
 E) *A, B, C*

37. Orol dengizi ekoturizm obyekti bo'la oladimi?

- A) *ha*
 B) *qisman*
 C) *yo'q*
 D) *B, C*
 E) *to'g'ri javob yo'q*

38. Ekoturlarni tasniflashda «daraja» nimaga ko'ra ajratiladi?

- A) *ishtirokchilarning ijtimoiy holatiga ko'ra*
 B) *ishtirokchilarning yoshiga ko'ra*
 C) *ishtirokchilarning iqtisodiy imkoniyatiga ko'ra*
 D) *ishtirokchilarning ongiga ko'ra*
 E) *hamma javob noto'g'ri*

39. Ekoturlarni tasniflashda «guruh» nimaga ko'ra ajratiladi?

- A) *ishtirokchilarning ijtimoiy holatiga ko'ra*
 B) *ishtirokchilarning yoshiga ko'ra*
 C) *ishtirokchilarning iqtisodiy imkoniyatiga ko'ra*
 D) *ishtirokchilarning ongiga ko'ra*
 E) *hamma javob noto'g'ri*

VII. EKOLOGIK TURIZMDAGI ASOSIY ATAMA VA IBORALAR LUG‘ATI

- Antropogen landshaft*** — inson faoliyati natijasida o‘zgargan va unga bog‘liq holda rivojlanayotgan alohida bir ko‘rinishga ega bo‘lgan tabiat majmuasi.
- Antropogen omil*** — atrof tabiiy muhitga ta’sir etadigan kishilar faoliyati qirralari.
- Areal*** — muayyan bir o‘simlik va hayvonot dunyosi turi tarqalgan yoki jarayon va hodisalar sodir bo‘ladigan hudud yoki suv akvatoriyasi.
- Barqaror rivojlanish*** — shaxs va jamiyat hayotini tashkil etishning yangi modeli. Iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolarning yagonaligini e’tirof etuvchi dunyoqarash.
- Tabiat*** — obyektiv borliq, ya’ni bizni o‘rab turuvchi olam va uning xilma-xil shakllari. Amaliyotda yoki tabiiy fanlarda uni kishilarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish manbai bo‘lgan atrof tabiiy muhit deb qaraladi. Falsafiy yoki astronomik nuqtayi nazardan son-sanoqsiz yulduzlar, osmon va uning cheksiz unsurlari.
- Inson*** — Yer kurrasining jonli qobig‘i — biosferada yashovchi organizmlar tur-

kumiga kiruvchi, lekin murakkab hayotiy faoliyat yurituvchi individ. U ongining yuqoriligi, nutqining rivojlanganligi, ijodiy faolligi, takomillashgan mehnat qurollarini yarata olishi, axloqiy, ma'naviy hamda ruhiy o'z-o'zini anglay olishi bilan boshqa tirik organizmlardan tubdan ajralib turadi.

Jamiyat

— insonning boshqa insonlar bilan ma'lum bir hududda tarixan qaror topgan guruhi yoki uyushmasi.

Atrof-muhitni baholash

— real, aniq holatni standartlashtirilgan o'zgaruvchan ko'rsatkichlar bo'yicha ideal va muvaqqat me'yor bilan taqqoslash.

Atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun to'lov

— korxonalar, tashkilotlar va boshqa xo'jalik subyektlari tomonidan ularning salbiy oqibatlar va ekotizmlarni tiklash uchun qo'shimcha xarajatlarga olib keladigan faoliyati natijasida atrof-muhitga yetkazilgan zararni qisman qoplash uchun to'lanadigan pul to'lovlari.

Atrof-muhit holati haqidagi hisobot

— atrof-muhit holati haqidagi tizimli axborot to'plamini o'z ichiga olgan rasmiy yillik e'lon.

Atrof-muhit muhofazasini boshqarish

— atrof-muhitga antropogen faoliyat natijasida zararli ta'sirni chegaralaydigan hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanib, ularni qayta tiklashni ta'minlaydigan me'yor va talablarning bajarilishini ta'minlash.

- Atrof-muhitga ko'rsatilayotgan ta'sirni limitlashtirish (chegaralash)*** — *atrof-muhitga ta'sir ko'rsatayotgan manbalar va chiqindilarning ma'lum tavsiflarini ularga rioya qilish va nazoratini amalga oshirish imkoniyatlari mavjud bo'lgan hollarda vaqtinchalik belgilash.*
- Atrof-muhitga ta'sir qiluvchi manbalarni ro'yxatga olish*** — umumiy miqdori, joylashishi, ta'sir manbalarining asosiy tavsiflarini belgilangan me'yoriy va limitlarga mosligidan kelib chiqqan holda (sh.j. qo'shimcha o'lchovlar asosida) tuzilgan hujjat (rasmiy bayon).
- Atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun jarimalar*** — mansabdor shaxslar va fuqarolarga (yuridik va jismoniy shaxslarga) xo'jalik va boshqa faoliyat natijasida ekologik standart va me'yorlarni buzganliklari uchun solinadigan pul jarimalari.
- Atrof-muhitni nazorat qilish*** — inson va biota uchun eng muhim va asosiy bo'lgan atrof-muhit komponentalarining holati va ularning o'zgarishi ustidan nazorat qilish.
- Agrar zonalar*** — qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi bilan band bo'lgan alohida ekoturistik holatga muhtoj hududlar.
- Alohida muhofaza etiladigan hududlar*** — tarixiy-madaniy, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ekologik funksiyalarni bajaruvchi alohida huquqiy holat va davlat e'tiboridagi hududlar va obyektlar.
- Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar*** — ekologik, madaniy sog'lomlashtirish, ilmiy, estetik, rekreatsion (dam olish) funksiyalarni bajaruvchi alohida huquqiy holat va davlat e'tiboridagi tabiiy hududlar va obyektlar.

Atrof tabiiy muhitning ifloslanishi

— insonlarni o'rab turuvchi tabiiy muhit unsurlarini ekologik-huquqiy talablardan ortiq me'yorda fizik va kimyoviy o'zgarishi.

Atrof-muhitni xalqaro huquqiy muhofaza qilish

— insonlarning ekologik xavfsiz muhiti va davlatlarning barqaror rivojlantirishini ta'minlovchi xalqaro huquq prinsiplari, normalari va munosabatlari yig'indisi.

Baliq ovlash

— baliq va umurtqasiz suv hayvonlarini sanoat, havaskorlik va sport maqsadida ovlash.

Baliq xo'jaligi tegralari

— nodir va yo'qolib borayotgan baliq turlari va boshqa suv hayvonlarini muhofaza etish va ko'paytirish maqsadida, shuningdek, baliq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalaniladigan suv obyektlari yoki ularning bir qismi.

Botanika bog'i

— o'simlik termalari (kolleksiyalari)ni tuzish, to'ldirish va asrash, ilmiy, o'quv-ta'lim ishlarini olib borish yo'li bilan mahalliy va jahon miqyosidagi o'simliklar majmualarining nodir va muayyan turkumga xos turlarini maxsus yaratilgan sharoitda asrash, o'rganish, iqlimlashtirish, ko'paytirish hamda ulardan samarali va oqilona foydalanish maqsadida tashkil etilgan bog'.

Genofond yoki genetik fond (yun. *genos* — avlod, *kelib chiqish va lot. fondus* — asos)

— individlar guruhi genlari to'plamidagi nasliy axborot.

***Davlat yer nazorati
(inspeksiyasi)***

- mahalliy hokimiyat va davlatning maxsus vakolatli organlari tomonidan yer munosabati qatnashchilari (subyektlari)ning yer uchastkalaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir faoliyatlarini tekshirish.

Davlat milliy bog'i

- tabiatni muhofaza qilish muassasi hisoblangan alohida ekologik, tarixiy va estetik qimmatga ega bo'lgan hamda tabiatni muhofaza qilish, rekreatsiya, ma'rifiy-madaniy, ilmiy maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallangan tabiiy majmua.

Davlat tabiat yodgorliklari

- ekologik, ilmiy, estetik, madaniy jihatdan noyob, o'rnini to'ldirib bo'lmaydigan, qimmatli, kelib chiqishi tabiiy bo'lgan obyektlar.

Deklaratsiya

- muayyan tashkilot, davlat yoki partiyalarning asosiy prinsip va me'yorlarini tantanali ravishda e'lon qilishga yo'naltirilgan xalqaro hujjat.

Ekologik barqarorlik

- inson faoliyati va tabiiy ofatlar (zilzila, toshqin, sunami va h.k.) ning atrof-muhitga salbiy ta'sir etmaydigan darajasi, ya'ni muayyan bir hudud, kenglik va mintaqada ekologik xavfsiz muhit holatini bir me'yorda ushlab turish.

Yeger

- ovchi xo'jaliklarda *tabiatni muhofaza qilish* qonunlariga (xususan, ovchilik haqidagi qonunlarga) rioya qilishni nazorat qiluvchi mansabdor shaxs.

- «Ex situ» saqlash** — biologik xilma-xillik komponentlarini ularning tabiiy yashash joylaridan tashqarida saqlab qolish (parvarishxona, zoopark va b.)
- Ekologik ekspertiza** — rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini belgilash hamda ekologik ekspertiza obyektini ro'yobga chiqarish mumkinligini aniqlash yoki mutaxassislar tomonidan xulosalash.
- Ekologik inqiroz** — ekologik tizimda modda va energiya almashinuvining tabiiy holatda kechishining buzilishi yoki modda va energiyaning kichik va katta aylanish jarayonlarining muayyan bir bosqichdagi uzilishi.
- Ekologik siyosat** — muayyan davlatda yoki xalqaro miqyosda ma'lum bir yer, suv va havo kengligida yuzaga kelgan ekologik holatni hisobga olgan tarzda atrof-muhitni yaxshilash va sog'lomlashtirishga qaratilgan ichki va tashqi ijtimoiy-iqtisodiy harakat.
- Ekologik tanglik** — xalqaro hamjamiyat, davlat va jamiyat tomonidan global, regional va mahalliy miqyosdagi ekologik muammolar yechimini topishning qiyinlashuvi.
- Ekologik kadastr** — muayyan tabiiy obyektning geografik joylashuvi, huquqiy maqomi, miqdor, sifat tavsiflari va bahosi to'g'risidagi yangilanib turiladigan (o'zga-

- ruvchan) ma'lumotlar va hujjatlar to'plami.
- Ekologik konsepsiya*** — tabiat va jamiyatning o'zaro munosabati to'g'risidagi qarashlar tizimi, ya'ni bu moddiy dunyoda kishilarning o'rni, ahamiyati va mohiyatini aks ettiruvchi dunyoqarashlar.
- Ekologik monitoring*** — atrof tabiiy muhit va tabiiy resurslarning davriy o'zgarishini (kadastr ma'lumotlariga asoslangan tarzda) kuzatib borish, hisobga olish, baho berish va istiqbolini belgilash tizimi.
- Ekologik nazorat*** — ekologik munosabat subyektlarining tabiiy resurslardan oqilona foydalanishlari va atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishlariga oid faoliyatlarini vakolatlangan davlat organlari, nodavlat tashkilotlari va jamoat birlashmalari tomonidan tekshirib borish va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish tizimi.
- Ekologik-ijtimoiy javobgarlik*** — ijtimoiy javobgarlikning bir turi bo'lib, u hozirgi zamon milliy yoki xalqaro huquq normalarida belgilanmagan, lekin millat yoki xalqlarning azaliy urf-odatlarini, an'analari orqali avloddan-avlodga o'tib kelayotgan qoida va me'yorlar.
- Ekologik soliq*** — tabiiy obyektlardan foydalanganliklari, shuningdek, atrof-muhitni ifloslantirganliklari uchun jismoniy va yuridik shaxslardan doimiy,

muddatli yoki bir marotabalik to'lovlar.

Ekologik xavfsizlik

- atrof tabiiy muhit holatini organizmlarning hayotiy zarur ehtiyojlariga javob bera olishi yoki insonlar uchun sog'lom, toza va qulay tabiiy sharoitga ega atrof-muhit holati.

Ekoturistik xavfsizlik

- ekoturistik sayohatni rejalashtirish, olib borish va yakunlash davomida ko'zda tutiladigan hamda amalda realizatsiya qilinadigan atrof tabiiy muhit va sayohatchilarning tabiiy hamda antropogen omillar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatlardan saqlanganlik darajasi.

Ekologik javobgarlik

- ekologik xavfsiz muhitni ta'minlashdagi davlat, jamiyat va shaxslarning hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi burchlari va majburiyatlari hamda ularni bajarmasligi tufayli yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy va yuridik xarakterdagi salbiy oqibatlar.

Ekologik jamg'arma

- atrof-muhit muhofazasi va sanitar-gigiyenik holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni (dastur, reja, loyiha, konferensiya, munozara, uchrashuv, missiya) moliyaviy ta'minlash maqsadida tuzilgan pul jamg'armalari.

Ekologik sug'urta

- sug'urtalanuvchilarning pul jamg'armalari hisobiga tashkil etilgan va ekologik xavfli oqibatlar yuzaga

- kelganda, ularning moddiy va ma'naviy zararlarini qoplash bo'yicha amalga oshiriladigan moliyaviy munosabat.
- Ekologiyaning maqsadi*** — hozirgi va kelajak avlodlar uchun ekologik xavfsiz muhitni ta'minlash.
- Ifloslanish darajasi*** — muhitdagi ifloslantiruvchi moddalar miqdorining mutlaq yoki nisbiy qiymati.
- Ifloslantirish manbasi*** — 1) ifloslantiruvchi moddani atmosferaga tashlash nuqtasi; 2) ifloslantiruvchi moddani ishlab chiqarayotgan xo'jalik yoki tabiiy obyektlar; 3) kirib kelayotgan ifloslantiruvchi moddani tarqatayotgan hudud.
- Iqlimga moslashish (akklimatizatsiya)*** — organizmlarning (inson, hayvonot, o'simliklar) o'zgargan jo'g'rofiy (asosan, iqlimiy) sharoitlarda yashashga ko'nikishi.
- Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan ta'sir (me'yoriy ta'sir)*** — ekologik tizimni salbiy o'zgarish ro'y bermaydigan holatidan (barqarorlik zonasi) chiqarib yubormaydigan ta'sir.
- «In situ» saqlash*** — biologik xilma-xillik komponentlarini ularning tabiiy yashash joylarida saqlab qolish.
- Rafting*** — tog' daryolari bo'yicha maxsus moslamalar orqali suzishga yo'naltirilgan sayohat turi.
- Sarguzashli turizm*** — tabiatning ison tomonidan kam o'zlashtirilgan yovvoyi tabiat qo'yniga qilinadigan sayohat turi.

- Hayvonot dunyosidan foydalanuvchilar*** — hayvonot dunyosi obyektlarining foydali xususiyatlaridan o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida jismoniy va yuridik shaxslarning qonun hujjatlarida belgilangan shartlar va tartibda foydalanishlari.
- Jamoat ekspertizasi*** — fuqarolar, fuqarolar yig'ini, o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari hisobidan ekologik ekspertizani o'tkazish. Ularning xulosalari tavsiya kuchiga egadir.
- Jamoat yer nazorati*** — yerlarni muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish borasidagi yer qonunchiligi talablariga rioya etishni nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan tekshirish.
- Javobgarlik*** — muayyan shaxs, jamoa yoki davlatning o'zga shaxslar, jamoatchilik, davlat va davlatlar oldidagi burchi, majburiyati.
- Milliy ekologik boshqaruv*** — hokimiyat organlari, birlashmalar, tashkilotlar va ularning tabiatni muhofaza qilish vakolatlari, funksiyalari va usullari majmuasi.
- Milliy ekologik qonunlar*** — Oliy Majlis tomonidan yoki umum-xalq ovoz berish (referendum) orqali qabul qilingan, o'zida uning amal qilish muddati, hududi va shaxslar doirasida ekologik munosabat subyektlari faoliyatining umumiy ko'rsatkichlarini mujassamlashtirgan normativ-huquqiy hujjatlar.

Nodavlat notijorat tashkiloti

- jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foйда) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkiloti.

Ov qilish

- tabiiy erkinlik holatida yashaydigan yovvoyi hayvonlarni tutish maqsadida izlash, iziga tushish va quvlab borish, tutishga intilish va tutish (otish, tutib olish).

Qizil kitob

- yo'qolgan yoki yo'qolish arafasida turgan, yo'qolib borayotgan, kam-yob va kamayib borayotgan o'simlik va hayvonot dunyosining genofondini saqlab qolish maqsadida tashkil etilgan ma'lumotlar ro'yxati (rejestri).

Qonun

- oliy yuridik kuchdagi milliy huquq normasi. Uning qoidalari va me'yorlari davlat tomonidan ishlab chiqiladi, o'rnatiladi, muhofaza etiladi, umummajburiy kuchga ega bo'ladi va yuridik oqibatlarini keltirib chiqaradi.

Qo'riqlanma (oralik) yoki bufer tegralar

- ijtimoiy-ekologik va qo'riqxon-ekologik turdagi alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga tabiiy texnogen jarayonlarning salbiy ta'sirining oldini olish maqsadida tashkillashtirilgan zonalar.

- Qo'riqxon*** — alohida muhofaza etiladigan oddiy va noyob tabiiy majmualar, o'simliklar va hayvonlarning irsiy fondlarini saqlab qolish va o'rganish, tabiiy jarayonlar va hodisalar o'zgarishi ustidan monitoring o'tkazish maqsadidagi ilmiy-tadqiqot muassasi.
- Rekreatsiya tegralari*** — turizm va aholining ommaviy dam olishini tashkil etish uchun qulay geografik va iqlim sharoitlariga ega hududlar.
- Suvdan oqilona foydalanish*** — suvning foydali xususiyatlaridan jismoniy va yuridik shaxslarning qonun talablari asosida foydalanishi.
- Suvni muhofaza qilish mintaqalari (tegralari)*** — daryolar, ko'llar, suv omborlari, kannallar, kollektorlar hamda boshqa suv obyektlarining o'zanlariga tutash suvlarni muhofaza qilish maqsadida tashkillashtirilgan alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar.
- Tabiiy obyektlarga nisbatan mulk huquqi*** — tabiiy resurslar, tabiiy komplekslar yoki tabiiy hududlarning kimga tegishliligi va mulkdorning unga nisbatan qanday vakolat (huquq)ga ega ekanligi.
- Tabiat unsurlarining buzilishi*** — atrof-muhit holatining inson yashashi uchun noqulay darajada o'zgarishi.
- Tabiat unsurlarining oriqlanib ketishi*** — insonlarning hayotiy zarur ehtiyojlarini iqtisodiy shaklda qondirilishi natijasida tabiiy resurslarning kamayib borishi.

- Tabiat unsurlarining vayron bo'lishi*** — tabiiy obyektlarning tabiiy va texnologen jarayonlar natijasida tabiiy xossa va xususiyatlarining yo'qolishi.
- Tabiat unsurlarining yo'q bo'lib ketishi*** — ayrim turdagi o'simlik va hayvonot dunyosini yer yuzida tur sifatida yo'qotilishi.
- Tabiat va kishilik jamiyati o'rtasidagi munosabatlar shakli*** — ma'lum bir davrga xos bo'lgan kishilarning atrof tabiiy muhit bilan o'zaro uzviy bog'langan hayot tarzi.
- Turizm*** — sayohat qilish, dam olish bilan bir qatorda sport va umumtarbiyaviy yoki siyosiy-ma'rifiy vazifalarni bajarish.
- Trekking*** — turizmning bir turi bo'lib, u tog'da yayov sayr qilishdir.
- Xalqaro ekologiya huquqi obyekti*** — xalqaro huquq subyektlarining ekologik munosabatlar predmeti bo'lgan tabiiy obyektlar, ya'ni o'zining xususiyati, joylashuvi va ahamiyati nuqtayi nazaridan biron-bir davlat yuridiksiyasiga kirmaydigan yoxud nazoratida bo'lmaydigan, shuning uchun ham ikki va undan ortiq mamlakatlar yoki xalqaro hamjamiyat mulki bo'lgan tabiiy obyektlar.
- Xalqaro ekologik jamg'armalar (fondlar)*** — tabiatning muhofaza qilish, atrof-muhitning sanitar va gigiyenik holatini yaxshilash va ekologik dasturlarni moliyaviy ta'minlash kabi vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan xalqaro ekologik tashkilotlar. Faoliyat yurgizish va

amaliy harakat qilish ko'lamiga ko'ra ular umumjahon, regional va regionlararo turlarga ajraladilar.

Xalqaro shartnoma

- siyosiy ahamiyat kasb etuvchi va boshqa siyosiy, iqtisodiy, ma'rifiy-madaniy masalalar qatori atrof-muhit muhofazasiga oid xalqaro me'yorlarni o'zida aks ettiruvchi hujjat.

Yer nazorati

- yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishga oid yer qonun hujjatlari talablarining yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishini davlat organlari, jamoat birlashmalari hamda vakolatlangan idoralar va shaxslar tomonidan tekshirish.

Yerlarni muhofaza qilish

- ulardan belgilangan maqsadda oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini, o'rmon fondi yerlarining samaradorligini tiklash va oshirish, qishloq xo'jalik aylanmasidan va alohida muhofaza etiladigan hududlarning yerlari tarkibidan yerlarning asossiz ravishda olib qo'yilishining oldini olish, ularni zararli antropogen ta'sirdan himoya qilishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, texnologik va boshqa tadbirlar tizimi.

O'rmonlarni qo'riqlash

- vakolatlangan davlat organlari va jamoat birlashmalari tomonidan o'rmonlardan noqonuniy tarzda foydalanish, ularga zararli ta'sir ko'rsatishdan qo'riqlash.

- O'rmon tuzish*** — o'rmonlarni muhofaza qilish, qo'riqlash, o'rmon xo'jaligi va o'rmonlardan foydalanishni oqilona yuritilishini ta'minlashga qaratilgan tadbirlar tizimi.
- O'rmonlarni ko'paytirish*** — o'z ichiga daraxtzorlarning zichligini oshirish, nav tarkibini yaxshilash, qimmatli navlarni ko'paytirish, boshqa yer fondi toifalaridan (masalan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan) o'rmon fondi yer toifasiga kiritish kabi tadbirlar.
- O'rmonlarni muhofaza qilish*** — o'rmonlarga zararkunandalar, kasalliklar, tabiiy-texnogen jarayonlar (eroziya, sel, deflyatsiya, yong'in, qurg'oqchilik) ning oldini olish chora-tadbirlarini qo'llash.
- O'rmonlarni tiklash*** — kesilgan o'rmon yoki o'rmonsiz yer o'rniga daraxt va butalar ekish, nav tarkibini yaxshilash, ularning mahsuldorligi va muhofazalash xususiyatini oshirish, genetik fondi va biologik xilma-xilligini saqlab qolishga yo'naltirilgan tadbirlar.
- O'rmonlarning mahsuldorligini oshirish*** — o'rmonlarni takroriy ko'paytirish, nav tarkibini yaxshilashni o'rmon melioratsiyasi va plantatsiyasini tashkil etish orqali amalga oshirish.
- O'rmonlarning taqiqlangan mintaqalari*** — qimmatli va nodir o'simlik turlarining irsiy fondini muhofaza etish va saqlab qolish, shuningdek, o'rmon fondi maydonlarida qo'riqxonalar, milliy bog'lar va alohida muhofaza etiladigan o'zga tabiiy hududlarning

ish tartibini ta'minlash maqsadida tashkillashtirilgan hududlar.

O'simlik dunyosi obyekti

- tabiiy sharoitda o'sadigan, takror yetishtirish va genetik fondini saqlash uchun ekib o'stiriladigan yovvoyi o'simliklar.

Davlatning ekologik siyosati

- davlatning tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish borasida olib borayotgan ichki va tashqi faoliyat majmuyi.

VIII. TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

I. DARSLIK ADABIYOTLAR

1. *I. Karimov*. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. — T.: «O'zbekiston», 1992.
2. Atrof tabiiy muhitini muhofaza qilish. Qonunlar va normativ hujjatlar. — T.: «Adolat», 2004.
3. O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning holati to'g'risida Milliy ma'ruza. — T.: Chinor ENK, 2006.
4. O'zbekistonda atrof-muhitning holati va tabiiy resurslardan foydalanish: faktlar va raqamlar. 2000—2004 // Statistik to'plam. — T, 2006.

ASOSIY ADABIYOTLAR

1. *Храбовченко В.В.* Экологический туризм. — М.: Финансы и статистика, 2003.
2. *Тухлиев Н., Абдуллаева Т.* Экологический туризм: сущность, тенденции и стратегия развития. — Т.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2006.
3. *Бочкарёва Т.В.* Экотуризм: анализ существующего международного опыта. — М., 2003.
4. *Александрова А.Ю.* Международный туризм. — М.: Аспект пресс, 2002.
5. *Биржасков М.Б., Никифоров В.И.* Индустрия туризма: Перевозки. Москва — Санкт-Петербург, «Невский Фонд», «Издательский дом Герда», 2001.
6. Глобальные прогнозы развития туризма до 2000 года и в последующий период. Мир в целом. Мадрид, 1994. с. 3—68, 123—210.
7. *Davidov R.* Turizm, — London, 1990.
8. *Егоренков Л.И.* Экология туризма и сервиса. — М.: Финансы и статистика, 2003.
9. *A. Nig'matov*. Ekologiya nima? — T.: «Turon-iqbol», 2005.
10. *A. Nig'matov, N. Shomurotova*. Ekologik turizm — yangi fan sohasi // j.Ekologiya xabarnomasi, 2003. 6-son. 14—17-b.
11. *Окладникова Е.А.* Международный туризм. География туристских ресурсов мира. М.: Омега — Л., 2002.
12. Рабочая программа развития экотуризма на участке Чимган—Белдерсай// Угам—Чаткальский национальный парк, Узбекистан. — Проект—июнь, Ташкент, 2005.

13. Рабочая программа развития экотуризма на участке Хумсан — Акташ// Угам — Чаткальский национальный парк, Узбекистан. — Проект — июнь, Ташкент, 2005.
14. *Соколова М.В.* История туризма — М.: Мастерство 2002.
15. *A.S. Soliyev, M.R. Usmanov.* Turizm geografiyasi. SamDU, 2005.
16. *Таксанов А.* Азбука туризма. Ассоциация путешественников Рабат Малик. — Т., 2005.
17. *Уокер Д.* Введение в гостеприимство. Учебник. — М., 1999.
18. *А.Б. Косолапов, Н.Г. Мизь.* Экологический туризм в Приморском крае и работа гида на маршруте (методические рекомендации). — Владивосток, 2002.
19. *Дроздов А.В.* Экотуризм: определения, принципы, признаки, формы / / Акт. пробл. туризма — 99. Перспективы развития туризма в южном Подмоскowie. Сб. докл. и тез. сообщений науч.-практ. конф. — М., 1999. с. 32—41.
20. *Емельянов Б.В.* Экскурсоведение. РМАТ, — М., 2001.
21. *Петрасов И.* Концепция устойчивого развития применительно к мировому туризму <http://www.publication.narod.ru/> Fauthor Fpetrasov Famin. htm.
22. Разработка и описание экотуристических маршрутов. МАНТ—ДВ, Хабаровск, 2000.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

1. *В. Aminov, T. Tilovov.* Odam va uning salomatligi. — Т.: «O'qituvchi», 1995.
2. *Ердаuletov С.Р.* География туризма: история, теория, методы, практика. — Алматы, 2000—336 с.
3. *М. Алиев.* Табиат ва тақдиримиз. — Т.: «Медицина», 1989.
4. *М. Матаназаров.* Ekologik xavfsizlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari // j. Ekologiya xabarnomasi. №3, 2005. 26—27-b.
5. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at. — Т.: «Sharq», 1998.
6. *Тетюхин Г.Ф., Маматкулов М., Батунская Б.А.* Некоторые аспекты рационального использования и охраны неживой природы Узбекистана. — Т., «Фан» 1987.
7. *Yu. Sh. Shodimetov.* Ijtimoiy ekologiyaga kirish. — Т.: «O'qituvchi», 1993.
8. *A. Nig'matov.* Ekologiya. — Т.: «Cho'lpon», 2006.
9. Barqaror rivojlanishning geoeologik jihatlari / A.Nig'matov va boshqalar. — Т.: UzMU nashriyoti, 2006.
10. *A. Rafikov.* Geoeologik muammolar. — Т.: «O'qituvchi», 1997.
11. *Реймерс Н.Ф.* Надежды на выживание человечества: Концептуальная экология. — М.: «Россия молодая. Экология», 1992.
12. *A. Ergashev.* Umumiy ekologiya. — Т.: «O'zbekiston», 2003.
13. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. — Т.: «O'zME nashriyoti» 1—11 jildlar. 2000—2006 уу.
14. O'zbekcha-ruscha-inglizcha ekologik izohli lug'at. — Т.: Chinor ENK, 2004.

VEB SAYTLAR

1. <http://site-ru.net/jh/kp/>
2. http://uzforyou.com/q_a.htm
3. [Ftours Fvelotur-pustinya Kizilkum.htm](http://F.Fuzforyou.com)
4. <http://www.travelgroup.ru/ecotourism>
5. <http://www.geographia.com/>
6. <http://www.jonathanangelascott.com/>
7. <http://www.videoglobetrotter.com/>
8. http://www.crusadertravel.com/red_sea/
9. <http://www.unitours.ru/>
10. <http://www.constanttour.ru/>
11. <http://www.goperu.ru/>
12. <http://www.lonelyplanet.com/worldguide/destinations/south-america>
13. <http://www.tourism.com/>
14. <http://www.yandex.ru/yandsearch?text=beach&stypе=www>
15. <http://shalkamy-eg.com/>
16. <http://www.bcreservation.com/canoe.html>
17. <http://www.famous-india.com/packages-tour-india/rajasthan-camel-safari-tour.html>
18. <http://www.newride.ru/rafting.htm>
19. <http://www.issyk-kul.com/>
20. <http://www.newride.ru/index.html>
21. <http://www.elbrusspeedclimb.com/?p=foto&m=menu2&l=ru>
22. http://www.sustainabletravelinternational.org/documents/op_et_executive.html
23. <http://www.ecoventura.com/photogallery/default.asp>
24. <http://www.finchbayhotel.com/>
25. <http://www.dodotraveltour.com/english/madagascar.cfm>
26. <http://www.tokyolionhouse.ru/exkur.html>
27. http://www.orexca.com/rus/nature_tyan-shan.shtml
28. http://rabatmalik.freenet.uz/rus/eco_tour.html
29. <http://www.qb.uz/russian/ecological/>
30. http://www.orexca.com/rus/nature_tyan-shan.shtml
31. <http://www.elenatour.uz/>
32. <http://chatkal.freenet.uz/tour.phtml>

MUNDARIJA

Soʻzboshi	3
-----------------	---

I. NAZARIY QISM

1.1. Ekoturizm — mustaqil fan sohasi	5
1.2. Ekoturizmning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti	11
1.3. Ekoturlarning tasniflanishi (klassifikatsiyasi)	19
1.4. Ekoturizmning rivojlanish tarixi	26
1.5. Ekoturistik dunyoqarashlar tizimi (konsepsiyalar)	35
1.6. Ekoturizmning yoʻnaltiruvchi qoidalari (prinsiplari)	41
1.7. Ekoturistik xavfsizlik	46
1.8. Turizmدا ekoturizmning tutgan oʻrni	51
1.9. Oʻzbekistonning ekoturistik imkoniyatlari	54
1.10. Ekoturizm boʻyicha dunyo tajribasi	60
1.11. Ekoturizmning kelajak istiqbollari	71

II. AMALIY QISM

2.1. Ekoturistik marshrutlar tushunchasi va mazmuni	76
2.2. Ekotur talablari va tavsiyalari	80
2.3. Oʻzbekistondagi ekoturistik tashkilotlar va ekoturlar	82
2.5. Oʻzbekiston hududini ekoturistik rayonlashtirish	84
III. Amaliy mashgʻulotlar	95
IV. Seminar mashgʻulotlar rejasi	100
V. Mustaqil ish mavzulari	103
VI. Test savollari	104
VII. Ekologik turizmдagi asosiy atama va iboralar lugʻati	108
VIII. Tavsiya etiladigan adabiyotlar	124

Asqar Nig‘matov, Nigora Shomurotova

EKOTURIZM ASOSLARI

Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma

«Turon-Iqbol» nashriyoti — 2007

Muharrir	<i>A. Sa‘dullayev</i>
Badiiy muharrir	<i>J. Gurova</i>
Texnik muharrir	<i>T. Smirnova</i>
Musahhih	<i>S. Abdunabiyeva</i>
Kompyuterda sahifalovchi	<i>B. Boboxodjayeva</i>

Bosishga 06.08.07. da ruxsat etildi. Bichimi 60×90^{1/16}. «Tayms» garniturada ofset bosma usulida bosildi. Shartli b.t. 8,0. Nashr t. 9,22.

Jami 750 nusxa. 187-raqamli buyurtma.

«ARNAPRINT» MCHJ da sahifalanib, chop etildi.
Toshkent, H. Boyqaro ko‘chasi, 41.